

M. XALILOVA

**O'zbek tili  
stilistikasi asoslari**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**M. XALILOVA**

# **O'ZBEK TILI STILISTIKASI ASOSLARI**

FARG'ONA DAVLAT  
UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
QABUL QILISH YIG'ISH VA  
NASHR BO'LINI

«FARG'ONA» nashriyoti,  
2009-yil

Mas'ul muharrir: **A. MAMAJOHOB**,  
filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizehilar: **A. NURMONOV**,  
filologiya fanlari doktori, professor.

**S. MO'MINOV**,  
filologiya fanlari doktori, dotsent.

*Kitob Farg'ona davlat universiteti Ilmiy Kengashi  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

M. XALILOVA

O'ZBEK TILI STILISTIKASI ASOSLARI // O'quv qo'llanma.  
«FARG'ONA» nashriyoti, 2009-yil, -104 b.

*Mazkur o'quv qo'llanmasida stilistikaning alohida soha sifatida o'rganilish muammolari, lingvostilistika va uning predmeti, stilistikaning birlamchi tarmog'i hisoblanuvchi funksional stillar masalalari qamrab olingan. Funksional stillar tasnifi haqidagi so'nggi qarashlar va tasniflarga tayanilgan holda nutq uslublari izohlab berilgan. Mazkur qo'llanma filologiya fakulteti talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, aspirantlar, kollej hamda litsey ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.*

© M. XALILOVA, 2009-yil  
© «FARG'ONA» nashriyoti, 2009-yil

## S O' Z B O S H I

O'zbek tilshunosligida uzoq yillar mobaynida stilistika «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanining so'nggi bo'limi sifatida, asosan, nutq uslublarni tekshiruvchi sohasi hisoblanib kelindi. Funksional uslublarni o'rganish, tilning stilistik vositalarini belgilash bo'yicha ayrim tadqiqotlar olib borildi. Nutq uslublarning, jumladan, ilmiy uslubning leksik-frazeologik va morfologik xususiyatlari yuzasidan M.Mukarramovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili»<sup>1</sup> qo'llanmasi, taniqli olimlar A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamovlar tomonidan «O'zbek tili stilistikasi» darsligi<sup>2</sup> nashr etildi. Publitsistik uslubning leksik-frazeologik xususiyatlari va rasmiy nutq uslubi bo'yicha bir qancha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi<sup>3</sup>. Shular asosida o'zbek tili stilistikasi mustaqil fan sifatida shakllana boshlandi. Yuqorida aytib o'tilgan darslik va qo'llanmalarda tilning funksional aspekti, nutq uslublarning lingvistik tomonlari va ularning o'zaro munosabati, leksik, morfologik va sintaktik stilistika masalalari yoritilgan. Morfologik stilistika doirasida aniq va etarli uslubiy tahlillar berildi. Shu bilan birga bu masalalar nutq madaniyati muammolari bilan bog'lab o'rgatildi. Nutq uslublarning ba'zi bir leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari izohlandi.

Mazkur qo'llanmada bu sohada mavjud darslik va qo'llanmalardan farqli ravishda stilistikaning o'rganish predmeti, masalalari kengaytirilgan holda yoritildi. Shu o'rinda stilistika, stil, uslub, uslubiyat atamalarining ko'pincha biri o'rinda ikkinchisining almashtirib qo'llanishi holatlari, ularning o'ziga xos ma'no va tushuncha

<sup>1</sup> Mukarramov M. Hozirgi uzbek adabiy tilining ilmiy stili. -T.: Fan, 1981.

<sup>2</sup> Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. U'zbek tili stilistikasi. -T.: U'qituvchi, 1983.

<sup>3</sup> Kurbanov T. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. АКД. -Т., 1998. // Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка. Автореферат дисс. На соискание уч. ст. канд. филол. наук. -Т., 1987.



sifatida shakllanib borayotgan nutq madaniyatining, nutq san'ati, fikrning nozik ortenkalari va mazmun, ularni ifoda qiluvchi vositalarda o'rinli foydalanish masalalari amaliy stilistikaning o'rganish ob'yekti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ma'lumki, *stilistika* birinchi ma'nosida alohida fanni, sohani bildiradi. Bundan tashqari badiiy asar tili va uning ifoda vositalari haqidagi bo'lim nomi sifatida ham talqin qilingan. Stilistika atamasi zamirida *stil* atamasi ham alohida qo'llanib, stilistika so'zining birlamchi ma'nosi sifatida qayd qilinadi. Stil so'zi: 1. San'atkor ijodining yoki ma'lum davr san'ati va adabiyotining g'oyaviy mazmun va badiiy shakllarida o'ziga xos xususiyat va belgilari majmui yoki uslub sifatida; 2. Biror yozuvchi adabiy asar yoki janrning til boyligidan, uning ifoda vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xos xususiyatlari va usullari: yozuvchining stili, publitsistik stil kabi ma'nolarda<sup>1</sup> qo'llanadi. Ko'rinib turibdiki, stil atamasi uslub atamasiga nisbatan kengroq ma'noda va stilistika fani doirasida qo'llanishi maqsadga muvofiq, chunki ma'lum bir o'z ichki zanjiriga ega bo'lgan nutq ko'rinishlarining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning fonetik, leksik va grammatik tuzilishini qamrab oladigan va o'zida yuqoridagi kabi ma'nolarni ham aks ettiradigan atama sifatida ishlatiladi. *Stilistika* til birliklarining inson munosabatini ifodalash imkoniyatlari bo'lib, har bir til birligida bu imkoniyatlar mavjud, *stil* esa ana shu imkoniyatlardan foydalanishga bo'lgan munosabatdir. Til birliklari bir tomondan narsa-hodisalarni ifodalab, ular orasidagi o'zaro munosabatni bildirsa, ikkinchi tomondan insonning ana shu narsa-hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Masalan, *yuz, bet, bashara, turq, aft, chehra, oraz* kabi so'zlarning har biri orqali so'zlovchining emotsional-ekspressiv munosabatlari aks etadi, ya'ni ularning lug'aviy ma'nolari orqali ijobiy munosabat yoki salbiy munosabat ifodalandi.

*Stilistika* atamasini *uslubiyat* atamasi bilan ham farqlab qo'llash lozim.

*Uslub* atamasi nutq tuzish va nutq tuzilishiga nisbatan qo'llaniladi. Til birliklari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, nutqning u yoki bu uslubida ishlatiladi. Nutq egasi, avvalo, o'z nutqiga,

<sup>1</sup> O'zbek tilining nazariy lug'ati. -T., 1981. 77-bet.

<sup>2</sup> O'zbek tilining nazariy lug'ati. -T., 1981. 77-5et.

uslubiga ega bo'lgan holda til birliklarini mana shu nutqqa xos nuqtai nazaridan qo'llaydi.

Demak, *stilistika* alohida soha sifatida til birliklarini ifodalagan tushunchalarga inson munosabatini ifodalash imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan munosabatni o'rganishga, imkoniyatlardan kim, qaysi nutqda, qanday foydalanishga, uslublarini tekshirish orqali o'rganish mumkin. Masalan, badiiy til birliklaridan, ular imkoniyatlaridan foydalanishga umumiy ham boshqacha, xususiy munosabat ham turli-tuman tarzda. Masalan, Abdulla Qahhor nasriy usulda ijod qiladi. Uning qissalari boshqa uslublardagi asarlardan farq qilsa, ikkinchi O'ybek yoki Abdulla Qodiriy nasriy asarlaridan farq qiladi.

Uslub nutq ko'rinishi, shu bilan birga, nutq birliklari imkoniyatlaridan o'ziga xos tarzda foydalanish. Birinchi holatda funksional uslublar: ilmiy, rasmiy, badiiy ko'rinishlarida namoyon bo'lib, har birining o'ziga xos til xususiyatlarini, til birliklari imkoniyatlarining tanlanishi mavjud. Ya'ni ilmiy o'ziga xos lug'aviy, grammatik va boshqa xususiyatlar, uslubning ham o'ziga xos tomonlari, tanlanishlari bor. Badiiy bunday imkoniyatlardan foydalanish o'ziga xos tarzda ikkinchi holatda, har bir nutq egasining til birliklari imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan munosabati ko'zga tashlanadi. Chunki, o'z so'zlarining bir imkoniyati ularning ma'lum bir ma'noga o'zaro ziddana olishidir. Bu so'zlar hamma uslublarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Biroq badiiy uslubda ular tanlangan ma'nosiga ko'ra tasviriy vosita vazifasini bajaradi.

Demak, uslubiyat nutq ko'rinishlarida til imkoniyatlarining namoyon bo'lishi, tanlanishi, til imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan munosabatni o'rganish sohadir. Shuning uchun ham *stilistika, uslub, uslubiyat* farqlab qo'llash ma'quldir. Chunki *fe'l stilistikasi, olmosh qo'shma gap stilistikasi* atamaları o'rinda *fe'l uslubiyati, uslubiyati* atamalarini qo'llab bo'lmaydi. *Stilistika* so'zining ancha keng bo'lganligi tufayli bu so'zni *uslubiyat* atamasi ishlatish mumkin bo'lgan holda, *uslubiyat* so'zini hamma



ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy stillarning o'ziga xos xususiyatlari va foda vositalarini tekshiradi.

Bitor milliy tilga xos bo'lgan stilistikaning mundariyasi birmuncha keng bo'lib, u tilning barcha stilistik tizimini tekshiradi. Yuqorida, Vinogradovning keltirilgan fikriga asosan, ushbu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning og'zaki va yozma shakllarini, adabiy va sozlashuv nuq ko'rinishlarini ham o'z ichiga oladi. Shunday tarzda stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yo og'zaki nuqda ko'proq ishlatiladi, degan masala bilan ham shug'ullanadi. Bularidan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangai yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va o'rindi ishlatish yo'llarini belgilash vazifalari yuklatiladi.

Stilistikaning vazifasini shu tarzda sharlash uning mundariyasini yanada kengaytiradi. Lingvostilistikada sinonimiya masalalarini o'rganish markaziy o'rinni egallaydi. Ammo tilidagi sinonimiyaning umumiy qonuniyatlarini o'rganish stilistikaning ob'yektiga kirmaydi. Stilistikada sinonimik munosabatlarning barcha ko'rinishlari: sozlarining stilistik vazifalari, sintaktik konstruktiviyalarining qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Sinonimiyaning umumiy qonuniyatlarini tishunoslikning «leksikologiya» bo'limida o'rganilib, unda leksik va grammatik sinonimlar ajratiladi. Umumiy birlashtiruvchi ma'nolari bir xil, lekin ma'no nozikliklari bilan farqlanib turuvchi va bir qatorga birlashtiruvchi sozlar sinonimlar<sup>7</sup>, deb ta'riflanadi. Xuddi shu ma'noda, grammatik shakllarning ham umumiy ma'nolari bir xil bo'lgan, lekin ma'no nozikliklari bilan farqlanib turadigan ko'rinishlari ham sinonimlikni vujudga keltiradi.

Stilistikada sinonimiyaning bu qonuniyatlari barcha til sathlari doirasidagi til birliklariga tadbiiq etiladi. Barcha til sathlaridagi til birliklarining o'z sathi doirasidagi til birliklari bilan o'rin almashinishi, biri o'rinda ikkinchisining qo'llanish holatlari, ya'ni ma'nodoshlik hodisalari o'rganiladi: *leksik sinonimiya, morfologik sinonimiya, sinaktik sinonimiya*. Bu doiralardagi sozlarining, so'z shakllarining,

<sup>7</sup> Хожина А. Узбек тили синонимларининг изохли муфати. - Т. Фан, 1983. 3-бет.

ayniqsa, ular farqlangan hodisalarning aniq atamasi sifatida qo'llangan holatlarda *stilistika* so'zi o'rinda qo'llab bo'lmaydi. *Stil* so'zi esa *ustub* atamasi nisbatan kengroq ma'noda bo'lganligi va bir qancha ma'nolari bilan ustub atamasi to'g'ri kelganligi ma'lum. Shunga ko'ra, *nuq* *ustublar* birkimasini *nuq stillari* tarzida qo'llash ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda har bir ijodkorning, nuq egasining o'ziga xos ustubini o'rganish ham, har bir nuq ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ham muhim masaladir. Masalan, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Muhammad Yusuf kabi har bir ijodkorning o'ziga xos badiiy nuq tuzish ustubini o'rganish bir yo'nalish bo'lsa, badiiy, rasmiy yoki boshqa ustublarda til birliklari imkoniyatlarining tanlanishi, xoslanishi kabilarni o'rganish ikkinchi yo'nalishdir.

Xullas, til birliklarining u yoki bu ustublarga xoslanib qolishi ham ularning nuq ko'rinishlarida qo'llanishlari ham ularidan foydalanishga munosabatlarning na'vasi, ifodasidir.

Tishunoslikda stilistikaning o'rganish ob'yekti nuq stillari, leksik, grammatik, sinonimiya hamda til vositalarining ma'no va tomondan e'tirof etilishda, lekin bularni yoritishda, tasnif qilishda, til vositalarining stilistik va emotional-ekspressiv bo'yog'larini tushunishda bir-birlardan farq qildilar.

Akademik V.V. Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin vazifalari turlicha bo'lgan uchta tekshirish aspektini farqlash zarur, deb uqitiradi. U stilistikani uch qismga ajratadi.

1. Tilning vaziraviy stillarini o'rganuvchi stilistika (strukturnaya stilistika)

2. Turli janrlarning semantik va ekspressiv - stilistik xarakterlarini hamda og'zaki va yozma nuq orasidagi farqni tekshiruvchi nuq stilistikasi

3. Adabiy yo'nalishlar, badiiy asarlar hamda yozuvchi ustubini tadbiiq etuvchi badiiy adabiyot stilistikasi<sup>8</sup>.

Ko'rinadiki, stilistika har bir o'z muayyan uslubiy belgi sifatlariga ega bo'lgan stillarni o'rganadi. Masalan, funksional stilistika

<sup>8</sup> Винogradов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - М., 1963. 593 стр.



so'z birikmalari va gaplarning o'z ichida boshqa ma'nodosh birliklar bilan almashtirilishi stilistikada ham sinonimiyaning ahamiyati kattaligini ko'rsatadi.

Stilistik belgi-sifatlar til birliklarining barchasida mavjuddir. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklarning so'zlovchining maqsadi va aloqa vaziyatiga qarab qo'llanish o'rinlarini o'rgatish stilistikaning ham predmeti hisoblanadi.

**1. Fonetika va stilistika.** Fonetika nutq a'zolarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati – artikulyatsiyasi tovush o'zgarish qonuniyatlarini, uning intonatsiyasi (ohangi) kabi masalalarni tekshiradi<sup>8</sup>. Fonetik stilistika esa tovushlarning bir-biriga bog'lanishining ekspressiv – stilistik imkoniyatlarini, xullas, nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganadi.

Fonetik stilistika nutqning ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlaridan foydalanish usullari bilan qiziqadi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta'sirchanlikni kuchaytirish turlari xilma-xildir. Nutqni emotsional va ifodali qilishda alliteratsiya, assonans va tovush takrorlashning rang-barang ko'rinishlari muhim rol o'ynaydi. Narsa va jonivorlarning tovushlariga taqlid qilish hodisasidan ham stilistikada fikrni bo'rttirib ifodalash va unga ekspressiv tus berish uchun keng foydalaniladi. Nutqni xushohang qilishning bunday usullarini (proza) nasriy asarlarda, maqol va matallarda, hatto xalq ertaklari va dostonlarining nasriy yo'l bilan yozilgan o'rinlarida ham uchratish mumkin. Unli va undosh tovushlarning fonetik jihatdan uyg'unlashib, takrorlanib kelishi nutqni ohangdor va ta'sirli qiladi, til faktlarini esda saqlab qolishni osonlashtiradi.

Fonetik stilistikada nutqni ohangdor qilishning xilma-xil shakl va usullari o'z tabiati va mohiyati bilan asosan she'riy nutqqa xosdir. Poetik nutq ohang jihatidan ma'lum tartibga solingan his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riyatda nutqni ohang jihatidan ma'lum tartibga soluvchi vositalarni (masalan, ritm, qofiya, radif, bandlarni) keng qo'llash xarakterlidir. SHuning uchun she'r tuzilishi fonetik stilistikaning maxsus sohasi sifatida alohida ajralib turadi.

**2. Leksikologiya va stilistika.** Leksikologiya tilning lug'at

<sup>8</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Фан, 1980. 336.

tarkibini, uning tarixiy qatlamlari, boyib borishi va taraqqiyot yo'llarini, so'zni, uning ma'nosini, qo'llanishini va shu kabi masalalarni o'rganadi<sup>9</sup>. Leksik stilistika ham lug'at tarkibini o'rganadi, lekin uni so'z ishlatish, so'zdan foydalanish qonuniyatlari tomonidan tekshiradi. Lug'aviy stilistika so'z yoki so'z birikmalarining ekspressiv tomonini o'rganadi. Demak, bir xil til hodisasi leksikologik va stilistik tahlilda turlicha yoritiladi. Bu narsa leksikologiya bilan stilistikaning leksik hodisalarga yondoshishdagi qat'iy farqini ko'rsatadi. Masalan, leksikologiya nutqning tugal fikr anglatadigan bo'lagi gapda ishlatilgan so'zning leksik ma'nosining yuzaga chiqishda kontekstning ahamiyatini belgilaydi, stilistika esa so'zning kontekstda bajarayotgan kommunikativ-ekspressiv vazifasi nuqtai nazaridan yoki so'zning emotsional bo'yog'i, uning qo'llanish sharoitiga bog'liqligi jihatidan tekshiradi.

Leksikologiya so'z ma'nosi ko'chishining turli tiplarini (masalan, metafora yoki metonimiyaning) ham tekshiradi. Lekin, leksikologiya bu hodisalarni til sistemasida mustahkamlab, qat'iy qilish bo'yicha qolganligi jihatidan tekshiradi.

Stilistikada so'z ma'nosi ko'chishining turli tiplarining emotsional – ekspressiv maqsadga qaratilgan tomoni o'rganiladi. Stilistika umumiy hayotiy tajribasida mustahkamlab qolgan figural (majoziy) ma'nolargagina emas, individual semantik neologizmlarga ham alohida ahamiyat beradi. Individual semantik neologizmlarni o'rganish stilistikaning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

**3. Grammatika va stilistika.** Grammatikada gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishi, so'z shakllari va gap qurilishi kabi hodisalar haqida umumiy qoidalarni belgilab berish nazarda tutilsa, uning stilistika bilan ham aloqador ekani aniq tasavvur qilinadi. Stilistika birinchi galda fikrni ravshan va aniq bera olish uchun grammatika belgilab bergan umumiy qoidalardan qaysi birini qanday holatda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. Gapda fikrni tushunarli ifodalash uchun faqat grammatika qoidalariga rioya qilishning o'ziga kifoya qilmaydi, gapni uslubiy jihatdan to'g'ri tuza bilish ham kerak. Quyidagi misollarga e'tibor qiling:

*Ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash va boshqa xomashyolarning sarf-xarajat narxlari oshganligi bilan shahar yo'lovchi tashish*

<sup>9</sup> Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981, 4-бет.



transportida yangi yo'lkira haqlari belgilandi.

Bu gapda zaruriy bo'lgan bo'laklar o'z o'rnida qo'llangan, odatdagi gap bo'laklari tartibiga rioya qilingan. Shunga ko'ra gap grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgandek ko'rinsa-da, unda uslubiy xato mavjud. Chunonchi, ushbu gap orqali ifodalanmoqchi bo'lgan fikrni quyidagicha ixcham jumalalarda berish mumkin edi, unda ba'zi so'z shakllari ortiqcha ishlatilgan: *Ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash xomashyolarining narxlari oshganligi tufayli shahar yo'lovchi tashish transportlarida yangi yo'lkira narxlari belgilandi*» tarzida tuzish mumkin edi. Yoki:

«*Yaqin kelganimda «Xush kelibsiz!» degan yozuv uzoqdan ko'zga tashlanadi*» gapida ham uslubiy xato mavjud bo'lib, stilistik nuqson uzoqdan so'zining noo'rin qo'llanganligi bilan hosil bo'lgan.

Ko'rinadiki, grammatik hodisalar ham stilistikaning tekshirish ob'yekti hisoblanadi.

Morfologiyada so'z tuzilishi, so'z shakllarining hosil bo'lishi, grammatik ma'no ifodalovchi morfologik vositalar o'rganiladi.

Grammatikaning morfologiya va sintaksis nomlari ostida ikki qismga ajratilish holati grammatik stilistikada ham saqlanadi va u morfologik stilistika, sintaktik stilistika kabi ikki ko'rinishda bo'ladi.

Grammatik stilistika u yoki bu grammatik vositalarning imkoniyatlarini uning ma'lum bir nutq uslubi bilan uyg'unlashib qolishini, qo'shimcha ma'no qirralarini, shuningdek, shu grammatik elementlarning qo'llanishdagi tasvirlay olish (ifodalay olish) imkoniyatlarini, xuddi shunday ma'noni ifodalovchi boshqa, ularga parallel bo'lgan grammatik vositalar bilan munosabatini (farq qiluvchi va umumiy tomonlarini o'rganadi). Gap, masalan, A. Qahorning ma'lum bir grammatik shaklni ko'p yoki oz ishlatganida emas, balki uning ana shu shaklga qanday uslubiy vazifa yuklaganida, matnda undan nima maqsadda va qanday foydalanganidadir.

Grammatika so'zning shakl yoki sintaktik qurilmaning grammatik va lug'aviy ma'nolarini o'rgansa, grammatik stilistika ularning qo'shimcha ekspressiv ma'nolarini, vazifaviy xususiyatlarini ochib beradi.

To'g'ri, grammatika bilan shug'ullanuvchilarning ham, stilistika bilan shug'ullanuvchilarning ham tekshirish ob'yektlari aslida bitta, biroq

har ikkalasi uni turli tomondan o'rganadi, ularni har xil jihatdan baholaydi. Grammatika bilan stilistika birgalikda faqat grammatik shakllarning nimani ifodalashinigina emas, balki qanday ifodalanishini ham o'rganadi.

Stilistikaning tilda tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bu haqida, jumladan, mashhur tilshunos olim R.A. Budagov o'zining «Adabiy til va stillar» (M., 1967-y.) kitobida «Stilistika har bir rivojlangan tilning jonidir», deydi. Bu fikrni davom ettirgan holda A.V. Stepanov o'zining «Stilistika asoslari» (M., 1976-y.) kitobida «Filologiya fanining eng yuqori cho'qqisi stilistikadir», degan edi.

Haqiqatan ham, stilistik me'yorlarni shakllantirish mashhur tilshunos olim G.O. Vinokur ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi va uning eng yuqori pog'onasidir. Chunki, stilistik me'yorlarni yaxshi bilmasdan, ularni mukammal egallamasdan turib, nutq madaniyatiga, madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham, grammatik stilistika haqida fikr yuritilganda, E.S. Istrina «Grammatik me'yorlarni yaxshi bilish, umuman, nutqda fikrni eng yuqori saviyada bayon etish imkoniyatini vujudga keltiradi»<sup>10</sup>, deydi.

Darhaqiqat, har bir so'zni o'ylab, tanlab ularning har bir ma'nosiga, ma'no qirralariga yaxshi e'tibor qilib, o'rinli ishlatish haqida juda ko'plab xalq maqollari, hikmatlari mavjud. So'zlarni, grammatik shakllarni befarq qo'llash, vaziyatga mos tushmaydigan gaplarni beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish, so'z yoki grammatik shakllardan ortiqcha foydalanish nutqni bachkanalashtiradi, fikrni xiralashtirib, uning ta'sirchanligiga putur etkazadi.

Ma'lumki, uslubiyat fikrni ifodalash yo'llari, til vositalarini — materiallarini to'g'ri tanlay bilish haqidagi ta'limotlar ilmi bo'lib, u so'zlashuv uslubi, ilmiy ommabop uslub, rasmiy, publitsistik va badiiy uslublarni o'rganishdan tashqari grammatik stilistika va uning tarkibini belgilab beruvchi qoidalar yig'indisini ham o'zida aks ettiradi.

Grammatika bilan shug'ullanuvchilarning ham, stilistika bilan shug'ullanuvchilarning ham tekshirish ob'yektlari bitta, biroq har

<sup>10</sup> Истрина Е.С. Нормы русского литературного языка и культура речи. — М., — Л., 1984, стр. 56



ikkalasi uni har xil tomondan tekshiradi, ularni har xil jihatdan baholaydi. Grammatika bilan stilistika birgalikda faqat grammatik shakllarning nimanı ifodalashinigina emas, balki qanday ifodalanishini ham o'rganadi.

Grammatik stilistikaning bir qismi bo'lgan morfologik stilistika har bir grammatik shaklning, so'z yasovchi vositalar va har xil boshqa shakllarning stilistik xususiyatlarini o'rganadi. O'zbek tilshunosligida morfologik stilistika bo'yicha R.Qo'ng'urovning qator ishlari, jumladan, uning «Sub'ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari» (-T., «Fan», 1980 y.), «Stilistika imeni sushestvitelnogo v uzbekskom yazike» (-T., 1983 g.) kitoblari, M.Sodiqovanning «Fe'l stilistikasi» (-T., 1975 y.) kitobi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek tilida affikslar doirasidagi ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasi ham keng tarqalgan: *shu sababli // shu sababdan, talabalardan biri // talabalarining biri, otga mindi // otni mindi, olib kelishni buyurdi // olib kelishga buyurdi, savlatli // savlatdor // sersavlat // basavlat* kabi.

Xullas, o'zbek tilidagi qo'shimchalarning semantik-stilistik xususiyatlarini o'rganish keyingi paytlarda ancha jonlandi. Morfologik stilistikaning predmeti aniqlandi va uni o'rganishga e'tibor kuchaydi.

O'zbek tilida so'z yasovchi va grammatik ma'no ifodalovchi juda ko'p affikslar o'z variantlariga ega yoki bir-biri bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, fe'llarda ortirma daraja ifodalovchi *-giz* qo'shimchasi *-kiz, -g'iz, -qiz, -kaz, -gaz, -g'az* va ba'zan *-kar* variantlarida uchraydi. Bu qo'shimchalardan tashqari kelishik qo'shimchalari o'zaro biri o'nida ikkinchisi qo'llanadi va ikki xil sintaktik qurilma hosil qiladi. Qo'shimchalarning bunday sinonimik munosabatlari aslida morfologik stilistikaning tekshirish ob'yektiga kirsada, bunday holatlar sintaktik qurilmalar qurshovida ishlatiladi: bunday qo'shimchalar birikmalar holida bir-biri bilan sinonimik munosabatlarni hosil qiladi. Masalan, *Barcha kerakli adabiyotlarni ko'rib chiqishga // ko'rib chiqishni tavsiya qilaman. Salimni qulog'ini // qulog'idan cho'zib o'ziga qarattiradi*. Ba'zan bunday qurilmalarda sintaktik shakl o'nida analitik shaklni ishlatish hollari ham uchraydi: *Pichoqni o'zinga ur, og'rimasa birovga ur // pichoq bilan o'zingni ur; O'z qarashlarini gapirdi // o'z qarashlari haqida gapirdi; Har kim o'z dardini gapirar // har kim o'z dardi to'g'risida gapirar* kabi.

Bunday qurilmalarning har biri stilistik jihatdan ma'lum o'rinlarda bir-biridan farq qiladi va sintaktik stilistika bularning o'ziga xos xususiyatlari hamda imkoniyatlarini talqin qilib berishi, har birining qaysi nutq uslubiga xoslanganligini ajratib berishi va ular o'rtasidagi sinonimik munosabat turlarini farqlab berishi lozim. Jumladan, sintaktik shakl ishtirok etgan holatlar jonli so'zlashuv nutqi uchun xoslangan bo'lib, analitik shakl ishtirok etgan qurilmalar publitsistik, rasmiy nutq uslublari uchun xoslanganligi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari tilimizda ba'zan ayrim grammatik shakllar pleonastik (qo'sh) qo'llanadi. Bunday qo'llash nutqda ortiqchalikni vujudga keltirishi, nutq ravonligiga putur etkazishi, fikrni xiralashtirishi, bachkanalashtirishi mumkin: *toychoqchaginam, solimib bo'lindi, kichkinagina, ichilib qo'yildi, to' maktabgacha, har bir dalillarni, qora tog' teg'i* kabi qo'llanishlarda grammatik shakllar va ayrim so'zlar o'rsinsiz qo'llangan.

Ko'rinib turibdiki, hozirgi o'zbek tilshunosligida grammatik shakllar stilistikasini o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Grammatik shakllarni o'z o'nida to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash, ulardan o'rinli foydalanish nutqimizning ta'sir kuchini oshiradi, uni har xil g'alizliklarda xalos etadi. Bu jihatdan professor S.I.Ibragimovning quyidagi fikri o'rinlidir: «Nutq madaniyati so'zlovchidan affikslarni to'g'ri ishlatish bilish me'yoriga qat'iy amal qilishni talab qiladi. Ularni noo'rin qo'llashdan saqlanish kerak»<sup>11</sup>.

Nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash maqsadida grammatik sinonimlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish ham stilistikaning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Shu jihatdan o'zbek tilshunosligida, umuman, grammatik stilistika masalalari bo'yicha keyingi paytlarda anchagina ko'zga ko'rinarli ishlar qilinayotganligi, bu sohada ko'pgina tilshunos olimlarning jiddiy shug'ullanayotganliklari ma'lum bo'ldi. Ammo grammatik shakllar stilistikasi, ya'ni morfologik stilistika borasida qilinayotgan ishlar hali talab darajasida emas. Bu borada qilingan ishlar barmoq bilan sanarli. Shunga ko'ra, bu sohada qilinishi kerak bo'lgan masalalar o'z tadqiqotchisini kutib turganligi ko'zga tashlanadi.

Tilimizda ishlatilayotgan grammatik shakllar pleonazmi

<sup>11</sup> Ибрагимов С.И. Нутқ маданиятига оид масалалар. —Т., 1973.



hodisasi, umuman pleonazm, bir jihatdan olganda, N.Mahkamov to'g'ri ta'kidlaganidek, nutqda ortiqchalikni tug'dirsa ham, agar ma'lum maqsad bilan undan to'g'ri foydalanilsa ortiqchalik umuman sezilmaydi<sup>12</sup>, aksincha, bunday qo'llash ma'lum o'rinlarda nutq ta'sirchanligini oshiradi, nutq aniqligi, ifodaliligini ta'minlaydi. U tasviriy vosita vazifasini bajaradi. Pleonazm hodisasini ana shu nuqtai-nazarda turib chuqur o'rganilsa, nutq madaniyati uchun ko'p narsa berishi mumkinligi ayon bo'ladi.

Ayrim grammatik shakllarni adabiy me'yorda belgilanganidan (odatdagidan) boshqacharoq qo'llash, ma'lum bir nutq stiling o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo'llash nutqning buzilishiga olib kelmay, balki nutqning rang-barangligini ta'minlaydi, ekspressivligini oshiradi va ba'zi o'rinlarda malum xarakter yaratish uchun xizmat qiladi. Ammo bunday boshqacharoq qo'llash u yoki bu uslubning o'ziga xos stilistik me'yorlari taqozo etgan darajada bo'lsagina o'zini oqlaydi. Masalan, *qora, ora, menga* so'zlarni faqat she'riyatdagina *qaro, aro, mango* tipida qo'llash, *-ur, -mak* kabi shakllarni ham faqat she'riyatdagina, poetik nutqda ishlatish ana shunday natija berishi mumkin.

Sintaksis gapda so'zlarning birikish yo'llarini, so'zlarning gaplardagi o'zaro aloqasini, gapning tuzilishini, tiplarini, gap bo'laklarini o'rganadi<sup>13</sup>. Lekin, gapda ifodalanadigan fikr u yoki bu sintaktik konstruksiyalarni qanday qo'llashga, munosabatlarni ifodalashning u yoki bu usullarini ishlatishga qarab, turlicha o'ttenka olishi mumkin. Stilistikada bir xil ma'no bir xil fikrni ifodalovchi parallel vositalar o'rganiladi. Stilistika gap bo'laklarining ma'nodoshligi, gaplarning mazmundo'shligini tekshirayotganda, sintaktik sinonimiya hodisalarini bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, tamoyillari asosida ish tutadi, ulardan har birining fikr ifodalashdagi ekspressiv ma'no tafovutlarini aniqlaydi.

Stilistika grammatik hodisalarni fikrga turlicha bo'yoq va stilistik ohang beruvchi ekspressiv vositalar sifatida izohlaydi va tushuntiradi.

Sintaktik stilistika mundarijasi umumiy stilistika vazifalaridan kelib chiqadi. Nutq birliklarining ijtimoiy qo'llanish sferasi, sintaktik

<sup>12</sup> Махкамов Н. Аффиксальный и лексико-аффиксальный плеоназм в узбекском языке. АҚД. –Т., 1983.

<sup>13</sup> Узбек тили грамматикаси. –Т.: Фан, 1976. 3-бет.

sinonimiya va polisemiya, sintaktik konstruksiyalarni hosil qilishda ishtirok etuvchi sintaktik-stilistik figuralar kabi muammolarni izohlash sintaktik stilistika vazifalariga kiradi<sup>14</sup>.

Stilistika uchun sintaksisning nihoyatda muhimligini A.N.Gvozdev to'g'ri ko'rsatgan holda shunday deydi: «Sintaksisning stilistika uchun juda muhimligi shu bilan belgilanadiki, birinchidan, gap nutqning asosiy birligi sifatida tafakkur va aloqa uchun xizmat qiladi, ikkinchidan, gaplar rus tilida turli tuman ko'rinishga egaligi bilan farqlanib turadi»<sup>15</sup>.

Gapda so'zlarning oddiy tartibining o'zi turli variantlarni hosil qiladi, turli ma'no yoki ekspressiv o'ttenkalar ifodalaydi. L.N.Tolstoy adibning mahorati eng mos zaruriy so'zni eng mos zaruriy o'rinda ishlatishda ko'rinishini qayd etib o'tgan edi. Umuman olganda, funksional stillarning shakllanishida ham sintaksisi muhim rol o'ynaydi. Ifoda maqsadi, mazmuni ifoda shaklini belgilaydi. Ammo sintaktik birliklar nutqning ma'lum funksional stillari bilan qat'iy bog'liq bo'lmaydi. Gapning u yoki bu ko'rinishi, turli sintaktik konstruksiyalar va qurilmalar ifoda vositalari sifatida nutqning barcha ko'rinishlarida qo'llanaveradi. Bu jihatdan sintaksis leksika va frazeologiyadan farq qiladi.

Tilning sintaktik vositalari nutqda boy stilistik imkoniyatlardan hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik hodisalar sinonimiyasi funksional stillar uchun tuganmas manba hisoblanadi. Bunda emotsional-ekspressiv o'ttenkalari bilan ma'lum ifoda doirasiga xos bo'lgan sintaktik hodisalar biror funksional stil uchun tipik bo'lgan sintaktik hodisalarni tashkil etadi. Funksional stillar sistemasida har bir stilning o'ziga xos sintaktik belgilari bo'ladi. Ilimiy uslubga xos matndagi ishlatilgan sintaktik birliklarni dramatik asarlardagi va so'zlashuv nutqidagi sintaktik hodisalardan farqlash oson. Shu o'rinda sintaktik hodisalarning har bir uslubga xos sintaktik belgilari haqida fikr yuritiladi. Bu belgilar, avvalo, so'zlovchi shaxsning nutqqa bo'lgan turlicha munosabati, sintaktik vositalardan turli maqsad va vazifa uchun foydalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ilmiy-ommabop nutq

<sup>14</sup> Мамажонов А. Кушма гап этилистикаси. –Т.: Фан, 1990. 10-бет.

<sup>15</sup> Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. Учпедгиз. –М., 1955. стр. 259.



ko'rinishida so'zlovchi yoki yozuvchi diqqati uning mazmuniga, fikrni izchil va aniq ifodalashga qaratiladi. Bunda nutq shakli to'raligicha asosiy maqsadga, mantiqqa bo'ysundiriladi. Bunday nutq o'ylab tuzilgan sistemalashtirilgan bo'lib, albatta, yozma shaklda bo'ladi.

O'rini va maqsadga qarab qo'llangan sintaktik qurilmalar stilistik vositalar vazifasini ham bajaradi. Bundan barcha sintaktik birliklar stilistik vosita hisoblanar ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim sintaktik vositalar o'z tabiatiga ko'ra ekspressiv-tasviriy vosita hisoblansa, ayrimlari faqat kontekstda ekspressivlikni ifodalaydi. Ekspressiv-tasviriy vositalar, asosan, badiiy-poetik, publitsistik va notiqlik uslublari uchun xarakterlidir. Bu hol shu uslublarning tabiati bilan ularda obrazlilik, emotsional-ekspressivlikning kuchliligi bilan bog'liqdir.

## NUTQ STILLARINING TASNIFI. OG'ZAKI (SO'ZLASHUV) NUTQ STILI

Lingvistik stilistikaga oid adabiyotlarning ko'pchiligida funksional stilistika muammolari asosiy, markaziy masalalaridan biri ekanligi uqtiriladi. Shuning uchun ham stilga berilgan ta'riflarda tilning funktsionallik xarakteri ta'kidlanadi. Lekin funksional stilning turlari masalasida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarda ko'rinadi:

- 1) funksional stillar tasnifida ekstralingvistik omillarni hisobga olish va olmaslikda;
- 2) klassifikatsiya qilish prinsipida;
- 3) badiiy stilning funksional stillarga kirishi va kirmasligida;
- 4) ilmy stilning yaxlitligi masalasida<sup>16</sup>.

I. Rus tilshunos olimlari vazifaviy (funktional) stillarni tilning aloqa, xabar, ta'sir etish funksiyalarig ko'ra bo'ladilar. Masalan, bunday yondashishi L.V. Shcherba, B. Gavranek, V.V. Vinogradov va boshqa olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

V.V. Vinogradov til, aloqa, xabar, ta'sir etish funksiyalariga ko'ra quyidagi vazifaviy stillarga bo'linishi mumkinligini ko'rsatib odatdagi muomala stili (obixodno-bitovoy) aloqa vazifasiga, odatdagi rasmiy (obixodno-delovoy); rasmiy-hujjat (ofitsialno-dokumentalniy) va ilmiy stillar xabar funksiyasiga; publitsistik va badiiy stillar ta'sir etish vazifasiga oidligini qayd etadi<sup>17</sup>.

Keyingi yillarda nashr etilgan ishlarda bu olimlarning fikrlari yanada davom ettirilib, tilning aloqa jarayonidagi shu uch vazifasi kishilarning ijtimoiy xizmat doiralariga bog'lanadi va ijtimoiy xizmat nuqtai nazaridan vazifaviy stillarga bo'linadi, ya'ni birinчисida funksional stillar til funksiyasi asosida, ikkinчисida ekstralingvistik omillar asosida izohlanadi. Buni ayniqsa, M.N. Kojina, N.M. Razinkina,

<sup>16</sup> Мукаррамов М. Хозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Т.: Фан, 1984 й.

<sup>17</sup> Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М., 1963, стр. 6.



E.S. Troyanskaya ishlarida aniq ko'rish mumkin<sup>18</sup>.

Umuman olganda, funksional stillarning tasnifiga quyidagi ikki faktor asos bo'lib xizmat qiladi:

a) ekstralingvistik faktorlar (aloqa qilish doirasi yoki sferalar hamda vazifalari kabilar);

b) sof lingvistik omillar (til birliklarining stilistik differensasiyasi). Shunga muvofiq, tilning funksional stillariga xarakteristika berayotganda, ekstralingvistik faktorni ham, sof lingvistik omilni ham to'la hisobga olish zarur.

Tilshunoslik tarixida, jumladan, rus va o'zbek tilshunosligida juda ham ko'p olimlar funksional stillarni klassifikatsiya qilishga, ularni o'zaro farqlashga intilganlar. Lekin bu olimlarning bir guruhi funksional stillarni belgilashda ekstralingvistik omillarni birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsalar, boshqa bir guruh olimlar sof lingvistik omillarga tayanib ish ko'rganlar<sup>19</sup>.

Masalan, rus tilshunosligida funksional stillarni til funksiyalari asosida ajratishga dastlabki urinish prof. A.M. Peshkovskiy qalamiga mansubdir<sup>20</sup>. Stillarni til funksiyalariga ko'ra klassifikatsiya qilishning akademik V.V. Vinogradov tomonidan taklif etilgan prinsipi katta shuhrat qozondi.

«Tilning asosiy ijtimoiy vazifalari aloqa qilish, xabar uzatish va estetik ta'sir ko'rsatish inobatga olingan holda tilning strukturasi umumiy planda quyidagi stillarga bo'linadi: og'zaki so'zlashuv stili (aloqa qilish funksiyasi), rasmiy muomala, rasmiy ish qog'ozlari va ilmiy stillar (xabar uzatish funksiyasi), publitsistik va badiiy – bellitristik stillar (estetik ta'sir etish funksiyasi)»<sup>21</sup>.

Lekin olimning qayd qilishicha, ba'zan stillar (til funksiyalari)

<sup>18</sup> Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. Перм. 1968. Разинкина Н.М. Контрастные категории и их роль в лингвостилистическом изучении научной прозы. В сб. Преподавание иностранных языков и его лингвистические основы. –М. 1972. Троянская Е.С. К общей концепции понимания функциональных стилей. В сб. Особенности стиля научного изложения –М. 1976.

<sup>19</sup> Дониёров Х., Йулдошев Б., Адабий тил ва бадий стиль. –Т.: Фан, 1988 й., 60-бет

<sup>20</sup> Пешковский А.А. Роль грамматики при обучении стилю. В кн. А.М. Пешковский Избранные труды.

<sup>21</sup> Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М., 1963, стр. 6

bilan aloqa qilish doiralari bir-biriga mos kelmasligi ham mumkin, ya'ni til funksiyalariga nisbatan stillar ko'pchilikni tashkil etadi. Ko'rinadiki, tilning asosiy funksiyalarini bunday gruppalash umumiy xarakterga ega.

R.G. Piotrovskiy va Yu. S. Stepanovning asarlarida esa informatsiya nazariyasi kategoriyalaridan foydalanish asosida til funksiyalarining xarakterini aniqlashga intilish seziladi. Bu olimlar til elementlari asosiy va qo'shimcha (yoki stilistik) informatsiya ifodalaydi, deb hisobladilar<sup>22</sup>.

I.V. Arnold ham xuddi shu plandagi til stillari tasnifini olg'a surdi<sup>23</sup>.

Yuqorida ta'kidlanganidek, boshqa bir guruh rus tilshunoslari stillarni farqlashda til funksiyalarini emas, balki nutq doiralarini (sferalarini) asos qilib olmoqdalar.

Nutq doiralari keng tushuncha, u cheksiz darajada xilma-xildir. Chunki maktabdagi nutqiy munosabat bolalar bog'chasidagi nutqiy munosabatlardan farq qiladi. O'qituvchi maktabda birinchi sinf o'quvchilari bilan boshqacha ohangda so'zlashsa, to'qqiz va o'ninchi sinf o'quvchilari o'zgaracha nutqiy munosabatlarni talab qiladilar. Magazinda xaridor bilan sotuvchining nutqiy munosabati olimlarning nutqiy doirasidan ajralib turadi. Xuddi ana shunday turli-tuman nutqiy munosabatlar asosida tilning funksional stillari tasnifi haqida gapirish mumkinmi?

Bu xilma-xil nutqiy munosabatlardan eng umumiy, prinsipial jihatdan turli-tuman til vositalari sistemalarini talab etuvchi, ijtimoiy jihatdan tipiklashganlarini ajratib olish zarur. Xuddi shunday umumiy va tipiklashgan nutqiy doiralar (munosabatlar) gina funksional stillar tasnifiga asos bo'la oladi.

Bu muammoga olimlar ikki tomondan yondoshmoqdalar. Bir guruh olimlar nutqiy munosabatlarning tarixiy jihatdan shakllangan ikki turini og'zaki va yozma turini ajratadilar. Shundan keyin nutqning bu ikki shakli yana mayda tiplarga bo'linadi, tiplar esa o'z ichki bo'linishlariga ega bo'ladi. Natijada til stillari klassifikatsiyasi ko'p bosqichli xarakter kasb etadi. Buning yorqin misoli sifatida prof. R.A. Budagov tomonidan olg'a surilgan klassifikatsiyani ko'rsatish

<sup>22</sup> Пиотровский Р.Г. Очерки по стилистике французского языка. –Л., 1960, стр. 12; Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М., 1965 г.

<sup>23</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –Л., 1973, стр. 6



mumkin.

R.A. Budagov og'zaki va yozma stillarni tilning bosh stillari deb hisoblaydi<sup>24</sup>. Bu stillar ichida yana ilmiy va badiiy stillar ajratiladi. Qolgan stillar esa nutqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lib nutq stillari deb yuritiladi. Nutqiy stillarning soni va ichki bo'linishi aloqa munosabatlarining o'zi singari cheksiz va xilma-xil shakllarga ega.

Ko'rinadiki, R.A. Budagov klassifikatsiyasida garchi og'zaki va yozma, ilmiy va badiiy stillar orasidagi farqlar tarixiy va umumstil nuqtai nazaridan ancha chuqur yoritilgan bo'lsa ham, bu tasnifda terminologik izchillik, nutqiy stillarni aniq chegaralash etishmaydi.

Ikkinchi guruh olimlar «nutqiy sfera» tushunchasini tilning funksiyalashuvi uchun ham hal qiluvchi rol o'ynaydigan omillar bilan chegaralash asosida stillarni klassifikatsiya qiladilar. Masalan, M.P. Kojina chexoslovakiyalik olimlarning ishlariga<sup>25</sup> tayanib, stil hosil qiluvchi ob'yektiv va sub'yektiv faktorlarning o'zaro uyg'unlashuvi g'oyasini olg'a surdi hamda bunday omillarnig uch guruhini ajratib ko'rsatdi<sup>26</sup>.

M. N. Kojina o'z asarlarida ekstralingvistik omillarni birinchi navbatda hisobga oladi, chunki bu omillar tilning mohiyati bilan, ijtimoiy ong shakllari va ularga mos keluvi inson faoliyati turlari (fan, san'at, huquq, adabiyot, madaniyat va hokazolar) bilan bog'liq. Bu ijtimoiy ong shakllarining har biriga mos umumiy yoki konkret fikrlash tipi hamda ularning in'ikos shakli (ilmiy tushuncha, badiiy obraz, huquqiy me'yor kabilar) nutqiy munosabat doirasini belgilab beradi.

Stil hosil qiluvchi ob'yektiv omillarga tilning ifodalanish shakllari (og'zaki va yozma), nutqning turlari (monologik, dialogik nutq), ommaviy va shaxsiy aloqa qilish usullari, nutq janrlari (keng ma'noda: ocherk, hikoya, qissa, monografiya, darslik, ilmiy maqola, ma'ruza, bahs-munozara, majlis kabilar), fan turlari (matematika, fizika, ximiya) fikrni bayon qilish usullari (tasviriy, munozarali, tanqidiy kabilar) kiradi. Bu xilma-xil ob'yektiv faktorlar stillarni va ularning ichki bo'linishlari (podstillar) ni belgilaydi.

<sup>24</sup> Будагов В.А. Литературные языки и языковые стили. —М., 1967, стр. 77-92

<sup>25</sup> Будагов В.А. обоснования языковых стилей Филология и культура. —М., 1980, стр. 136-195.

<sup>26</sup> Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. —Пермь. 1968, стр. 142-154.

Uchinchi tip omillarga situativ – ijtimoiy omillar: nutq toni – ohangi (tananavor, yuqori tushkun); tinglovchini hisobga olish; ikki tomonlama nutq, bir tomonlama nutq, nutq predmetining nutq jarayonidagi bevosita ishtiroki yoki «yashiringani» kabilarni o'z ichiga oladi.

Bu omillarning hammasi nutq tabiatiga bevosita ta'sir etadi, lekin ularning vazifaviy stil hosil qilishdagi ishtirok etish darajasi bir xil emas.

II. Ikkinchi masalada, ya'ni tasnif qilish prinsipida bir xil qarashning yo'qligi, ba'zi olimlar bir butun umumxalq tilini, ba'zilar faqat adabiy tilni hisobga olgan holda, uni ekspressiv – emotsionallik, ekspressiv janr va funksional stilistik prinsiplar asosida stillarga bo'ladi. Natijada uslublar soni va ularning nomlanishda xilma-xillik yuzaga keladi. Masalan, V.P. Murat *umumxalq tilini* funksional – stilistik prinsip asosida klassifikatsiya qilib, quyidagi uslublar mavjudligini ko'rsatadi:

- 1) adabiy-so'zlashuv (razgovorno - literaturniy);
- 2) poetik;
- 3) gazetaviy – siyosiy (gazetno - politicheskiy);
- 4) rasmiy ish qog'ozlari (ofitsialno – delovoy);
- 5) ilmiy;
- 6) professional – texnik (professionalno-famlyar-niy)<sup>27</sup>.

T.G. Vinokur adabiy tilni funktsionl – stilistik prinsip asosida klassifikatsiya qilib, unga quyidagilarni kiritadi:

- 1) so'zlashuv;
- 2) Rasmiy – hujjat;
- 3) Gazetaviy – publitsistik;
- 4) Ilmiy<sup>28</sup>.

A.I. Yefimov tarixiy-adabiy tilni ekspressiv – janr prinsipi asosida stillarga bo'ladi:

- 1) badiiy – belletristik stilini proza va poeziya janr stillariga;
- 2) ijtimoiy – publitsistika stilini gazeta – jurnal, adabiy tanqidiy,

<sup>27</sup> Мурат В.П. Об основных проблемах стилистики. —М., 1957, стр. 20

<sup>28</sup> Винокур Т.Г. Об изучении функциональных стилей русского языка советской эпохи. В сб. Развитие функциональных стилей современного русского языка. —М., 1968, стр. 6



sotsial – pamflet, ocherk janrlari uslubiga;

3) rasmiy stilni ilmiy bayon, professional-texnik, rasmiy – hujjat stillariga bo'lib, uni yana davlat qonunlarini aks ettirgan hujjatlar, qonunlar, buyruq stillariga;

4) epistolar kabi stillarga ajratadi<sup>29</sup>.

E.N. Gvozdev adabiy tilning funksional stillarini kitobiy va muomala (bitovoy) nutq uslublariga ajratadi. Kitobiy nutq uslubini ish qog'ozlari (delovoy) badiiy, publitsistik, ilmiy-ommabop uslublariga bo'ladi<sup>30</sup>.

R.A. Budagov adabiy tilni funksional – stilistik prinsip asosida og'zaki va yozma, ilmiy va badiiy nutq stillariga ajratadi<sup>31</sup>. Yana boshqa bir asarida u til stillari sifatida og'zaki va yozma, badiiy va ilmiy stillarni atroflicha o'rganadi, lekin rasmiy-hujjat va publitsistik stillarni alohida stil sifatida o'rganmaydi<sup>32</sup>.

Yuqorida keltirilgan tasniflarda funksional uslublar umumxalq tili yoki adabiy til nuqtai nazaridan tasnif qilinib, ularning turli belgilari asosga olinadi va to'rttadan to'yettitagacha bo'linib, turlicha nomlanadi.

III. Ko'pchilik tadqiqotchilar badiiy stilni funksional stillar doirasiga kiritmay, unga alohida mustaqil stilistika ob'yekti sifatida qaraydilar. Bunga sabab qilib, nutq vositalarining chegaralanmaganligini, badiiy uslubda turli elementlarning qo'llanishi, qo'llangan so'zlarning obrazlilik, emotsionallik uchun xizmat qilishini ko'rsatadilar<sup>33</sup>.

Masalan, V.P. Murat bu haqda shunday yozadi: «umumxalq tilining vositalari badiiy asarlarda ijobiy qo'llanib, yangi estetik kategoriyani yuzaga keltiradi; ... badiiy adabiyot stili funksional stilning bir turi bo'la olmaydi, chunki unda tilning bir butun umumtil belgilari barcha badiiy asarlardagi kabi bir xil qo'llana olmaydi»<sup>34</sup>.

Nutq vositalarining chegaralanmaganligiga badiiy uslubning bir butun umumxalq tiliga, uning barcha ma'no boyligi va tasviriy vositalariga asoslanishi, faqat adabiy til bilan chegaralanmasligi, unda

<sup>29</sup> Ефимов А.И. История русского литературного языка. –М., 1961, стр. 15-16

<sup>30</sup> Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. –М., 1965, стр. 17-18.

<sup>31</sup> Будагов Р.А. Введение в науку о языке. –М., 1958, стр. 396-411.

<sup>32</sup> Будагов Р.А. Литературные языки и языковые стили. –М., 1960.

<sup>33</sup> Пиотровский Р.Г. Очерки по стилистике французского языка. –Л., 1960, стр. 20; Адмони В.Г. Сильман Т.И. Отбор языковых средств и вопросы стиля. ВЯ, 1954, №4, стр. 99.

<sup>34</sup> Мурат В.П. Об основных проблемах стилистики –М., 1957, 57-бет.

so'zlashuv tiliga doir, shuningdek, shevaga xos so'zlarga, jargon, tarixiy va eskirgan so'zga keng o'rin berilishi, bularni yozuvchi ma'lum maqsadlar uchun qo'llashini sabab qilib ko'rsatadilar<sup>35</sup>.

Bundan tashqari, badiiy uslubning o'ziga xos ritmik, sistematik, o'quvchiga estetik ta'siri, tarixiylik nuqtai nazaridan tilga qaraganda tez o'zgarishi kabi belgi xususiyatlarini tahlil qiluvchi ishlar ham mavjud. Bu ishlarda ham badiiy uslub alohida bir soha sifatida qaralib, funksional uslublar doirasiga kiritiladi<sup>36</sup>.

Keltirilgan tasniflardan qat'iy nazar, ko'pchilik tadqiqotchilar tilning funksional stillari ob'yektiv mavjudligini, ular yakka holda, bir-biridan ajralgan sistema emasligini, aksincha, doim o'zaro aloqada ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan, V.V. Vinogradovning «Nutqning turli funksional stillari o'zaro jonli munosabatda, aloqada bo'ladi»<sup>37</sup>, R.A. Budagovning «ba'zi belgilari boshqa funksional stillarda takrorlanadi»<sup>38</sup>, deya aytgan fikrlari bevosita bitta uslubga oid bo'lmay, balki barcha til stillariga taalluqlidir.

O'zbek tilshunosligida prof. M. Mukarramov o'z ishida nutq uslublari bo'yicha olimlar tomonidan belgilangan tasniflarni keltirib, ko'pchilik tadqiqotchilarning hamma til uslublari o'zaro aloqada bo'lishini ta'kidlovchi fikrlarini aytib o'tgan holda, o'zi ham badiiy uslubni nutq uslublari doirasida alohida bir stilni tashkil qilishini tasdiqlaydi<sup>39</sup>.

Hozirgi davrda barcha rivojlangan tillarda 5 ta funksional uslub (so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy-hujjat uslublari) mavjudligi tan olingan hamda ularning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari o'rganilgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida ham bu masala tadqiq etilgan. Lekin har bir uslubni yuzaga keltiruvchi omillar

<sup>35</sup> Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики, вопросы языкознания; 1955, №1, стр. 85.

<sup>36</sup> Эткинд Е.Т. Так называемый стиль художественной литературы и система функциональных стилей языка. В кн.: Тезисы докладов межвузовской конференции по стилистике художественной литературы. –М., 1961, стр. 106. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английской языка. –Л., 1960, стр. 121-122

<sup>37</sup> Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики. ВЯ, 1955, №1, стр. 82.

<sup>38</sup> Будагов Р.А. К вопросу организации языковых стилей. ВЯ, 1954, №3, стр. 67.

<sup>39</sup> Мукаррамов М. Хозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Т.: Фан, 1984, 15-б.



haqida hech narsa deyilmaydi. Ya'ni har bir funksional uslub o'zining leksik, grammatik belgilar bilan ajralib turar ekan, ana shu belgi xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi bosh omil nima, degan so'roqqa javob yo'q. Bu masala sof lingvistik tadqiqot bo'lmagani uchun ko'pchilik tadqiqotchilar e'tibordan chetda qolgan.

Avvalo, har bir funksional uslub o'zining nutq yo'naltiruvchisiga ko'ra farq qiladi. So'zlashuv nutqning nutq yo'naltiruvchisi «hamma» bo'lsa, badiiy nutqning nutq yo'naltiruvchisi yozuvchi, shoirdir. Ilmiy nutqniki – olim, publitsistik nutqniki – matbaachi, rasmiy hujjat nutqniki – yuqori lavozimdagi davlat amaldori<sup>40</sup>.

Shu tariqa olim nutqni qabul qiluvchisi hamda nutq ijrochisi belgilariga qarab har bir nutq ko'rinishining bir-biridan farqli belgilariga to'xtaladi. Bu belgilar sifatida funksional uslublarning o'zining mavzulari bilan ham ajralib turishini ta'kidlaydi<sup>41</sup>.

O'zbek tilshunosligida A. Shomaqsudov va boshqalar tomonidan chiqarilgan «O'zbek tili stilistikasi» (T., «O'qituvchi», 1983 y.) darsligida funksional stillar nutq ko'rinishlarining asosiy funksiyalariga (aloqa-aralashuv; ta'sir etish vositasi bo'lishiga) muvofiq qismlarga bo'linishi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, adabiy tilning quyidagi funksional stillari ajratiladi:

- 1) so'zlashuv stili;
- 2) rasmiy stil;
- 3) ilmiy stil;
- 4) publitsistik stil;
- 5) badiiy stil<sup>42</sup>.

So'ngra tilning bu funksional stillari inson faoliyatining u yoki bu sohasiga mos keluvchi umumxalq adabiy tilining turli xil ko'rinishlari ekanligi aytiladi. Funksional stillarni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. Chunki bir xil

<sup>40</sup> Мукаррамов М. Функционал услубларни юзга келтирувчи омилларга доир. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Академик Ганнжон Абдурахмонов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. – Фаргона, 2005, 13-бет.

<sup>41</sup> Кўрсатилган мақола. 14-бет.

<sup>42</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар, Ўзбек тили стилстикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983, 5-6 бетлар.

narsa va hodisalar haqidagi fikrlar turli xil stillarda birdek bayon qilinmaydi.

Keyingi yillarda chiqarilgan qo'llanma va monografiyalarda<sup>43</sup> ham funksional stillar *vazifaviy stillar yoki uslublar* sifatida nomlanib, ular ham yuqoridagidek turlarga ajratiladi. Til birliklarining u yoki bu uslubga xoslanib qolishi ham, ularning nutq ko'rinishlarida qo'llanishlari ham ulardan foydalanishga munosabatning natijasi va ifodasi, deb belgilanadi<sup>44</sup>.

R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyevlarning «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» qo'llanmasida til uslublarining harakatda olinishi, aniq amalga oshishi *nutq usublari*, deb nomlanadi. Ilmiy adabiyotlar va darsliklardagi vazifaviy uslublarga nisbatan «til stillari», «nutq stillari», «funksional nutq stillari», «nutqning stili» kabi atamalar ishlatilishiga munosabatlar bildiriladi. «Funksional» atamasining o'rnida «vazifaviy» atamasi ishlatilib, «funksional nutq stillari»ni o'zbek uslubshunosligida «vazifaviy uslublar», deb nomlaydilar<sup>45</sup>.

Mualliflar: «Turli xil izohlar berib o'tirishdan ko'ra, uslublar haqida gapirganda, bizningcha, *til usublari* terminidan foydalana berishimiz lozim. *Nutq usublari* deganimizda, yuqorida eslatganimizdek, til uslublarining aloqa jarayonida qo'llanishi tushuniladi. Bunday vaqtda til faktlarida bo'lgan jamg'arma imkoniyatlar maydonga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, nutq usublari til uslublarining harakatdagi formasidir»<sup>46</sup>, deya akademik Vinogradovning umumiy tasnifi asosida til uslublarini quyidagicha turlarga ajratilishini maqsadga muvofiq, deb topadi: 1) so'zlashuv nutqi uslubi, 2) ilmiy uslub, 3) rasmiy ish qog'ozlari usulbi, 4) publitsistik uslub, 5) adabiy-badiiy nutq uslubi<sup>47</sup>.

Keyingi davrlarda o'zbek tilshunosligida ham funksional nutq stillarining ayrimlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Bir

<sup>43</sup> Тожиєв Е. ва бошқалар. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Т.: ТошДУ нашриёти, 1994, 55-бет.

<sup>44</sup> Кўрсатилган асар 55-56 бетлар.

<sup>45</sup> Қўнгуоров Р. ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1992, 75-бет.

<sup>46</sup> Кўрсатилган асар 76-бет.

<sup>47</sup> Кўрсатилган асар 76-бет.



qancha tanikli olimlarimiz tomonidan ularning turlarga ajratilishi masalasida yangicha ilmiy qarashlar havola etildi. Jumladan, akademik G'.Abdurahmonov tomonidan adabiy tilni quyidagi uslub ko'rinishlariga ajratilishi maqsadga muvofiq, deb topiladi:

Adabiy til uslubining ko'rinishlari, asosan, quyidagilar:

1. Badiiy uslub.
2. Ommabop (publitsistik) uslub.
3. Ramiy-ish yuritish uslubi.
4. Ilmiy uslub.
5. Notqlik (oratorlik) uslubi.
6. Aralash uslub<sup>48</sup>.

Yuqorida mashhur tilshunos olimlarning nutq uslublarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning turlarini belgilash borasidagi fikrlari o'rinli. Albatta, keltirib o'tilgan har bir tasnifda nutq stillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning boshqa nutq stillari sistemasida tutgan o'ziga xos o'rni, lingvistik va ekstralingvistik omillari, leksik-grammatik xususiyatlari asosida ma'lum bir nutq uslubining turi sifatida belgilashga harakat qilingan. Ularni jiddiy o'rganib chiqqan holda stilistikada funksional nutq stillarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, tasnifi masalasini o'rganish ham hozirgi davrdagi dolzarb muammolardan biridir. Ko'rsatib o'tilganidek, hozirgi davr uslubiyatida turli xil nutq stillari tarkib topib rivojlanmoqda. Nutq stillari sistemasidagi ba'zi uslublar rivojlanib, alohida stilistik tizim sifatida o'rganilishini taqqozo qilmoqda. Masalan, badiiy uslub, darhaqiqat, yuqorida ba'zi olimlar ta'kidlab o'tganidek, nutq vositalarining chegaralanmagan holda qo'llanilishi, qo'llangan til vositalarining emotsionallik va ekspressivlik uchun xizmat qilishi, unda barcha umumtil belgilari har bir badiiy asarda bo'lgani kabi bir xil qo'llana olmasligi bilan boshqa nutq uslublaridan ajralib turishi ta'kidlanadi. Badiiy uslub o'ziga xos turli janr ko'rinishlariga ega: bu janr ko'rinishlarining til qurilishi ham o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. U o'zida rasmiy uslub elementlari, so'zlashuv uslubi, ilmiy uslub elementlarini ifodalashi nuqtai nazaridan ham, unda boshqa badiiy asarlarda takrorlanmaydigan so'z

<sup>48</sup> Абдурахмонов Г. Хозирги ўзбек адабий тилининг услублари хақида. Ўзбек

ishlatish mahorati borligi va yozuvchining nutqiy individualligining sezilib turishi jihatidan ham katta bir stilistik sistema sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Stilistika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida, undan farqli ravishda til birliklarining ular ifodalagan tushunchalarga inson munosabatini ifodalash imkoniyatlarini o'rgansa, *uslubiyat* alohida soha sifatida ana shu til birliklari imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan munosabatni o'rganadi. Bu imkoniyatlardan kim, qaysi nutqda, qanday foydalanganini o'rganadi. Ana shunga ko'ra, masalan, badiiy uslubda til birliklaridan, ular imkoniyatlaridan foydalanishga umumiy munosabat ham boshqacha bo'ladi, xususiy munosabat ham boshqacha turli-tuman bo'ladi.

Xullas, til birliklarining u yoki bu uslublarga xoslanib qolishi ham, ularning nutq ko'rinishlarida qo'llanilishi ham ulardan foydalanishga munosabatning natijasi, ifodasidir.

Yuqorida funksional nutq stillarining keltirilgan tasniflaridan kelib chiqqan holda, o'zbek tilida uslublar quyidagicha turlarga ajralishini maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Badiiy uslub.
3. Rasmiy ish yuritish uslubi.
4. Ilmiy uslub.
5. Publitsistik uslub.
6. Notqlik uslubi.



## OG'ZAKI (SO'ZLASHUV) NUTQ STILI

A. Shomaqsudov, I. Rasulov R. Qo'ng'urov, X. Rustamovlar tomonidan 1983 yilda «O'qituvchi» nashriyotida chiqarilgan «O'zbek tili stilistikasi» kitobida hozirgi o'zbek tilining (so'zlashuv) uslubi ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv stili va oddiy so'zlashuv stili<sup>49</sup>.

Adabiy so'zlashuv stili tilning adabiy me'yorlariga mos tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Uning tili sodda jargon va sheva elementlaridan xolidir. Adabiy so'zlashuv stili o'z adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va ma'lum bo'lgan asosiy stil uslub hisoblanadi. Tilning adabiy so'zlashuv stili kundalik aloqa aralashuv uchun xizmat qiladi: maktablarda va o'quv yurtlarida o'qitish ishlari shu stilda olib boriladi. Undan badiiy adabiyotda juda keng foydalaniladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng katta va universal turidir.

Oddiy so'zlashuv uslubi uchun esa betakalluflik bilan erkin muomala aloqa qilish xarakterli xususiyatdir. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu hol ayniqsa, uning sintaktik qurilishida, lug'at boyligidan so'z tanlashida yaqqol ko'rinadi. Oddiy so'zlashuv stili tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy me'yorlariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

So'zlashuv stilining bu ikki turi o'zining bir qator grammatik, leksik-frazeologik va fonetik xususiyatlarga ega.

So'zlashuv uslubida, bir tomondan, umumadabiy tilga xos, ikkinchi tomondan og'zaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Nutqning xarakter va xususiyatlariga ko'ra talaffuz meyo'rlarini ikki tipga ajratish mumkin. Birinchi tip talaffuz me'yorlari ma'ruzachilar, aktyorlar, diktorglar (suxandoshlar), notiq nutqi uchun xarakterli bo'lib, adabiy til normalariga rioya qilishni talab etadi, unda har bir so'z aniq, dona-dona talaffuz qilinishi shart.

<sup>49</sup> Шомаксудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилстикаси. —Т.: Ўқитувчи, 1983 й. 14-бет

Talaffuzning ikkinchi tip me'yorlari esa, asosan so'zlashuvda, og'zaki nutqda uchraydi. So'zlashuv uslubida umumiste'moldagi adabiy neytral so'zlarni talaffuz qilishda birmuncha erkinlik sezilib turadi. So'zlashuv stiliga mansub so'zlar ko'pincha amaldagi adabiy me'yorlari shakllardan farqlanuvchi yoki unga qarama-qarshi keluvchi fonetik belgilarga ega.

Buning quyidagi ko'rinishlari mavjud.

1. So'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashinishi: *qiyg'ir, nalat, shapra, urpimoq* so'zlari talaffuzga ko'ra jonli so'zlashuvga xos bo'lib ularning adabiy talaffuz normasi *qirg'iy, la'nat, sharpa, o'pirmoqdir*.

2. So'z tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: *quflamoq (qulflamoq), tashamoq (tashlamoq), ko'kartmoq (ko'kartirmoq), barikaram (bargikaram)*.

3. Biror tovushning ortirilishi: *chechmoq (echmoq), qamchin (qamchi), korchallon (korchalon), yangitdan (yangidan)*.

4. Tovush almashinishi: *bo'qoq (buqoq), mo'nchoq (munchoq), ko'mirchak (kemirchak), ko'ynak (ko'ylak), tarnov (tarnov), qamich (qamish), qalmoq (qarmoq), qimillamoq (qimirlamoq), tiqillatmoq (tiqirlatmoq)* va hokazolar.

5. Affikslar qo'shilishi natijasida o'zak-negizlarda hosil bo'ladigan qisqartmalar: *opti (olipti), kepti (kelibdi), opkepti (olib kelibdi)*.

Talaffuzning bu usuliga xos ko'rinishlaridan badiiy adabiyotda og'zaki nutqni aks ettiruvchi o'rinlarda, asar qahramonlari nutqida foydalaniladi.

So'zlashuv uslubida ishlatiladigan lug'atning asosiy qismini faol leksik qatlam tashkil qiladi. Shuningdek, adabiy neytral lug'atning katta bir qismi kundalik hayotdagi narsa va hodisalarni ifodalashga oid bo'lib, ular ham asosan, so'zlashuv stilida ishlatiladi. Masalan: *non, osh, tuz, er, osmon, quyosh, yulduz, bola, er, xotin, o'rtoq, dugona, qo'l, ota, ona* va hokazolar. So'zlashuv stilidan kishilar faqat kundalik turmush muomalasidagiga emas, balki xilma-xil sharoitlarda uyda, ko'chada va ish joylarida ham foydalanadi. Shuning uchun so'zlashuv uslubida kundalik turmushga oid lug'atdan tashqari, siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunariga mansub xilma-xil narsa va



hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi.

So'zlashuv stilining asosini tashkil etuvchi umumadabiy leksika «maxsuslik» xususiyatiga ega bo'lmay, balki har qanday nutq uslubida ham, turli xil faoliyat doirasida va ijtimoiy muhitda ishlatilishi jihatdan stilistik neytral hisoblanadi. So'zlashuv stilini asosan so'zlashuv bo'yog'iga ega bo'lgan leksika xarakterlaydi. Stilistik bo'yoqli so'zlashuv elementlariga oddiy so'zlashuv hamda sodda tilga oid leksika kiradi. Oddiy so'zlashuv leksikasiga, yuqorida aytib o'tilganidek, adabiy til normalariga mos keluvchi so'zlashuv stilining oddiy so'zlashuv turida ko'proq ishlatiladigan so'zlar kiradi. Sodda tilga esa adabiy normaga u yoki bu darajada mos kelmaydigan leksika kiradi.

So'zlashuv stili salbiy va ijobiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv leksikaga juda boy. Masalan, *bola*, *farzand*, *jajuq*, *churvaqa* so'zlari o'zaro ma'lum semantik munosabatda, bo'lib, asosan, bir ma'noni anglatadi. Bulardan *bola* so'z betaraf, u barcha nutq stillarida keng qo'llaniladi. *Farzand* so'zi ko'proq, kitobiy stilga xos. *Jujuq* esa jonli so'zlashuvga xos bo'lib, unda erkalash – suyish ottenkasi bor. *Churvaqa* so'zida esa stilistik bo'yoq juda aniq seziladi va bu so'zda umuman mensimay qarash ma'nosi mavjud.

## RASMIY NUTQ STILI

Rasmiy yozishma va hujjatlar uslubi iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o'zaro muomalalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi. Shunga ko'ra, bu uslubda yuridik qonun moddalari, diplomatik murojaatnomalar – notalar, hukumat idoralari qarorlari, instruksiyalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi.

Rasmiy yozishma va hujjatlar stilining qo'llanish doirasi keng va xilma-xil bo'lganligidan uning tarkibi ham turlichadir.

Rasmiy uslub akademik V.Vinogradovning tasnifiga ko'ra, tilning aloqa qilish funksiyasi asosida boshqa nutq uslublaridan ajratib o'rganiladi. Shunga ko'ra, u ko'rsatib o'tilgan munosabatlarda va o'zaro muomalalarda aloqa qilish, xabar ifodalash va ba'zi o'rinlarda buyurish vazifalarini ifodalash uchun ham ishlatiladi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan ish yuritish hujjatlari va yozishmalar uslubida, matnida o'zgarishlar yuz berdi. Hujjatlar tili o'zbek tilining tabiatiga mos ravishda tuziladigan bo'ldi, o'zbek tili qonun-qoidalari aks etdi.

### Rasmiy tilning ikki xil ko'rinishi

Rasmiy nutqning ikki xil ko'rinishi mavjuddir:

1. Og'zaki tarzdagi rasmiy ma'ruzalar (ma'ruzalar) nutqi.
2. Rasmiy ish qog'ozlari nutqi (asosan yozma nutq).

Og'zaki tarzdagi rasmiy ma'ruzalar nutqi, birinchidan, badiiy, ilmiy, jonli so'zlashuv va publitsistik nutqlardan farq qilsa, ikkinchi tomondan, rasmiy ish qog'ozlari nutqidan (yozma nutqdan) ham farq qiladi.

Ma'muriy idoralar xodimlarining ma'lum bir maqsaddagi chiqishlari, suhbatlari, kishilar bilan muomalalari og'zaki tarzdagi rasmiy nutqning shakllanishi uchun asos bo'lgan: «- *O'rtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy*



*burchimizni namunalik tarzda bajarib kelayotganimizga bir yil bo'lgan kunda sizni bevosita tabrik etishga!..*

*- Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganimizga hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas, deb hisoblash mumkin...*

*Bu ryumkani mana shuning uchun ko'tarishdan burun o'z muhabbatimni yana bir marta amaliy suratda izhor qilgani ruxsat berishingizni talab qilaman» («Nutq» A. Qahhor).*

Bu nutq jonli so'zlashuv (norasmiy) nutqqa aylantirilsa, quyidagicha bo'lishi mumkin: *«Oyisi, tuppa-tuzuk yashab kelayotganimizgayam bir yil bo'p qopti. Shunday kunda sizni tabriklashga ruxsat eting!... To'g'ri, kamchiliklar, noxushliklaram bo'ldi-yu, lekin, baribir, xudoga shukur, yomon yashamadik. Muhabbatimni shu piyoladagini ko'tarish bilan bildirshimga ruxsat bering!!!»*

Yozuvchi A. Qahhor bunday nutq ko'rinishlarini har bir qadamda qattiq tanqid qilgan. Uning «Nutq» hikoyasi bu boradagi badiiy umumlashmadir. Uning «Badiiy ocherk to'g'risida» aytgan gaplarida shunday fikrlari uchraydi:

«Asaringizda masalan: «Tovuq tomdan uchib tushdi», degan jumla uchrasa, «mo'tabar fikr egasi» burnini jiyirib: «Bu ocherk» deydi: agar: «Tovuq toمنىning labidan sakrab, qanotlarini qoqa-qoqa havolarni to'lqinlatib tushdi», deb yozilgan bo'lsa, chehrasi ochilib: «Bu lirik hikoya», deydi».

D. E. Rozentalning quyidagi fikri ham diqqatga sazovordir: «Bu nutq stili o'ziga xos leksik qatlamga va sintaktik qurilishga ega bo'lishi bilan konservativ xarakter kasb etadi»<sup>50</sup>.

Bu fikr rasmiy nutqning hamma ko'rinishlari uchun tegishlidir.

Shu nuqtai nazardan yuqorida keltirilgan matnlarga e'tibor bersak, *O'rtoq rafiqam, ijozat berasiz, sharaf bilan davom etdirib, oilaviy burchimizni, namunalik tarzda bajarib, bir yil bo'lgan kunda, bevosita tabrik etishga, bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganimizga, hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas, deb hisoblash mumkin, ko'tarishdan burun, amaliy suratda...* kabi qo'llanishlar asosan balandparvoqlik,

rasmiyatchilik uchungina ishlatilganligini ko'ramiz. Bu esa nutqni samimiylilik, soddalik, xalqchilikdan, umumxalq ruhidan mahrum qiladi. Ushbu nutq turi uchun o'ynoqilik, hazil-mutoyiba, qochiriqlar xarakterli bo'lmaydi. Ularda rasmiy unvon, daraja, amal bildiruvchi *janobi oliylari, janob prezident, hazrati oliylari, yuqori martabali mehmon, Hurmatli vazirimiz, hurmatli direktorimiz, qozi-kalonimiz, o'rtoq Boqijon Ahmedovich, Munavvara Karimovna* kabi qo'llanishlar, o'ziga xos iboralar ishlatiladi.

Rasmiy ish qog'ozlari nutqi esa ma'muriy va huquqiy ishlarda amal qiladigan nutq ko'rinishlaridan bo'lib, uning turli alohida-alohida shakllari mavjuddir: huquqiy qonun moddolari, diplomatik murojaatnomalar, hukumat idoralarining turli xildagi qarorlari, ulardan ko'chirmalar, yo'riqnomalar, buyruqlar, farmonlar, topshiriqlar, shartnomalar, ariza, akt, bildirishnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tilxat, taklifnoma, rasmiy e'lon va xabarlar shular jumlasidandir. Bunday ish qog'ozlari namunolari hammaga ma'lum.

Shuningdek, N. Mahmudov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov va M. Aminovlar tomonidan tuzilgan «O'zbek tilida ish yuritish» (munshaot) kitobida bunday namunalar to'la berilgan. Bu kitobda ish qog'ozlari matnlari imkoniyat darajasida o'zbekchalashtirib berilgan; nomlari ham o'zbekchalashtirilgan (*xarakteristika-tavsifnoma, rekomendatsiya-tavsifnoma, doverennost-ishonchnoma, instruktsiya-yo'riqnoma, zakaz-buyurtma* kabilar).

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilmasidan oldin ish qog'ozlari nomlari ham, uning matnlari ham, asosan, rus tilida bo'lar, o'zbekcha mantlarda ham ko'p holda ruscha atamalar ishlatilar edi. *«Revizor raspiskani pechati bo'lmagani sababli qabul qilishi registratsiyadan o'tkazishi, vedomostga tirkab qo'yib, shu bilan sizga protsentdagi rekvizitni to'lashga haqqi yo'q».*

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan ish qog'ozlari o'zbek tilida yoziladigan bo'ldi va yuqorida aytilganidek, deyarli hammasining nomlari o'zbekchalashtirildi. Imkoni yo'q o'rinlardagina ruscha (rus tili orqali o'zlashgan) nomlar qoldirildi: *telegramma, telefonogramma; faktura, staj, patent, arxiv* kabilar.



Ayrim ish qog'ozlaridan namunalar:

*Toshkent shahri S. Rahimov tumanidagi  
149-maktab direktori o'rtoq S. Ahmedovga  
10-sinf o'quvchisi Toshpo'lat Egamovdan*

*Ariza*

*Namangan viloyatidan Toshkent shahriga doimiy yashash uchun ko'chib kelganligimiz tufayli oilaviy sharoitimiz hali to'la izga tushgan emas. Ota-onam mening bir necha kunlik yordamimga muhtoj. Shuni hisobga olib, meni bir hafta davomida barcha darslardan ozod qilishingizni so'rayman.*

2000.01.10

(imzo)

T. Egamov

*Ishga qabul qilish haqidagi buyruq namunasi*

*Toshkent Milliy Universiteti*

*01-14*

**BUYRUQ**

*15.02.2000 №102*

*Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid*

*ishga qabul qilish xususida*

*Ahmedov Karim Egamovich 2000.15.01 dan 6900 so'mlik maosh bilan o'zbek filologiyasi fakulteti tarkibidagi ilmiy guruhning katta laboranti lavozimiga qabul qilinsin (tayinlansin).*

*K.E. Ahmedov arizasi, dekaning rozilik ruxsatnomasi.*

*Universitet rektori:*

(imzo) Sh.O. Olimov

*Imzo (kadrlar bo'limi)*

Bunday namunalar yuqorida tilga olingan rasmiy ish qog'ozlari bo'yicha yaratilgan «O'zbek tilida ish yuritish» kitobida bor bo'lib, bu kitobda har bir ish qog'ozining turli ko'rinishlariga namunalar alohida-alohida berilgan.

### Rasmiy ish qog'ozlarining til xususiyatlari

Rasmiy nutqqa xos ish yuritish hujjatlarining yozilish belgilarini yoritishda imkoni boricha bir xil uslubga rioya qilinadi: dastlab har bir hujjatning ta'rifi, o'ziga xos xususiyatlari, yozilish tartiboti, zaruriy qismlari va bu qismlarning ayrim izohlari beriladi. Bu fikrlarga ularning so'nggi yozilish shakllari yoki amaliyotda ko'p qo'llanadigan namunalari keltiriladi. Shakl va namunalar aksariyat hollarda muayyan hujjatlar yoritilgandan so'ng mazkur bo'lim oxirlarida beriladi yoki hujjat izohlariga qo'shib havola etiladi.

O'zbek tili Davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo'llanilayotgan bugungi davrda davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham oqlash ham qiyin»<sup>51</sup>. Ko'rinib turibdiki, barcha davlat idoralari, korxon va tashkilotlardagi ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil etadi. Ish yuritish jarayonidan kelib chiqib, rahbar faoliyatiga to'laqonli tarzda baho berish mumkin, chunki mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar kattayu-kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi.

Yaqin o'tmishimizda barmoq bilan sanarli miqdordagi hujjatlar o'zbek tilida yozilgan. Mustaqillik yillaridan keyin ham o'zbekchalashtirilgan hujjatlarda: «Berildi ushbu spravkani Rahmonovga shu haqdakim, haqiqatdan ham bu o'rtoq shu joyda yashaydi» qabilidagi rus tilidan aynan o'zbekchalashtirilgan, ya'ni rus tilidagi andozada yozilgan ma'lumotnomalar yozib kelindi. Ammo o'zbek tili gap bo'laklarining o'rinish tartibining o'zgarishi yuqoridagi ma'lumotnoma misolida o'zbek tilining tabiatiga mutlaqo zid bo'ldi.

Davlat tili maqomining berilishi tom ma'noda hujjatchilikning o'zbek tili qonun-qoidalari asosida shakllanishi va tuzilishi uchun zamin yaratdi.

<sup>51</sup> Юртбошимизнинг ушбу фикрлари Н.Аминов, А.Мадвалиев, Н.Махкамов, Н.Махмудовларнинг «Иш юритиш» амалий қўлланмасидан («Ўзбекистон миллий энциклопедияси» илмий нашриёти, -Т., 2003) олинди.



Bizga ma'lumki, har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur bu tildir. Ayni paytda, hujjatchilikda til axborotni faqat qayd etish vazifasigina bajarib qolmasdan, boshqaruv faoliyatini izchil tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, avvalo, o'z qadimiy an'analarimizdan kelib chiqib va dunyo hujjatchiligidagi ilg'or tajribalardan ijodiy foydalangan holda, hujjatchiligimizni takomillashtirish yo'lidan bormoq kerak. Hujjatlarning sof o'zbek tilidagi yagona andozalarini yaratish, bular bilan bog'liq atamalarning bir xilligiga erishish borasida ish olib borish bugungi kundagi dolzarb muammolardandir. Mamlakatimizda bu yo'nalishdagi ishlar boshlab yuborilgan, hujjatchilikni takomillashtirish yuzasidan ancha-muncha natijalar ham yo'q emas.

O'zbek tilidagi hujjatchilikni takomillashtirishda, albatta, o'zbek tilining o'z qonun-qoidalariga rioya qilish kerak bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida bitilgan hujjatlarda uning sanasini ko'rsatish, masalan, «12 oktyabr 2005 yil» tarzida yozish rus tilidan ko'chirish oqibatida odat bo'lib qolgan. Rus tilida «12 oktyabrya 2005 goda» tarzida yoziladi va bu rus tilining tabiati va qonuniyatlariga to'la muvofiq keladi. Ayni iboraning o'zbek tilidagi ma'nosi ham aslida «2005 yilning 12 oktyabri» demakdir. SHunday ekan, o'zbek tilining o'z tabiati va qonun-qoidalari asosida «2005 yilning 12 oktyabri» yoki, juda bo'lmaganda, «2005 yil 12 oktyabr» tarzida yozish kerak.

Hujjatlarda so'z va gap tartibi bilan aloqador, so'z qo'llash bilan bog'liq juda ko'p muammolar borki, ularni faqat ayni til tabiatidan kelib chiqib hal etmoq lozim.

O'zbek hujjatchiligini bugungi kun talabalari asosida shakllantirish va rivojlantirish uchun markazlashtirilgan holda tashkiliy tadbirlar belgilash yo'lidan borish maqsadga muvofiqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 18 avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi viloyat, shahar va tumanlar hokimlari apparatlarida ish yuritish bo'yicha yo'riqnomasi», shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 29 martdagi 140-son qaroriga ilova etilgan «O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, kontsernlari, uyushmalari, kompaniyalarida va

boshqa markaziy muassasalarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha namunaviy yo'riqnomasi»ni alohida qayd etish kerak.

Hujjatlarni o'zbek tili qonun-qoidalari asosida shakllantirish va adabiy til me'yorlariga muvofiq tuzish qonuniyatlari amaliy tarzda 2000 yilda «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti tomonidan chop etilgan «Ish yuritish» kitobida o'z aksini topgan. Mazkur qo'llanmada ish yuritish hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, umumiy uslubiy tomonlari hamda idoraviy ish yuritish tili, shuningdek, boshqaruv hujjatlaridagi zaruriy qismlar va ularni rasmiylashtirish, qolip hujjatlari talablari bayon etilgan.

O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini, adabiy til me'yorlarini ma'lum darajada bilish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog'ozlarini tuzish bilan bog'liq har bir kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo'lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo'nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo'lmaydi. Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o'z ish vaqtlarining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sariflaydi. Mazkur xodimlar o'zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo'lmasa, ish vaqtining hamma foizini shu ishga sarflaganlarida ham, ijohiy natijalarga erishishi qiyin.

Respublikamizda o'zbek adabiy tilimizning rasmiy – ish uslubini o'rganish yuzasidan ilk qadamlar sifatida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan<sup>52</sup>. Mazkur tadqiqot ishida ko'proq rasmiy ish qog'ozlari nutqining leksik xususiyatlari yoritilgan. Bu sohada yana qilinishi kerak bo'lgan masalalar – rasmiy nutqning morfologik hamda sintaktik xususiyatlarini tadqiq etish tilshunos hamda uslubshunoslar oldida turgan muhim masalalardan bo'lmog'i kerak.

O'zbek hujjatchiligidagi jiddiy o'rganilishi, amaliy va nazariy tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalardan biri ayrim hujjatlarning

<sup>52</sup> Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка. Автореферат дисс. На соискание уч. ст. канд. филол. наук. –Т., 1987.



qatnashdilar, rais, ko'ib, qaror qilindi, tasdiqlayman, tavsiya etildi, bekor qilindi, tuzildi, qabul qilib oldim, topshirdim, ketganligim, sababli, nufayli, mazkur, shu sababli, hisobga olib, muvofiq, yo'llanma, buyurtma haqida kabi juda ko'p lug'aviy birliklar bilan birga, yuqorida aytilganlar (ko'rsatilganlar, ta'kidlanganlar, nomlari o'qilganlar), quyida imzo chikuvchilar, qabul qilib oluvchi, ma'lum qiluvchi, hisob beruvchi kabi maxsus rasmiy iboratlar ham ko'p ishlatiladi. Ish qog'ozlari hujjatlari nomlarining o'zi ham alohida lug'aviy xususiyatidir. Chunki ular o'ziga xos yasash xususiyatlariga egadir: *bildirishnoma, tavsiynoma, ma'lumotnoma, yo'riqnom, dalolatnoma, tavsiyanoma, noma* affiksoidi bilan yasalgan yasama so'zlar ish qog'ozlarining nomi, sarlavhasi o'rinda va ba'zan main tarkibida ham ishlatiladi).

Atmalarining aksariyat qismi ana shu vosita orqali yasalganligi kuzatiladi. Nomlarning yana bir qismi tarkibida *xal* so'zi ishtirok etadi: *da'vo xali, ilova xali, ilimos xali, so'rov xal, tasdiq xal, tilxal, tushuntirish xali* kabilar.

Ba'zi atmalarining yasallisida *-ma* affiksi ishtirok etganligi kuzatiladi: *buyurtma, ko'chirma, ko'rsatma* kabilar; *-chi* affiksi vositasida yasalgan shaxs o'larining ayrimlari asosan shu nuqqa ko'rinishda ishlatiladi: *ijarachi, hisobchi, nazoratchi, ijrochi, yordamchi, iqtisodchi* kabilar.

Xullas ish qog'ozlari matnida qo'llanuvchi maxsus so'zlarning o'zi ham anchagina bo'lib, ularning aksariyati yasama so'zlardir. Bunday so'zlarni yasashda ishtirok etgan yasovchi affiksialarning miqdori ham ancha cheklangandir.

Rasmiy ish qog'ozlari lug'at tarkibidagi qo'shma yoki birlikna holidagi atmalarining tuzilishlari ham ma'lum darajada o'ziga xos bo'lib, ularning ikkinchi qismida *varag'i, qog'oz, xal, dafjar, shartnoma* kabi so'zlar ko'proq ishlatiladi.

Kishilar nomlari ba'zi hollarda boshqa nom bilan atab qo'yiladi: *ijrochi, nazoratchi, buyurtuvchi, nymi ijarga oluvchi, guvoh, da'vogar, javobgar, ayblanuvchi, oqlovchi, goralovchi, imzo chekuvchi, so'rov qiluvchi, xizmatchi, o'g'ir qilib oluvchi* kabilar. Bunda odada ayrim shaxslarning nomlari atayin ta'kidlayvermaslik, ba'zan esa yashirish, ba'zan yana ortiqcha takroran qo'chish ko'zda tutiladi. Buning aksi sifatida *korxonalar, tashkilotlar* nomlari o'rinda olmoshlarni ishlatish

nomlanishi masalasidir. Iltifoq davrida idoraviy ish yuritish, asosan, rus tilda olib borilganligi uchun barcha hujjatlarining nomlari ham ruscha yozildi. Chunonchi, «ish yuritish» atamasining o'zi ham ruscha «depoizvodstvo» so'zidan tarjima qilinib, shu atamaning o'zi qo'llanildi. Vaholanki, ma'lum bo'lishicha, tariximizda saroy va umuman yirik mahkamalarda yozuv ishlarini olib boruvchilar «munshiy» (arabcha) deb atalgan. Atog'li yovuchimiz A.Qodiriyning «Mehrordan chayon» romanida shu so'zga murojaat qilingan: «Anvar devxonona sahmg'a eiganda, ichkaridagi kalladan-kichik, mirzo, munshiy'lar yangi boshliqlarim muborakbod qilgali o'rmlaridan qozg'aldilar». Demak, rus tilidan tarjima qilingan «*ish yurituvchi*» atamasining muqobil sifatida «munshiy» so'ziga o'zakkodosh va ma'nodosh bo'lgan hamda o'tmishimizda bobolartimiz tilda ishlatilgan «*munshaot*» atamasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rasmiy ish qog'ozlari uslubiy adabiy nuqqa uslublardan va jonli so'zlashuv uslubidan o'ziga xos lug'aviy va grammatik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Bundan tashqari bunday hujjatlarida ayrim tinish belgilar, raqamlarining ishlatilishi ham o'ziga xosdir. Chunonchi, sanalar ko'p hollarda 10.01.99 y. shaklida, pul miqdorlari 1560 (bir ming besh yuz oltmish) tarzida, buyruq raqamlari 14-23 yoki 14/23 shaklida qo'llaniladi. VII so'zi odada qisqartirilib, «y.» shaklida, oylarni ifodalovchi so'zlar o'rinda esa 01., 02 (masalan, 10 avgust emas, 10.08 shaklida) kabi sonlar keng qo'llaniladi: ko'pgina so'zlardan so'ng odada, rasmiy atama ko'ra ikki nuqqa qo'yiladi. Masalan, *asos; imzolash; buyurtaman; ilova; da'vogar; javobgar* kabi.

Ko'pchilik ish qog'ozlari bir xil shakliga ega bo'lganligi uchun ular ma'lum ana shu shakllarda ko'paytirilib (blanklar tarzida) qo'yiladi va ularning juda ko'p o'rnlarda ishlatilgan: *muhr, imzo* so'zlari bir xil qo'llanaveradi.

Rasmiy ish qog'ozlari lug'aviy tarkibi o'ziga xosdir: unda *elchi, elchixon, tomonlar, muxtor vakil, favqulodda va muxtor elchi, ishonch yorlig'i, noia, refihsakatya, akt, guvohnoma, qaror, qidatirish, bayonot, vizi, shartnoma, majlis, kun tartibi, ishchi guruhlari, so'zga chiquvchilar, eshittildi, axborot berildi, tugatildi, tashkil qilindi, tayinlandi, bo'shatildi, ruxsat etildi, so'rtayman, ilimos qilyaman,*



juda kam uchraydi. Bundan maqsad noaniqlikka, chalkashlikka yo'l qo'ymaslikdir.

O'zbek tilida ayrim hujjat nomlari yaqin-yaqingacha rus tilidagi nomi bilan yuritilib kelindi. Masalan, «raport», «instruksiya», «akt», «xarakteristika». Agar tariximizga, noyob kitoblarimizga murojaat qilsak o'tmishda yuqoridagi hujjat nomlari asl turkiy so'zlar bilan atalganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (XI asr) asarida «yorliq», «noma» ma'nosidagi «bildirgulik» so'zi bor. Bu so'z sof turkiy «bilmog» fe'lidan yasalgan. Shularni hisobga olib, «raport» deyiladigan hujjatni o'zbek tilida «bildirish», «bildirishnoma» so'zi bilan nomlash mumkin.

«Akt» hujjat nomini «dalolatnoma» deb atash to'g'ri bo'ladi. Chunki, bu so'z mazkur hujjatning mohiyatini to'g'ri va to'liq aks ettira oladi. Mazkur so'zdagi «noma» elementi hujjatning yozma shaklda ekanligiga ishora qiladi. «Instruksiya» so'zi o'rnida o'zbekcha «Yo'riqnoma» so'zining qo'llanishi ham mazkur hujjatning belgilariga to'g'ri kelganligini keyingi yillardagi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Hujjat nomlarini, uning tuzilishi va matnini o'zbek tilining o'z imkoniyatlari asosida shakllantira borish, hujjatchilikdagi so'z va iboralarning o'zbekcha muqobilini izlab topish va amaliyotga kiritish ishlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasining Atamashunoslik qo'mitasi faoliyat olib bormoqda.

Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri *xolislikdir*. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog'i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so'z va so'z shakllarini ishlatishda muayyan chegaralanishlar bo'lishi tabiiy. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinkiantanavor yoki bachkana, dag'al so'zlar, shevaga oid so'zlar, tor doiradagi ma'lum bir guruh vakillari nutqida ishlatiladigan so'zlarga, umuman, murojaat etilmaydi. Badiiy tasviriy vositalar sirasiga kiruvchi o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, istiora, tashhis, talmeh kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi uslubiy vositalar ishlatilmaydi. Aks holda, ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxolisligiga olib keladi.

Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik

kabi talabalarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjatlar ish yuritish jarayoniga halaqat beradi, uning samaradorligi va sifatini keskin pasaytiradi.

Hujjatlar matnining *xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik*dan iborat zaruriy sifatleri hujjatchilik tilining o'ziga *xos* uslubi, undagi o'ziga xos so'z qo'llash, morfologik va sintaktik xususiyatlari orqali ta'min etiladi.

Rasmiy uslubda fe'l shakllarining ishlatilishi ham o'ziga xosdir. Jumladan, harakat nomi shakllari, majhul nisbat, shart mayli, buyruq mayli shakllari, ayniqsa, ko'p qo'llanadi: *oldini olish, ish yuritish, hukm chiqarish, olib borish, vaqtni tejash, so'roq qilish* kabilar. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, atamalarning ko'pchiligi tarkibida ham *-v (-uv)* va *-sh (-ish)* affikslari mavjuddir. Harakat nomining *-moq* shakli bilan hosil qilingan ko'rinishi uchramaydi: *so'roq (varaqaasi), yozuv, to'lov, bildiruv (xali), boshqaruv, chaqiruv (qog'ozi)* kabilar; *ko'riladi, topshiriladi, bajariladi, yuboriladi, qabul qilinadi, tan olinadi, so'rab boriladi, chaqiriladi; tasdiqlansin, bo'shatilsin, yuborilsin, so'ralsin, tayinlansin, ko'rib chiqilsin* kabilarda ham fe'lning maxsus shakllari qo'llangandir.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so'zlar ko'p qo'llanadi. Hatto fe'l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so'z shakllari tanlanadi, ya'ni «harakat nomi» deb ataluvchi so'z shakllari faol ishlatiladi: «...tayyorgarlikning borishi haqida», «...qarorning bajarilishi to'g'risida», «...yordam berish maqsadida», «...qabul qilishingizni so'rayman» kabi.

Fe'l shakllarining qo'llanilishida ham bir muncha o'ziga xosliklar mavjud. Xususan, majhul nisbatdagi III shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o'tgan (yoki hozirgi-kelasi) zamondagi fe'l shakllarining qo'llanish darajasi ancha yuqori: *topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo'shatilsin, tayinlansin; eshitildi, qaror qilindi, ko'rsatib o'tildi, ko'rib chiqildi* kabi.

Hujjatlardagi gap qurilishi, odatda, tasniflash, mayda qismlarga ajratishga, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga, umuman, sabab-oqibat va shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan uzun jumtalar, murakkablashgan, uyushiq



bo'lakli gaplar, shart ergash gapli qo'shma gaplar ko'p qo'llanadi.

Umuman olganda, rasmiy nutq uchun murakkablashgan sodda gaplar va turli xil qo'shma gaplar xarakterlidir. Quyida turli hujjatlar matnida ishlatilishi mumkin bo'lgan murakkablashgan sodda gaplar va qo'shma gapning ba'zi ko'rinishlariga misollar keltiramiz:

*Axborot-ma'lumot materiallar miqdorining nihoyatda ko'pligi, shuningdek, kontsern ihtiyoridagi hisoblash markazining to'la quvvat bilan ishlamayotganligi tufayli, topshirilgan vazifani sifatli bajarish uchun boshqa hisoblash markazlarini jalb qilish zarurati paydo bo'ldi.*

*Har bir avtomobil bo'yicha yuk avtomashinalari ishlari ko'rsatkichi kunma-kun tartibda yuk avtomobillari ishlarining hisob-kitobi qaydnomasida yozib boriladi, shu asosda dispetcher har bir oy uchun avtomobillar ishlari hisob-kitobining qo'shma qaydnomasini tuzadi.*

Quyidagi parchaga ham e'tibor qiling:

*Ana shunday ishga ko'chirishga tabiiy ofatning, ishlab chiqarishdagi avariyaning oldini olish yoki shunday hollarni tugatish, yoxud ularning oqibatiga darhol barham berish uchun; baxtsiz hodisalarning, ish to'xtab qolishining, davlat yoki jamoat mulki nobud bo'lishi yoki buzilishining oldini olish uchun va boshqa favqulodda hollarda, shuningdek, yo'q ishchi yoki xizmatchining o'rnida ishlatish uchun zarur bo'lganda yo'l qo'yiladi. («O'zbek tili stilistikasi», 21-b.).*

Gap tarkibida odatdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi, badiiy va boshqa asarlarda mumkin bo'lgan g'ayriodatiy so'z tartibi (inversiya)ga yo'l qo'yilmaydi.

Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda, ularda so'roq va undov gaplar deyarli qo'llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi – xabar berish va buyurish vazifalari amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot ifodalangani, buyruqda buyurish aks etadi, bayonnomada esa ham axborot («eshitildi...»), ham buyurish («qaror qilindi...») o'z ifodasini topadi.

Hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Yakka rahbar nomidan yoziladigan farmoyish hujjatlari (buyruq, farmoyish, ko'rsatma kabilar) birinchi shaxs tilidan yoziladi. Shuningdek, ayrim shaxs tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati kabilar) ham birinchi shaxs, birlik sonda yoziladi.

Boshqa hujjatlar esa yo birinchi shaxs ko'plik sonda, yoki uchinchi shaxs birlik sonda tuziladi: «...ga ruxsat berishingizni so'raymiz», «...deb hisoblaymiz», «ma'muriyat talab qiladi», «boshqarma so'raydi» kabi.

Hujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliqlashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalanish lozim. Chunki, qoliqlashgan, yagona doimiy shaklga ega bo'lgan so'z tizimlari, iboralar, muhandislik psixologiyasi ma'lumotlariga ko'ra, boshqa so'z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinadi ekan. Buning ustiga qoliqlashgan so'z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi. Tabiiyki, har bir hujjat turining mohiyati va maqsadi bilan bog'liq ravishda o'ziga xos qoliqlashgan sintaktik tuzilmalar shakllana boradi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliqlashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin:

- 1) «...so'm maosh bilan ...lavozimiga tayinlansim»;
- 2) «...o'z xohishiga ko'ra ...lavozimidan ozod qilinsim»;
- 3) «...boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ...lavozimidan ozod qilinsim».

Yoki xizmat yozishmalarida manna bunday qoliqlashgan so'zlardan foydalanish mumkin:

- 1) «Sizga ...ni ma'lum qilamiz»;  
«Sizga ...ni bildiramiz»;  
«Sizga ...ni eslatamiz»
- 2) «...yordam tariqasida...»  
«...munosabati bilan»  
«...qaroriga muvofiq ravishda...»
- 3) «...ga korxonaga ma'muriyati qarshi emas»;  
«...ga korxonaga kafolat beradi» va h.k.

O'zbek tilidagi hujjatilik takomillasha borgan sari bunday qoliqlashgan birikmalar ham ko'payib, mukammalashib boradi. Buning natijasida hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish ishi ham bir qadar yengillashadi. Ana shu qoliqlashgan birikmalarning ishtirokiga ko'ra hujjatlar «hujjatlar yozilmaydi, balki tuziladi» deyiladi.

Hamonki, har qanday hujjat, eng avvalo, axborot tashuvchi vosita ekan, uning axborot sig'imini kengaytirish, fikrning teran, mantiqli bo'lishi muhimdir. Shuning uchun hujjatda tilning ortiqchalik prinsipidan chetlab o'tish, so'zlarni tejash prinsipidan oqilona foydalana bilish kerak.



Buning uchun qisqartmalarni qo'llash yaxshi natija beradi, bunda me'yorga qat'iy va izchil amal qilmoq lozim. Chunki qisqartmalar o'zbek tilining tabiatiga u qadar mos emas, shuning uchun ham qisqartmalar o'zbek tilida uncha ko'p emas. Hozirda bizda bir qadar odatga kirgan qisqartmalar bor: «prof» (professor), «km» (kilometr), «sh.k» (shu kabi) va hokazolar. Ayni paytda tilimizning so'z va so'z birikmalaridagi ichki ma'noviy imkoniyatlaridan kengroq va unumliroq foydalanmoq zarur.

Hujjatdagi fikrni aniq, lo'nda bayon qilishda xatboshi (abzats)ning ahamiyati ham katta. Har bir yangi, alohida fikr xatboshi bilan ajratilishi, bir xatboshidan ikkinchi xatboshigacha bo'lgan matn 4-5 jumladan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Rasmiy ish qog'ozlarining ayrim turlarida uyushiq bo'lakli gaplar, shart ergash gapli qo'shma gaplar ko'p qo'llanadi.

Umuman olganda, rasmiy nutq uchun murakkablashgan sodda gaplar va turli xil qo'shma gaplar xarakterlidir: *har bir avtomobil bo'yicha yuk avtomashinalari ishlari ko'rsatkichi kunma-kun tartibda yuk avtomobillari ishlarining hisob-kitobi qaydnomasida yozib boriladi, shu asosda dispetcher har bir oy uchun avtomobillar ishlari hisob-kitobining qo'shma qaydnomasini tuzadi.*

Quyidagi parchaga ham e'tibor qiling:

*Ana shunday ishga ko'chirishga tabiiy ofatning, ishlab chiqarishdagi avariyaning oldini olish yoki shunday hollarni tugatish, yoxud ularning oqibatiga darhol barham berish uchun; baxtsiz hodisalarning, ish to'xtab qolishining, davlat yoki jamoat mulki nobud bo'lishi yoki buzilishining oldini olish uchun va boshqa favqulodda hollarda, shuningdek, yo'q ishchi yoki xizmatchining o'rnida ishlatish uchun zarur bo'lganda yo'l qo'yiladi.* («O'zbek tili stilistikasi», 21-b.).

Demak, rasmiy ish qog'ozlari turli-tuman bo'lganligi tufayli har birining o'ziga xos tuzilishi, xususiyatlari ham bor. Biroq ulardagi asosiy holatlar mushtarak ko'rinishlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, rasmiy uslub bir tomondan insonlar o'rtasidagi rasmiy munosabatlarni ifodalasa, ikkinchi tomondan, tashkilotlar, idoralar orasidagi, ular xizmatchilari orasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Rasmiy nutq ana shu munosabatlarni ifodalash maqsadida shu asosda shakllanadi va turlicha ko'rinishlarga ega bo'ladi.

## ILMIY NUTQ STILI

Ilmiy stil (yoki ilmiy bayon stili)da tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Bu stil alohida maxsus funksiyaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ilmiy stil ilmiy terminologiya bilan bog'liq. Odatda, atamalar ilmiy stilning leksikasini tashkil qiladi. Lekin ilmiy asarlar tili faqat atamalaridagina tashkil topmay, unda abstrakt (mavhum) leksika va ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lgan umumxalq so'zlari ham keng qo'llanadi. Ilmiy stilda yana fanning turli sohalariga oid ramzlar (simvol) va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi.

Ilmiy stil fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra o'ziga xos vazifa ham bajaradi. Ilmiy nutq, asosan, ilmiy ishlar nutqi bo'lib, uning aniq ko'rinishlari ilmiy maqola, ilmiy risola, dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy ma'ruzalar shaklida namoyon bo'ladi.

Ilmiy nutq ko'rinishining o'ziga xos belgilari yana quyidagilardan iboratdir:

1. Bu nutq ko'rinishida ilmiy atamalar juda keng qo'llanadi. Bunda fanning turli sohalariga oid atamalar uchraydi. Atamalar esa, asosan, shu fan sohasiga oid asosiy ma'noda qo'llanadi:

*Oddiy va murakkab strukturali ergash gaplar nomlanishiga ko'ra, bir-biridan farqlanmaydi. Ular o'zaro tarkibidagi predikativ birliklar miqdori jihatidan farqlanadilar. Oddiy ergash gaplar faqat bir predikativ birlikdan iborat bo'lib, bosh gapni bir tomondangina izohlaydi. Murakkab strukturali ergash gaplar oddiy ergash gaplarga qaraganda, batafsilroq, kengroq fikrlarni ifodalaydi. Ular bosh gapdagi ish-harakatni turli tomondan, atroflicha izohlaydi, chunki uning tarkibida ergash gupning boshqa xil turlari ham mavjud bo'ladi. Bu esa bosh gapda ifodalanayotgan fikrning yanada to'laroq oydinlashuviga yordam beradi* (A.Mamajonov. Murakkab strukturali ergash gaplar. // O'zbek uslubshunosligining dolzarb muammolari. // Farg'ona, 2006 yil, 6-bet)

Keltirilgan ushbu matn tilshunoslikka oid sof ilmiy nutq



*serostona daryo, patsimon bulutlar* kabi atamalar ham aslida obrazli ifodalardan kelib chiqqan.

Geografiya va astronomiyada ham shunga o'xshash atamalarni uchratish mumkin: *qush bozorlari* («bazari ptichi»—yozda tundrada qushlarning to'planadigan joylari), *qo'y peshanalari* (barani lbit — qadimgi muzlik silliqlab ketgan do'ngliklar), — *ilon izi* (meandr), *uchar yulduz* (meteor), *quyruqli yulduz* (kometa), *Somon yo'li* va boshqalar.

Albatta, ilmiy stildagi obrazlilik bilan badiiy adabiyotdagi obrazlilik farqlanadi. Ilmiy stilda obrazli nomlar faqat nominativ - atash funksiyasini, badiiy adabiyotda esa o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Obrazililik (emotsionallik) kategoriyasi agar ilmiy stilda «so'ngan, nursiz» holda ko'rinsa, badiiy adabiyotda esa «jonli» tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, *uchar yulduz, somon yo'li* astronom uchun, avvalo, atama vazifasini o'taydi, yozuvchi uchun esa bunday birikmalar o'xshatish yoki obrazli ifoda manbai bo'lishi mumkin.

#### Ilmiy-ommabop stil turi

Albatta, ilmiy texnik bayon ilmiy matematik bayondan yoki qat'iy ilmiy bayon ilmiy-ommabop bayondan ma'lum darajada farqlanadi. Bu tafovutlar bayon qilish situatsiyasi va bayon qilish «material»dan kelib chiqadi. Binobarin, ilmiy-texnik, ilmiy-ommabop, ilmiy-matematik bayonlar ilmiy stilning ko'rinishlari bo'lgani uchun, ular ilmiy stilga xos umumiy, yaxlit xususiyatlarga ega bo'ladi. Ilmiy stilning barcha belgi-alomatlari ularning har birida o'ziga xos bir shaklda takrorlanadi.

Masalan, ilmiy stilning ilmiy-ommabop variantida yozilgan biror fanga oid kitob, maqola va ma'ruzalar shu fan masalalari bilan tanish bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallanganda material ularga tushunarli shaklda bayon etiladi, fikr jonli va qiziqarli qilib tushuntiriladi, ilmiy atamalar kam qo'llanadi, umuman, tanish bo'lmagan atama va mavhum formulalar o'rniga aniq tasviriy materiallarga kengroq o'rin beriladi.

Ba'zan bayonning obrazlilik va emotsionalligini ta'minlash

uchun badiiy usullardan ham foydalaniladi. Lekin ilmiy stil bilan uning ilmiy-ommabop ko'rinishi o'rtasidagi bu xildagi tavofutlar ilmiy stil tushunchasining bir butunligiga, yaxlitligiga putur etkazmaydi.

Masalan:

*Hovuzning qirg'oqlarida hosil bo'lgan yupqa muz asta-sekin hovuzning o'rtasiga chuqurroq joylariga siljib, ko'p o'tmay butun suv ustini tiniq shaffof muz qatlami qoplab oladi. Qahraton sovuqlar boshlanadi, muzning qalinligi bir metrga yaqinlashib qoladi...*

*Ma'lumki, temirchi temir chambarakni g'ildirak to'g'iniga kirgizishdan oldin qizdiradi. Chambarak sovuganida qisqarib, to'g'inni mahkam siqib turadi. Temir yo'l izlari ham hech qachon bir-biriga taqab o'rnatilmaydi. Aks holda, ular oftobda qizib, albatta, egiladi. Agar yog' to'latilgan shishani iliq suvga solib qo'ysangiz, yog' shishadan toshib chiqa boshlaydi.*

*Bu misollarning hammasi jismlarning issiqdan kengayishi va sovuqdan torayishini ko'rsatadi. Bu deyarli barcha jismlarga xos xususiyatdir. (V.N. Suslov.)*

Muallif ilmiy-ommabop matnning boshlanish qismida ifodali so'zlar, tasviriy detallar va tilning boshqa xilma-xil stilistik vositalari yordamida o'quvchini o'zining asosiy maqsadi sari yo'naltiradi. So'ngra ma'lum ilmiy mavzuning (jismlarning issiqdan kengayishi va sovuqdan torayishi) xususiyatini turli xil misollar yordamida tushuntiradi. Matn oxirida esa muallif o'z kuzatishlari asosida soddagina umumlashtiruvchi xulosa chiqaradi, fikrni ilmiy stilga xos aniq va ravon shaklda tugallaydi.

Maxsus sohalarida, xususan, fan, texnika, san'at, siyosat, diplomatiya sohalarida ham hamma narsa borliqni faqat mantiqiy jihatdan bilishga qaratilganligi sababli ular so'z va atamalarning nihoyatda ravshan, aniq bo'lishini talab qiladi. Lekin atamalar qanchalik to'g'ri tanlangan va ravshan, aniq anglashiladigan bo'lmasin, ularni u yoki bu qoidani ta'riflash jarayonida qayta-qayta takrorlayverish ham ma'lum darajada stilistik monotonlikka (bir xillikka, bir tarzdalikka) olib keladi. Stilistik monotonlik matematika yoki fizika fanlarida unchalik sezilmasa-da, lekin



biologiya, geologiya, ayniqsa, tarix va filologiya fanlarida ochiq ko'rinib turadi. Shuning uchun ham biror qat'iy ilmiy qoida va ta'rifni yorituvchi olimlar oldida ko'pincha ilmiy bayonning jiddiyligiga xalal etkazmaydigan va ilmiy stilni jonli va ta'sirliligini ta'minlaydigan atamalarning sinonimik ekvivalentini topish masalasi turadi.

### Ilmiy stilning til xususiyatlari

Ilmiy nutqning sintaktik qurilishi ham o'ziga xos bo'ladi: gaplar o'rtasida biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi bog'lovchilardan keng qo'llaniladi. Fikrlar izchilligini saqlash uchun *demak, xullas, shunday qilib, ma'lumki, ya'ni, binobarin, fikrimizcha, ko'rinadiki, masalan, jumladan* kabi lug'aviy vositalar, uyushiq bo'laklar, qavsga olingan kiritmalar, izohlar va shularga xos tinish belgilari ishlatiladi: ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, nuqta ko'p ishlatiladi.

Bulardan tashqari gaplarda ortiqcha tasviriylikka e'tibor berilmaydi, fikrlar iloji boricha qisqa, lo'nda va mantiqli ifodalanishi lozim. Shuning uchun ham, gaplar tilning badiiy tasvir vositalaridan xoli bo'ladi. Unda obrazli frazeologik birikmalar emas, balki o'ziga xos turg'un birikmalar ishlatiladi: *isbotlab bermoq, o'rinli ishlatilmoq, shunday bo'lishiga qaramay, uning fikricha, xulosa qilib shuni aytish mumkinki* kabilar.

Ilmiy uslubda tadqiqot xarakteriga bog'liq ravishda raqamlardan foydalanish ham xarakterlidir. Ular tasniflashda, isbotlashda, dalillashda juda keng qo'llaniladi.

Masalan, *-chi* affiksi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi.

- 1) *negizda anglashilgan narsani yasovchi shaxs ma'nosini ifodalaydi...*;
- 2) *negizdan anglashilgan narsani yurgizuvchi shaxs ma'nosini ifodalaydi...*;
- 3) *negizdan anglashilgan narsani sotuvchi shaxs ma'nosini ifodalaydi...* (Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., 1980, 176-177-бетлар.)

*So'roq gaplar, so'zlovchining qanday javob kutishiga qarab ham*

*turlicha tuziladi:*

1. *So'roq gaplarda so'zlovchi javobining qanday bo'lishini oldindan tasavvur qilolmaydi.*
2. *So'roq gaplarda javobning ijobiy bo'lishiga shubha bildiriladi.*

*Olmoshlar ma'nosiga ko'ra 7 turli bo'ladi:*

1. *Kishilik olmoshlari;*
2. *Ko'rsatish olmoshlari;*
3. *O'zlik olmoshi...kabi.* (Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., 1992, 303-бет)
4. Ilmiy uslubda ko'proq fe'lining majhul va aniqlik nisbati shakllari qo'llaniladi. Bu nutqda affikslarning almashinib qo'llanishlari: *ketdikni-ketamizmi, o'tirsinar-o'tiring, borib edimmi-borgan edimmi* kabilar. Bularning ko'rinishlari turlicha bo'lib (sinonimlarini keltirish, boshqa maqsadlarda o'rinlarini almashtirish, variantlarini qo'llash kabilar), ilmiy uslubda bunga yo'l qo'yilmaydi. Umuman affikslarning kuchaytiruv, ta'kid, bo'rttirish, emotsionallik ifodalovchi ko'rinishlari deyarli ishlatilmaydi. Jumladan, *-lar* affiksi badiiy uslubda yoki jonli so'zlashuvda *boshlarimga, shunchalar, Toshkentlargacha, bellaringacha, dadamlar, o'tirsinar, keldinglarmi, ko'zlar suzildilar* tarzidagi ko'pgina so'zlar tarkibida har xil vazifalarni bajarib, har xil ma'nolarni ifodalab kelgani holda, ilmiy uslubda, asosan, ko'plikni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Ilmiy uslubda baho shakllari, sinonimlar, ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalovchi so'zlar, tasviriy so'zlar (undov, taqlid) ishlatilmaydi: bu nutqda faqat *yuz* yoki *bet* so'zi ishlatiladi. *Oraz, chehra, visol, jamol, turq, aft, bashara* kabi o'sha so'zlarning sinonimlari qo'llanilmaydi. Jonli so'zlashuvga xos bo'lgan muomalamunosabatni ifodalovchi (so'kish, hol-ahvol so'rash, boshqa munosabatlar) so'zlar ham umuman ishlatilmaydi.

Xullas, ilmiy nutq adabiy nutq ko'rinishining alohida bir shakli bo'lib, bunda individuallik ham sezilmas darajaga boradi. Uning o'ziga xos xususiyatlari ana shuni taqozo qiladi. Faqat ilmiy-ommabop nutq shakllarida ma'lum individuallik yaqqolroq sezilishi mumkin. Ya'ni ilmiy nutqda ham ma'lum darajada qolipga solinganlik kuzatiladi. Ilmiy uslub tilshunos M.Mukarramov to'g'ri



ta'kidlaganidek<sup>54</sup>, murakkab tipdagi qo'shma gaplarning ko'p ishlatilishi bilan, ayniqsa, xarakterlidir. Shunday qilib, ilmiy uslub insonning uni o'rab turgan borliq bilan munosabatini, shuningdek, jamiyat, ijtimoiy hodisalar bilan munosabatini ifodalaydi. Bu nutq shakllari ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, ana shu munosabatlarni ta'minlash maqsadida yuzaga keladi.

<sup>54</sup> Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Т., 1981.

## PUBLITSISTIK NUTQ STILI

Publitsistik uslub jamiyat faol a'zosining ijtimoiy-siyosiy hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Har qanday jamiyatning u yoki bu faol a'zosi o'zi yashab turgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotiga befarq qaramaydi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Bu munosabat til vositalari, ularning imkoniyatlari asosida o'z ifodasini topadi. Ana shunday munosabatini ifodalashni ta'minlash uchun xizmat qiladigan nutq ko'rinishlari publitsistik nutq hisoblanadi.

*Publitsistika* so'zi lotincha bo'lib – ijtimoiy yoki xalq, ijtimoiy xalqchil degan ma'nolarni bildirgan<sup>55</sup>. Publitsistik uslub ko'rinishlari ijtimoiy taraqqiyotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo'la boshlaganligini, bu ko'rinishlar qadimgi notiqar nutqlarida namoyon bo'lganligini olimlar ta'kidlaganlar. Keyingi taraqqiyot og'zaki nutqlarningina talabga to'la javob bera olmasligini ko'rsatdi. Xalq ommasini siyosiy va tashkiliy jihatdan uyushtiruvchilik, harakatlantirish qudratiga ega bo'lgan alohida yozma nutqqa ehtiyoj tug'ildi.

Matbuot nutqi odatda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy, adabiy-tanqidiy mavzulardagi ommaviy nashrlarda, ijtimoiy-siyosiy jurnallarda, barcha gazetalarda, notiqarlarining nutqlarida, radio va televideniya chiqishlarida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ana shularning nutqi matbuot nutqi sifatida tan olinadi. Gazeta nutqi matbuot nutqining hozirgi kundagi eng asosiy ko'rinishidir. Chunki gazeta nutqida ommaga murojaat qilish, undash, qiziqtirish, rag'batlantirish, uyushtirish - umuman olganda, ta'sir etish etakchi o'rinda turadi. Ommaning faolligini oshirishda u nihoyatda tezkordir. Bunga sabab uning ommaviyligi, tez etib borishi, tushunarligi, aniq-lo'ndaligi, hayot bilan hamnafasligidir.

Publitsistik asarlarning (masalan, xabar, reportaj, korrespondensiya, maqola, ocherk, feleton, pamflet, bosh maqola va boshqalarning) uslubiy chegaralanishi ularning, eng avvalo, alohida

<sup>55</sup> Тожиёв Ё. ва бошқалар. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Т., 1994, 72-бет.



lisoniy belgilarga ega ekanligida ko'rinadi. Ana shu lisoniy belgilar o'zbek tilining publitsistik asarlarda amal qilishida ma'lum ma'noda yopiq sistema mavjud ekanligiga dalildir. Bu yopiq sistema, ya'ni chegaralanish publitsistik asarlar tilining uslubiy o'ziga xosligi bo'lib, o'zbek tili vazifaviy uslublari doirasida publitsistik uslub nomi bilan yuritilishiga imkon beradi.

Xo'sh, til birliklarini qo'llashda o'ziga xos sistemani tashkil etuvchi publitsistik uslub qanday alohida lisoniy belgilarga ega va uning boshqa vazifaviy uslublarga aloqadorligi nimada?

Eng avvalo, bu uslubning boshqa vazifaviy uslublarga aloqadorligini ko'rib o'taylik. U til birliklarining obrazlilikni, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishga xizmat qilishiga ko'ra badiiy nutq uslubiga; ifodaning lo'nda va aniqligi hamda atamalarning faol qo'llanilishi bilan esa ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko'tarib chiqishi, tahlil usuli, mantiqiy davomlilik, kitobxonni ishontirish kuchi, ijtimoiy masalalarni hal etishga undashning kuchlilik, o'ziga xos atamalarning qo'llanilishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning xarakterli o'xshash tomonlaridir.

Publitsistik va badiiy uslubning ham o'xshash tomonlari bor. Har ikkala uslubda ham emotsionallik, ekspressivlik, obrazli ifodalar, tasviriy vositalar, badiiy til imkoniyatlaridan foydalanishga intilish kuchli.

So'z va atama siyosiy ma'nosining badiiy uslub unsurlari bilan qorishgan, uyg'unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqni yanada kuchaytiradi va uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, publitsistik uslub boshqa uslublardan jiddiy farqlarga ham egaki, bu farqlar uning o'ziga xos lisoniy belgilaridadir. Adabiy tilimizning boyishida publitsistik uslubning roli katta. Chunki ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ro'y beradigan voqea-hodisalar, odatda, birinchi navbatda publitsistik asarlarda o'z aksini topadi.

Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 16 yilligini Marhamat tumani aholisi o'ziga xos tuhfa bilan qarshi oldi. Shukuhli kunlar arafasida tuman markazida yana bir yirik sanoat korxonasi – «Marhamat ip-yigiruv to'quv» ochiq aksiyadorlik jamiyati ishga tushirildi. Ushbu jamiyat tashkil etilmasdan avval bu erda qariyb 30 yil oldin asos solingan sobiq ip-yigiruv fabrikasi faoliyat ko'rsatadi. Biroq vaqt o'tishi bilan ana shu fabrikadagi uskuna va jihozlar eskirib, uning

ishlab chiqarish jarayoni bugungi kun talablariga jaob bermay qolgandi. Davlatimiz rahbarining 2006 yil 13 noyabrdagi «2006-2008 yillarda to'qimachilik sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish va texnikaviy qayta jihozlash dasturi to'g'risida»gi Qaroridan so'ng bu erda aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yangi korxonalar barpo etildi. (Zamoneviy korxonalar – taraqqiyot garovi «Xalq so'zi» gazetasi, 2008 yil 16 dekabr, 242-soni).

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qilish va keng xalq ommasiga etkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi orqali kishilar ongiga ko'proq ta'sir etadi.

Bu uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik (lakonizm) markaziy o'rnlardan birini egallaydi, ya'ni qisqa, lo'nda, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi.

Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o'rin egallaydi. Chunki gazeta va publitsistika bir-biri bilan chambarchas bog'liq. SHU bilan birga, gazeta uslubi publitsistik uslubning bir tarmog'i hisoblanadi.

Gazeta ijtimoiy hayotning turli-tuman sohalari to'la qamrab oladi. Ikkinchidan esa, uning sahifalarida xabardan tortib (maqola, reportaj, ocherk, bosh maqola, e'lon...) badiiy asarlardan parchalargacha beriladiki, bu ommaning barcha tabaqalariga ta'sir etishning, barchasiga tegishlilikni, tushunarlilikni ta'minlaydi.

Publitsistik uslubning o'ziga xos belgilaridan yana biri shundaki, unda ba'zi grammatik vositalar, ravishdosh, sifatdosh oborotlar, fe'lning shart mayli shakllarining almashilib ishlatilishi, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning qo'llanilish darajasi boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan ustunroq (bularning qo'llanilishi lisoniy vositalarning chastotasi orqali belgilanadi). Tilning bu vositalari publitsistik uslubda o'zining uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### Publitsistik nutqni yuzaga keltiruvchi lingvistik omillar

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy atamalarni o'zida mujassam etishi (xabar, ma'ruzalar, turli chiqishlar, raportlar, tabriknomalar, qarorlar, hukumat notalari) bilan rasmiy ish-qog'ozlari uslubiga yaqinlashgandek bo'ladi. Rasmiy-ish qog'ozlari uslubiga xos so'z va atamalar publitsistik uslubda ham uchrab turadi, ba'zilari esa faol



(intervyu va reportajlarda), u muallif nuqti bilan aralashdirilmaydi. O'zini ko'rgan gap (nuqt) unsurlari publisistik uslubda juda kam qo'llaniladi. Shunday qilib, sof hisoniy omillar muallif nuqtai nazarini to'g'ri va ochiq oydin ifodalashga imkoniyat yaratadi. Qayd qilish lozimki, qo'llanilgan til birliklari boshqa vazifaviy uslublarda ham mavjud. Masalan, ilmiy va rasmiy ish qog'ozlari uslubidagi turg'un til birliklari va vositalariga nazar tashlasak, ularda rasmiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar (*ko'rsatib o'tildi, ko'rib chiqildi, lavozimidan fodalovchi birliklar*) (*ko'rsatib o'tildi, ko'rib chiqildi, lavozimidan fodalovchi birliklar*), ilmiy uslubda murakkab belgi va hodisalarni ifodalovchi turg'un birliklar (*predikativ birliklar, isbotlab bermog, o'rinli ishlatmog*) ishlatiladi. Shu tariqa har bir uslub o'ziga xos turg'un til birliklariga ega. Publisistik uslubda quyidagi turg'un vositalar ko'p ko'zga tashlanadi: *gohl to'ntarish, vaziyatni kestantlashtirish, ilg'or an'analarga sodiqlik, styosiy iqlimni normallashtirish, ilg'or iqtisodlarni keng joriy qilish, resurslardan samarali foydalanish, intensiv rivojlanish yo'li, ishlab chiqarish potentsiali, ratsionalizatorlik harakati, iqtisodiy tejamkorlik va boshqalar.*

Publisistik uslubning belgilaridan yana biri unda baho munosabatini ifodalovchi so'zlar va doimiy epitetlarning keng qo'llanilishidir: *munosib* (ulush), *tarixiy* (o'zgarishlar, voqealar), *har tomonlama* (munosabat, taraqqiyot), *og'ishmay* (amalg oshirish), *do'stona* (*suhbat, uchrashuv*), *fidokorona* (mehnat), *vilkan*, *buyuk* (ushooq, ishlar).

Publisistik nuqtaning turli janrlarda badiiy nuqtga xos tantanavor so'zlar yoki so'z birliklari ishlatiladi: *iyodkor yoshlar, muhiasham, ulug'vor, zafar guchmog, bukiimas, irodal, barkamollik, shiyokkorlik* Shuningdek, publisistik nuqtaning o'ziga xos xoslangan salbiy ma'no o'tenakali birliklar ham mavjud: *jinojatchilar to'dasi, talon-taroj, o'g'irlik, gohlilik, tekinox o'rik, eskilik sarqillari, surbelik va boshqalar.*

Publisistik uslub morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi. Morfologik xususiyatlaridan biri so'z yasashida ko'zga tashlanadi. Bu uslubda so'z yasash, asosan, ikki yo'l bilan: a) rus tilidan gabul qilingan so'zlar tarkibidagi qo'shimchalar o'zbek tilidagi qo'shimchalar bilan almashirish yoki moslashtirib olinishi (*samosa + chi, sandino + chi, seprat + chi, monopoliya + chi, propaganda + chi, militarist + larcha, reygan + cha*), ichki imkoniyat

qo'llanishi ham mumkin. Masalan, umum isle'moldagi «*ovoz*» so'zi keyingi paytlarda rasmiy ish qog'ozlari uslubini uchun xarakterli bo'lib qo'llanilgan so'zlardandir: *ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, mastahat ovoz, ovoz bermog* (golosovot), *ovozga qo'yimog, qarshi ovoz va boshqalar.* Ana shu «ovoz» so'zi publisistik uslubda o'ziga xos vazifani bajaradi, ya'ni semantik stilistik doirasi kengayadi: *Hamid Olimjon o'zbek adabiyotida o'ziga xos publisistik ovozga ega; Bu eshittirayotgan ovozlar qator yillardan beri o'z haq-huquqi uchun kurashayotgan vatanparvarlar ovoztir.* (Gazetadan.)

Publisistik uslubda til vositalaridan foydalanishda muallifning individual uslubiy deyarli ajralib yoki sezilib turadi. Ayniqsa, bu holat ocherk, pamiyet, feteton, badiiy-publisistik maqolada tez ko'zga tashlanadi. Badiiy uslubda ham bu holat mavjud. Lekin rasmiy ish qog'ozlari uslubida esa bunday xususiyat yo'q.

Publisistik uslubning xarakterli belgilaridan biri nuqtaning ko'pincha I shaxs nomidan ifodalanshidir. Ma'lumki, badiiy uslubda (hikoya, qissa, roman va boshq.) hikoya yoki bayon qilish odatida III shaxs nomidan baxariladi (I shaxs nomidan bayon etish kam). ya'ni bayonning III shaxs tomonidan ifodalansh muallifning pozitsion imkoniyatini ancha kengaytiradi. Shuningdek, roman, qissa yoki hikoyadagi muallif nuqti, odatda, muallifning «shaxsiy» nuqti emas. Bunday payda muallif u yoki bu darajada personaj tili unsurlarini qo'llashni mumkin. Publisistik uslubda ham alyon-alyonda, o'rin bilan bayon III shaxs tomonidan ifodalamaadi. Lekin bundagi bayonning mohiyati, mazmuni va vazifasi boshqacha bo'ladi. Publisistik uslubdagi «men» bu muallif niqobi yoki uslubiy maqsad emas, balki ifodalanganoygan, berlayotgan xabarning kishilarga, o'quvchilarga ochiq etkazish imkoniyatiga ega bo'lgan haqiqiy muallif «men»dir. Masalan: *Go'linda Vatam urushi davridan xotira sifatida bir surat saqlanmogda. Xoyol meni beixiyor 1943 yil avgustidagi Moskvaga etaldaydi. Aksariyatimizning egnimizda oxotir to'kilmogam forma — endigina yangi pogoni taqamiz...* (M. Muhamedov. «Bir surat (tarixi).»)

Be'zi hollarda «men» o'rnida «biz» shakli ham qo'llaniladi. Publisistik uslubda, odatda, taqat birgina muallifning nuqti bayoni mavjud bo'ladi. Agar ba'zi hollarda ko'chirma gap qo'llanilsada



ra'vshanshib ketmasligi mumkinmi?

shaklida bo'ladi, ya'ni savol beruvchi ham, javob beruvchi ham muajjilning o'zi bo'ladi: *Shu sharafli, surubaxsh ayomda har birimizning qalbimiz g'onun'y & wurga to'lmashi mumkinmi? Shonli mehnamiz va surunkasiga davom etib kelayotgan zahmatimiz shu darajada shavkalli yakunlarga olib kelganimi ko'rgan har ko'z yamada*

Dialogning bu shakli asosan publitsistik uslubga xos bo'lib, bunday paytda u publitsist tomonidan ma'lum bir vazifani bajarishga masalan, o'quvchi diqqatini ifoda etilayotgan fikrga yanada jalb qilishga xizmat qiladi. Bu uslub go'llanilgan savol-javob shaklidagi gaplar ko'pincha zanjirli tarzda bo'ladi va javobning deyarli ko'pchiligi *ha, yo'q* so'zlari bilan boshlanadi. Bu bilan publitsist ifoda etilayotgan voqea-hodisaga o'quvchining e'tibori yoki salbiy munosabatini oshirishga hamda voqelikning haqoniyligini ta'minlashga erishadi. Ba'zi hollarda publitsist berilgan savolga javob aniq chiqishi uchun ta'kid yuklamalari ishrok etgan gaplardan foydalanadi. U bir nechta gapda ketma-ket ifodalanaadi. Masalan: *Bizning do'stligimizning kuchi nimada? Bizni birtimzga mahkam bog'lagan, birlashtirgan narsa nima? Bizning do'stligimizni buzilmas qilgan narsa nimadir? Bu do'stlik natijasida erishgan ozodligimizdirki, bizning undan ajralgimiz va hech kimga boy bergimiz kelmaydi. Bu bizning uzog' yillik mehnat bilan topgan baxtimizdirki, biz uni yo'qotishni istamaymiz. Bu bizga dunyoni tanigan va bolalarimiz tarbiya topayotgan maktablardirki, biz ularni berkitmog'chi emasmi...* (H. Olimjon.)

2. Uvushiq bo'lakli gaplar keng go'llaniladi. Bunday paytda publitsist tomonidan bir gap bo'lagiga xos bo'lgan so'zlarning uyushgan holda ishlatilishi ma'lum maqsad kasb etadi, ya'ni o'quvchi diqqat-e'tibori shu ifodalalanayotgan voqea-hodisaga ko'proq jalb etiladi. Shu bilan birga, publitsist ifodalalanayotgan hodisaga antipatiya yoki simpatiya bilan qarash uchun shu so'zlarni aynan uyushgan holda go'llaydi. Ma'lum nuqtai nazar bildiradi. Aytim ephetlar ketma-ket uyushgan holda go'llanishi vositasida ifodalalanayotgan fikr bo'rtirib ko'rsatiladi, publitsistik ruh bag'ishlanadi. Masalan: *O'sadigan yosh avlodning bilimdon, tarbiya, odobli, imizomli, irodali, axloqli, sadog'ali, o'qiyandob bo'lib tarbiyalanishiga san'atkorlik qitish — maorifi-madaniya xodimlarining, fan va san'at arboblarning sharafli*

yoramida, ya'ni yangi so'z yasaliishi (*davlat+xona, paxta + chi, qurtuloy + chi, dil + dosh, go'l + dosh, paxta + shunos, omlikor + lik*) tufayli hosil bo'lmog'da.

Yasovchi go'shimchalari orqali publitsistik uslubda ko'chma ma'no ham hosil qilinaadi: *davlatxona*—hukumat uyi, *ro'znomaxona*—ro'znomani muharririyati, *baxtona*—baxt uyi, *da'valxona* - hukumat notasi, *musibatxona*—ayanchi o'timishimizni aks etiruvchi tarixiy asar, *bavkaxona*—tug'ruqxona, *ziyokorlar*—o'qituvchilar, *shaharsozlar*—quruvchilar va hokazo.

Yangi yasalgan fayqulodda (okkazional) ma'noli she'riy so'zlarning publitsistik uslubda go'llanishi natijasida bayon etilayotgan fikrga ekspressivlik, emosionallik bag'ishlanganligi va uning ta'sir kuchi oshganligini ko'ramiz: *asrdosh, dildosh, go'ldosh, jahoniy, family, azimkor, hissador, urushboz, charog'bon* va hokazo.

Publitsistik uslubda mavhum ma'noli o'lasovchi -lik go'shimchasi orqali yasalgan so'zlar anchagina, ular ko'pincha ushbu uslubning bosh maqola janrida, siyosiy publitsistik maqolalarda ko'p go'llaniladi: *ilg'orlik, peshqadamlilik, omlikorlik, bunyodkorlik, tashabduskorlik, unumdorlik, ishchanlik, tyranchlik, vatandarparvarlik, faollik, hamkorlik, go'poruvchilik, murvasosozlik, sobiqadamlilik, mahalliychilik, og'machilik* va hokazo.

Publitsistik uslubda og'zaki-so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan elliptik gaplar, qurtimalar ko'p go'llaniladi. *Musobaxaga keng yo'll, Mehmat zafarlarmiz — shonli yubileyga, Tabiat boyliklari — el xizmatida, Qishloqliklar — shaharliklarga, Yangi muvaffaqiyatlar sarfi* va hokazo.

1. So'roq gaplar ko'p ishlatiladi. Bunda uslubiy maqsad ko'zda tutiladi. Masalan: *Men uning erini javohir, tuprog'ini olin dedim. Xo'sh, bizning shu muhabbatimizga, ixlos va sadog'atimizga bu er nima bilan javob beradi? Uylarimizni xarob, dillarimizni xunob etgami bilimmi? Bu — sen, umring bo'yi mehr go'ygam, xizmat qilgan sevgingni kalmagan mahalingda gayritib senga bir tarsaki tushirishga o'shamaydismi? Ha, albat, o'xshaydi. (M. Shayxzoda.)*

Ko'pincha publitsistik uslubda so'roq gaplar murojaat va dialog



*burchi!* (M. Shayxzoda.)

3. Undov gaplar ko'p ishlatiladi. Publitsistik uslubda qo'llanilgan undov gaplar kishilarni kelajak sari undaydi, yangiliklar yaratishga, jamiyatni yanada rivojlantirishga, mehnatkashlarni yangi mehnat zafarlariga erishishga chaqiradi. Bunday gaplar ko'pincha publitsistik maqolalarning, bosh maqolalarning oxirida qo'llaniladi. Hukumatimizning chaqiriqlarining deyarli barchasi undov, murojaat gaplardan iborat bo'lib, xalqni ruhlantiruvchi publitsistik kuch ularda balqib turadi. Publitsistik uslubda qo'llanilgan undov gaplarning ayrimlarida buyruq ma'no aniq sezilib turadi. Shuningdek, murojaat ma'nosida ham bo'ladi.

4. Kirish bo'lakli, kirish qurilmali gaplar keng qo'llaniladi. Ayrim publitsistik maqolalarda ishtirok etgan gaplarning deyal ko'pchiligi kirish bo'lak bilan boshlanadi. Fikrni tasdiqlovchi va ijro etuvchi *ha, yo'q* so'zlari, *albatta, modomiki, mana, masalan, ehtimol, birinchidan, chunonchi, ko'rinadiki, singari* ko'rsatish olmoshlari, modal so'zlar kirish bo'lak sifatida kelib, ifodalangan fikrni reallashtirishda xizmat qiladi. Masalan: *Ha, biz o'z paxtamiz bilan faxrlanishga, bundan ziyoda esa paxtakorlarimiz bilan iftixor qilishga sazovormiz.* (M. Shayxzoda.) *Afsuski, bizning planetamizda unda yashashga haqi bo'lmaganlar ham bor.* (V. Zohidov.)

*Xullas, erk desa o'lim yubordilar, shifo desa zahar tutdilar,*

*Non desa o'q uzdilar, odamiylik va adolat, maktab va ma'rifat deganda er qa'riga uloqtirdilar.* (V. Zohidov)

5. Shaxsi umumlashgan gaplar ko'p ishlatiladi. Bunda ko'pincha publitsist ikkinchi shaxsga murojaat qilgandek tuyuladi. Aslida esa II shaxs orqali u butun ommaga murojaat qiladi. Ayrim publitsistik maqolalar deyarli shaxsi umumlashgan gaplardan iborat bo'ladi. Bunga misol tariqasida Hamid Olimjonning «*Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman*» publitsistik maqolasini keltirishimiz mumkin: *Vatan uchun jangda jon olib, jon berayotgan o'zbek yigiti, bizni eshit! Sening Vatanning bukun Amudaryo bilan Sirdaryo orasidagina emas... Vatan urushining ko'z ilg'amas frontlarida bukun sening qadaming tegmagan er yo'q... Sening kindigingning qoni tomgan er muqaddas. U erlarni dushman xarom qilibdi ekan, sen uni o'ldir. Sen uni o'ldir — buning uchun sen hech kim oldida javobgar bo'lmaysan... Sening xalqing*

*tog'day bo'lib orqangda turibdi...* (H. Olimjon).

Keltirilgan bu misolda publitsist go'yo ikkinchi shaxs — o'zbek jangchisiga murojaat qilgandek tuyuladi. Ana shu ikkinchi shaxs orqali u butun jangchilarga, soldatlarga, shu bilan birga, xalqqa murojaat qilmoqda.

Bundan tashqari matbuot nutqida to'liqsiz gaplarning alohida ko'rinishlari ko'p qo'llaniladi. Sarlavhalarning tuzilishi ham o'ziga xos tarzda ana shunday gaplardan iborat bo'ladi: *Xitoy mo'jizasi, Vengriyaga jo'natildi, Hayriya uchun to'rt million so'm, Tinchligimiz — mehnatdan, Bobur uy-muzeyida, Yagona oila farzandlarimiz, Yubileyga atab, Bayramingiz qulug' bo'lsin, aziz opa-singillar! kabi.*

Xullas, matbuot nutqi o'z vazifasining keng qamrovliligidan kelib chiqqan holda, imkoniyatlarining nihoyatda kengligi, adabiy tilning barcha imkoniyatlaridan foydalana olishi, boshqa barcha nutq ko'rinishlarini o'zida mujassam etganligi, tezkorligi, hozirjavobligi va adabiy til taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsata olishligi kabi ko'p xususiyatlari bilan ajralib turadi.



## NOTIQLIK STILI

«Notiqlik, asosan, ko'tarinki ma'noli so'z va so'z birikmalari, ritorik so'roq gaplar, murakkab qo'shma gaplar vositasi bilan ifodalanadi. Notiqlik uslubi tarixan mustaqil uslub bo'lib kelgan»<sup>36</sup>.

Notiqlik – og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirchan etkazish malakalarini egallash haqidagi tushunchalarni ifodalovchi uslubning bir ko'rinishi. Notiqlik ijtimoiy hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladi. Notiqlikning ijtimoiy-siyosiy notiqlik, sud notiqligi, akademik yoki ilmiy notiqlik, diplomatik notiqlik, harbiy notiqlik, marosim, urf-odat notiqligi kabi janr ko'rinishlari mavjud.

Notiqlik tarixiy voqelikdir. Har bir davrda shu davr minbarida yuqoridagi ijtimoiy-siyosiy yoki diplomatik mazmundagi, rasm-odat mazmunini aks ettiradigan matnlarni xalq oldida o'ziga xos ohang bilan so'zlab beruvchi notiqlar mavjud bo'lgan.

Notiqlik usulbida uning o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlari mavjud. Notiqlik eng qadimgi san'at turlaridan biri sifatida shakllanib, davrlar o'tishi mobaynida rivojlanadi. Notiqlik dastlab Misr, Ossuriya, Vavelon va boshqa qadimiy davlatlarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, asosan, Yunonistonda rivojlanadi.

Notiqlik uslubining notiqlik san'ati tarzida shakllanishi va rivojlanishi qadimgi Gretsiyaga borib taqaladi. Bu erda notiqlik san'atining o'sishiga sabab bo'lgan asosiy omil Afina va boshqa davlatlarni qamrab olgan sinfiy kurshning kuchayishidir. Notiqlik san'atining paydo bo'lishi har bir sinf siyosiy arboblarning o'z sinfiy manfaatlarini boshqa ijtimoiy guruhlar oldida himoya qilishga va ta'sir etishga qarata aytilgan nutq ko'rinishlari holida namoyon bo'ladi. O'sha davrlarda Yunonistonda u yoki bu shaxsning siyosiy taqdiri uning notiqlik nutqiga ega bo'lishi va bu nutqni mahorat bilan ifodalay olishiga

<sup>36</sup> Абдурахмонов Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг услублари ҳақида. Ўзбек тилишунослигининг долзарб муаммолари // Академик Ғанижон Абдурахмонов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари. ПФаргона, 2005, 7-бет.

bog'liq bo'lgan. Notiqlik uslubining bir turi hisoblangan siyosiy notiqlikning yuzaga kelishi qadimgi Yunoniston va Rimda siyosiy mavzudagi notiqlik nutqining mahorat bilan ijro qilinishi orqali bo'ldi. Siyosiy notiqlik, savdo notiqligi, sud notiqligi, qadimgi notiqlikning shakllanish mezonini sifatida qaraladi. O'sha davrning buyuk notig'i Siseronning aytishicha, insonni oliy darajaga ko'taruvchi ikki san'at bor. Bu san'atlar uning yaxshilab o'ylab tuzilgan nutqi orqali namoyon bo'ladi. Biri yaxshi harbiy sarkarda san'ati, ikkinchi yaxshi notiq san'ati. U davrlarda hamma ham sudda yoki savdoga doir o'zaro muomalalarda yaxshi so'zlay bilish usulini egallay olmagan. Eramizgacha bo'lgan davrlarda Solonom hukumronligi davrida chiqarilgan qonunga ko'ra, Afinalik har bir fuqaro o'zini-o'zi himoya qila bilishi kerak edi. Bu hol kishilarni chiroyli va to'g'ri gapirishga, nutqni to'g'ri tuza bilishga va uni ta'sirchan ifodalashni o'rganishga majbur qildi. Natijada, Yunonistonda ommaga yoki fuqarolarga nutq matnlarni yozuvchilar – logograflar, mohir notiqlar, huquqshunoslar sud qilinuvchilardan haq olib, nutq matnlarini yozib bera boshlaydilar. Nutq matnlaridagi har bir ishlatilgan til birligi gap tuzilishi qoliplariga to'g'ri kelgan va ta'sirchanlikni ifodalay olgan bo'lishi lozim edi. Sud qilinuvchilar bu matnlarni o'rganib, sudda o'zini himoya qilganlar, gapirishga qobiliyatsiz kishilar esa sudning ruxsati bilan o'rniga boshqa kishini so'zlash uchun tavsiya qilganlar.

Shu tariqa qadimgi Yunonistonda maqtov notiqligi vujudga keldi. Bunday notiqlar ko'proq tantanali marosimlarda nutq so'zlardilar. Yunonistonda notiqlik san'ati yuqori darajada qadrlanar edi. Dastavval, yunonlar nutqning tashqi tuzilishiga, chiroyligiga, ohangdorligiga e'tibor berib, uni baholagan bo'lsalar, keyinchalik uning mazmundorligiga ham alohida diqqat qaratdilar. Shu tufayli, ular kishilarga notiqlik san'atini o'qitish, o'rgatishni birdan-bir vazifa sifatida e'tirof etdilar, maxsus maktablar tashkil etilib, ularda tajribali notiqlar yoshlarga nutq so'zlash malakasini egallash bo'yicha saboq bera boshladilar. SHu zailda, notiqlikning dastlabki nazariyasi – ritorika yaratildi.

Gomerning «Iliada» va «Odissey» asarlarida Yunonistonning mashhur notiqlari haqida, jumladan, Kvintilian Gomer asarlarida chiroyli nutq tuzish, gapirish va nutq so'zlashning mohir nazariyotchisi sifatida qayd etildi. Demak, notiqlik uslubining o'ziga xos qonuniyatlari sifatida



Demosfendan keyin o'zining notqilik mahorati bilan nom chiqargan Aristotel eramizdan oldin 335-yilda notqilik san'ati nazariyasi — «Ritorika» asarini yaratdi. Asarda notqilik va uning o'ziga xos belgilari uch qismda izohlanadi:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo'lgan tamoyillar tahill.
2. Notq uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyat va qobiliyat.
3. Notq nutqida qo'llaniladigan nutq texnikasi, nutq usullari.

Aristotel nutq so'zlash uslubiga alohida e'tibor qaratadi. Aristotelning notq uslub haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. U notq nutqi uslubining joyqaratilishi uning amiliga bilan belgilanadi, deb juda to'g'ri ko'rsatadi. Agar nutq aniq bo'lmasa, notq o'z maqsadiga erisha olmaydi, tinglovchilarga kerakli cha ta'sir eta olmaydi. Tanqil faylasuf, ayrim notqlar nutqida epitel, o'xshatish, metafora va boshqalarning o'rinsiz qo'llanilishini qoralaydi va ularni to'g'ri qo'llay bilish nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytdi.

U nutqning turli tipidan foydalanishni nazarda tutishni talab etadi. Aristotel nutq qurilishi va uning tuzilishini tahill qiladi. U o'z «Ritorika» asarida notqilik uslub va notqilik san'atining besh asosiy tomonini ko'rsatadi va yoritib beradi:

1. Materialni tanlash.
2. Reja asosida materiallarni joylashtirish shakli.
3. Materialning o'zini xotirlash va uni joylashtirish; nutq qurilishini to'g'rilash; notqning nutq materialini o'rganish.
4. So'z bilan ifodalash.
5. Nutqni talaffuz qilish (tasavvur qilish va boshqalar).

Rim notqilik san'ati Gretsiya notqilik san'atining davomi sifatida yuzaga keldi. Rimdagil iqtisodiy va siyosiy o'sishning xarakterli notqilikning yangi ko'rinishlarini yaratdi.

Rimda ham notqilikning, asosan, uch turini ko'rsatish mumkin: sud notqiligi, siyosiy notqilik, maqrov notqiligi.

Rimda urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi. Rimlik notqlardan biri eramizdan ilgari III — II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblaridan Mark Partius Kato notq sifatida nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti masalalari

og'zaki nutq san'ati o'z-o'zini to'g'ri chegaralay bilish, amqilik va gisqalik fazilatlarga ega bo'lish qoidalarini ishlab chiqildi.

Notqlar tabiatidan kelib chiqib ba'zilarining nutqlari vazminlik va hortjamlik bilan, boshqalari esa haroratli va jo'shqin bo'lishi aniqlandi. Yunoniston — lo'nda, jo'zbador nutqning vataniga aylandi. Nutqning asosiy belgisi sifatida fikrni gisqacha, lo'nda qilib ifodalash uslubidagi nutq ko'rinishining qoidalarini ishlab chiqildi.

Notqilik san'atini rivojlana borshi uning bir qancha tamoyillarini va usullarining kashf etilishiga, notqilik qonun-qoidalarining ishlab chiqilishiga olib keldi. Natijada chiroyli so'zlash nazariyasi — *ritorika* maydonga kela boshladi. Aristotelning fikricha, ritorika fanining birinchi asoschisi Epidokl bo'lgan. Lekin uning bu sohadagi ishlarini bizgacha eta kelmagan. Bu davrda yuqoridagicha chiroyli va jo'zballi nutqni «ishonituvchi xizmatkor» deb ta'riflaganlar.

Notqilikkda fikrni yangicha shaklga solinish usulini o'sha davr sud notqlaridan biri Lisiy qo'lladi. U nutq matnini yozib berar ekan, gapirishi lozim bo'lgan kishining tabiatini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnlarini tayyorlashga harakat qiladi. U har qanday voqealarni sodda, jonli, qiziqarli shaklda hikoya qilishga usta edi. Shu bilan birga, uning uslubidagi amqil, soddalik va tabiiylik nutq matnlarining ishonarliligiga va tabiiyiligiga olib kelardi. Bundan keyingi davrlarda notqilik mahoratini yaxshi egallagan Demosten o'z nutqlarida kuchli vatanparvarlik tuyg'usini ifoda etadi. U o'z nutqlarida makedoniyalik shoh Filippning adolatsiz ishlarini qoralaydi va uni Afna davlatining birdan-bir dushmani deb bilar ekan, a'fnalikalarni dushmaniga qarshi birlashishga chaqiradi.

Demosten nutqlarining juda ham jo'shqin va shiddatkorligidan, dushmanlari uni «yo'voyl hayvon» deb atashardi. U nutq so'zlashda maksimal ifodalilikka erishishga harakat qilardi. O'sha davr yozuvchilaridan biri Demosten nutqini xarakterlab, shunday deydi: «Demosten nutqlari bir vaqtning o'zida ham dabdabali, ham sodda, ham Favqulodda, ham oddiy, ham shirin, ham achchiq, ham jiddiy, ham bebosh, ham quvnoq, ham vazmin edi»<sup>57</sup>.



Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom)larni joylashtirishni va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm martiq (logika)dir: ma'lum xulosalar kelitirib chiqarish uchun logik figuralariga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. bu xulosalar yordamida biz bilimagan narsalarimizni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz»<sup>59</sup>.

Forobiyning aytishicha, mantiq shunday bir san'atki, kishi notqildan adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aqli yordamida biror xulosa chiqariladigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatikaning tuga munosabati kabidir.

Nutq va notqilik san'atida mantiq va grammatikaning ro'liga berilgan bunday baho nazariy jihatdan katta qimmatga bo'lib, nutq tuzishda grammatika belgilab bergan qoidalariga rioya qilish, nutqni ham grammatik ham ustubiy jihatdan to'g'ri tuzish qonun-qoidalarni belgilaydi. Bu holat notqilik san'ati taraqqiyotida muhim ro'l o'ynagan.

Forobiy axloqii kishilarning o'n ikki muhim sifatini ko'rsatadi va shundan beshinchisi sifatida tilga olgan notqilik uslubini haqida gapirib: «so'zlarni aniq bo'lsin», fikrni va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olsin»<sup>60</sup>, - deydi. Forobiyning chiroyi, tartibi, ta'sirchan qilib so'zlash masalalari haqidagi ba'zi mulohazalari ritorika, poetikaga oid asarlarda uchraydi. Forobiyning o'zi esa, mundaalarda zikr etilishicha, shirin so'z, hozirjavob, har qanday qiyin masalani ham bir zumda hal etib beruvchi faylasuf - notq bo'lgan. Falsafa fanlari doktori M. Hayrullayevning ta'kidlashicha, Forobiy qadimgi grek falsafasi va ilmi bilan juda ko'p shug'ullangan va grek olimlarining, xususan, Aristoteling asarlariga mukammal shahriat yozgan. Qadimgi Gretsiyada bo'shqa fanlar bilan birga ritorika - notqilik san'ati haqidagi fan ham taraqqiy etgan edi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, Forobiyning bu sohaga ham qarashi fikrlari, shahriati mavjud bo'lib, uni o'rganib chiqish muhim masaladir.

O'ra asr sharhining buyuk allomlari orasida mashhur tabib,

<sup>59</sup> Adva Haqir Fopobii. Ficosarap. Fan, -T., 1975, 54-6et.

<sup>60</sup> Adva Haqir Fopobii. Ficosarap. Fan, -T., 1975, 136-6et.

Ummun, qadimgi Yunoniston va Rimning notqilik sohasidagi tajribalari O'ra asr va keyingi davr notqiligi va notqilarning vujudga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

### Qadimgi shargda notqilik san'ati

O'ra Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelganlar. O'sha davrda notqilik san'ati *voizlik*, notqilar *voiz*, nutq esa *va z* deb atalgan.

O'ra Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, etakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. O'ra asr fani, madaniyati Xorazmiy, Farg'omiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Koshg'ariy, Jomiy, Navoiy kabi ulug' siymolarni nomlari bilan belgilanadi.

Bu mutafakkir, shoir, san'atkorlar yashagan davr Sharq tarixida *Uyg'onish davri* deb ataladi. Bu davrda madaniyat, san'at, ilm-fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ'ibotchilari - voizlar etishib chiqdi. Voizlikni qadrlovchi fikrlar vujudga keldi.

O'ra asr Sharhining mashhur va buyuk mutafakkiri, tabobat bilimining asoschilaridan biri Ar-Roziyning «Shohrlarning she'riati, va xzonalarining va z'lari Qur'onga qaraganda ma'noitroq va mantiqiyroqdir»<sup>58</sup>, - degan so'zlardan o'sha davrda xalqlarning din ahllariga, targ'ibotchilarga nisbatan va xzonalarni - voizlarni qanchalik yuqori qo'yganligini va ularni hurmat qilganligini ko'rsatadi.

O'ra Osiyoningina emas, balki Yaqin va O'ra Sharhning mashhur mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ham IX-X asrlarda - iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. U ilming turtli sohalarni mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan buyuk insondir. Notqilik, nutq va aqli tarbiyasiga oid ilmlar to'g'risida Forobiy shunday yozadi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'zlash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchi, jismlarga, ya'ni substansiya va aksidentsiyalariga ism beruvchi til haqidagi ilmlar, deb tasdiqlayman.



shundagina o'tkaziladigan subbatning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lishini aytadi: «Agar bitor kamchilik e'tibordan chetda qolsa, - deydi u, - butun mehmat zoe ketadi va istalgan natijaga olib kelmaydi». Subbat mavzuda e'tibordan chetda qoldirilgan, lekin aytish lozim bo'lgan kamchiliklarni Ibn Sino «sirt tuzalgan, lekin ichidan yitirilab ketgan yara»ga o'xshatadi. «Vaqt bilan yitirga o'xshab kamchilik kuchga kiradi va o'zining yaramas va beqaror qiyofasini ko'rsatadi», - deydi u.

Ibn Sining fikricha, ayniqsa hukmdorlar ana shunday subbatlarga tortilishi lozim. «Odamlar hukmdorlardan qo'riqishi tutaydi, - deydi Ibn Sino, - ularning kamchiligi ko'rsatilmaydi. Buning natijasida ular o'z qilmishlarini ideal deb hisoblaydilar va xulqlari buzila boshlaydi, bu hol davlat ishiga yomon ta'sir qiladi». Ibn Sino o'z davrida xalqchil g'oyalarni ilgari suradi va uni noqilart nuqtida namoyon etilishini istaydi, lekin bunday demokratiyaning yo'qligiga qarshi e'tirozini ko'rsatadi.

Kaykovusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnoma» asarida ham noqlik shaharlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga - noqlikka bo'lgan qiziqishning orta boranligini ko'rsatadi. «Qobusnoma»ning «Subanonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida» deb nomlangan etinchi bobida va hunarini egaillashtirishga bag'ishlangan oltinchi bobida noqlik sirlariga doir ayrim to'g'ri mulohazalar bildiriladi, bu o'sha davrda katta ahamiyatga ega bo'lgan va hozirda ham uning foydali tomonlari ko'zga tashlanadi.

«Qobusnoma» muallifi hamma hunarlar ichida so'z hunari - noqlikni a'lo deb biladi: «Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi». Shu tufayli, «Kishi suhandon va noqliq bo'lishi lozim», - deb ko'rsatadi.

Ikkinchidan, nuqtaning go'zal bo'lishi, - deydi. «So'zning ikki tomoni bor: birt go'zal tomoni, ikkinchisi hunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so'zning go'zal bo'lishi, bu so'zni xalq qabul qilsin». Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qabliga to'g'ri yo'l topa bilish, shakliga e'tibor berish masalasi. «Ya'ni birt so'zni bitor bilan aytisa eshitgan kishining ko'ngli parshon bo'ladi, shu so'zni boshqa bitor bilan aytisa, eshitgan kishining ko'ngli bahra oladi».

Shu tariqa «Qobusnoma»da noqliq bo'lish fazilatlari va yo'llari

fatlasul, shoir, Abu Ali Ibn Sino fanining turli sohalarini bilan birga ta'lim-tarbiya, ahiq va nuq haqida ham fikrlari mayjudki, ularni o'rganib chiqish noqlik san'ati tarixi sahifalarini yana ham boyrtgan bo'ladi. Ibn Sino yaxshi tarbiyachi, noqimni yaxshi do'st sifatida tuga oladi va do'stilikni uch turga bo'ladi:

1) har qanday vaqtda, qiyinchiliklarga qaramay, o'z o'rtog'ini havfta goldirmaydigan chin do'st;

2) manfaatlarning umumiyligiga va g'oyaviy yaqinlikka asoslangan do'stilik;

3) o'zining shaxsiy ehtiyoji va manfaatinii gondirishga asoslangan do'stilik.

Yaxshi do'st qaysi yo'l bilan bo'lmasin axloqiy kamchiliklarni tuzatishda boshqalarga yordam berishi mumkinligi masalasiga Ibn Sino alohida e'tibor beradi va noqliq quyidagilarga amal qilishi lozim, deb ko'rsatadi:

1. Nasihat qo'pol ohangda berilishi kerak emas.  
2. Subbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur.  
3. Nasihatga (va'xonlikka) ko'p berilmaslik kerak, uni o'rtqlik subhati tarzida olib borsish zarur.

4. Nuqimni miloyim ohangda, yolg'iz olib borsish kerak.  
5. Agar ta'na qilmog'chi bo'lsang, boshqalar kamchiligi bilan qiyoslab ta'na qil.

6. Agar o'z e'tiqodini aytmog'chi bo'lsang, taqat birt dalilga tayama, balki ko'p masalalar bilan isboda, subbatdoshningni buni yuragiga yaqin olishga, shu narsa haqida o'ylashga va haqiqatni izlashga ishonit.  
7. Agar subbatdoshning sening gaplaringga e'tibor bilan quloq solayotgan bo'lsa, subbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sirt saqlama, lekin uning e'tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.

Ibn Sino subbat o'tkazishdan ilgari, subbat o'tkazuvchi kishining o'z subhati qaratilgan predmetni, shaxs faoliyatini chuqur, har tomonlama o'rganishi, bitor kamchilikni ham chetlab o'tmasligi lozimligini.



«Vozikim, bo'lg'ay olim va muttaqiy – aning nasihatidin chiqqan shaqiy».

5. Notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmog'i lozim. Aks hoda notiqning ta'siti bo'lmaydi. «Uki buyurtb o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar uning so'zi qilmag'ay».

Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihardan uning «Mabhubul qulub»idagi 60 tanbehi o'rinihdir. «Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar. Ko'p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi loya'qil» (ya'ni chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi. Ko'p so'zlovchi zerkitiruvchi, qayta gapitridigan – aqidan ozgan), - deydi. Navoiy so'zning hashamdorligidan ko'ra haqoniyligini uling'aydi. Fikrning xald uchun tushunarlil bo'lsin desang, soddada tilida gapir, deydi: «So'zki fasohat zevaryidin muzayyan emasdir, anga chinlik zevari basdur. Volg'onchi har nechda so'zida fasilroq, so'zi qabilroq. Chin so'z mechakim betakallul, goyilg'i iborat soddalig'idin yo'q taassuf».

Alisher yaxshi so'zli, el uchun foydali nutq so'zlagan notiqlariga yon bosadi. Ularning xizmatini masjid imomlarining qilayotgan ishlaridan yuqori go'yadi. Shu turlayli ular uchun imomlariga nisbatan ancha ko'p mablag' ajratishni tavsiya etadi: «Vozig'a yillik naqdi besh yuz oltun, bug'doy o'n yuk. Imomga masjid jome'da xatib bo'lib, maktabdag'i tuzg'ay, yillik naqdi ikki yuz oltun, bug'doy o'n yuk».

A.Navoiy o'sha vaqtda voizlik san'atida nom qozongan – Hoja Muayyad Mehmagi, Mavloni Rivoziy, Mavloni Husayin Voiz Koshifiy, Mavloni Muin Voizlar haqida o'zining «Majolisun nafos» nomli tazkirasida fikrlar bildiradi.

A.Navoiy yashab ijod etgan davrda, undan ilgariroq ham notiqlik yuksak darajada qadrlangan bo'lsa-da, o'sha davr notiqlarining nutq mahallardan namunalari bizgacha etib kelgan emas.

Voizlik san'ati keyinchalik ham an'anaviy suratda taraqqiy etib, rivojlanib bordi. Masalan, Muqimiy o'zining «Sayohatnomam» asarida:

«Bir ma'raka ko'rdum butun,  
Jam'i yopingan boshga to'n,  
Bog'samki, beshyuzcha xotun,  
Voiz so'zin tinglar ekan», deb yozganligi buning yaqqol dalilidir.<sup>66</sup>

<sup>66</sup> Инномхужасев С. А.Навоий нотиклик санъати хақида. «Билим» жамияти. –Т. 1968.

haqidagi nasihatlar cheklangan bo'lishiga qaramay hozirgi kundagi notiqlar va tashviqotchilarning o'z faoliyatlarini yo'lga solishlarida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan tomonlari bor.

Musulmon sharqi madaniyatining salmoqli zarvaraqalarini tashkil etuvchi notqlik san'ati tartizga oid talaygina manbaalar bor bo'lsa-da, ulardan hech biri A.Navoiy qoldirgan meros kabi qimmatli va boy emas.

A.Navoiy o'z davrining buyuk mutafakkiri, so'z ustasi bo'lish bilan birga, kishilarga yaxshi so'z bilan ta'sir eta bilish san'atini juda ham qadrlovchi, ulug'lovchi, bunday san'at ustalariga e'tibor qilib, ehtirom ko'rsatuvchi bir shaxs edi. Navoiy omma o'rtasida yaxshi nutqning ta'siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Navoiy notqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko'ra bilish va ularni farqlay olishiga chaqtiradi:

To'ti-yu, shorik agar notiqdur,  
Har biriga o'zga bir mantiqdur.<sup>65</sup>

Navoiy notqlik san'atining buyuk qudratiga alohida e'tibor beradi. U «Mabhubul-qulub» nomli falsafiy asarining yigirma to'rtinchi faslimi «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb ataydi va bunda voizlik san'atiga, va'zga, voizga o'z munosabatini bildiradi. A.Navoiyning voizlik san'ati haqidagi fikrlari uning diniy qarashlari bilan yo'g'rilgan holda ifoda etilgan bo'lsa-da, bu san'atning eng xarakterli va muhim tomonlarini e'tirof etadi. Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlariga ega bo'lishi lozim:

1. Voizning so'zlari ta'sirchan va foydali bo'lmog'i lozim. Voiz kerakki, «qolaloht»<sup>64</sup> so'z aytasa.

2. Nutq tinglovchi uchun yangilik bilimlar va o'zgarishlar xabaratchisi bo'lmog'i lozim. «Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur»<sup>65</sup>.

3. Notiqning o'zi biror sohani egallagan bo'lishi va undan so'ng va'z orqali kishilarga ta'sir etishi lozim.

Avval bir yo'lni bormoq kerak,  
Andin so'ng elni boshqarmoq kerak.

4. Notiq olim va bilimdon har narsadan xabaridor kishidur.

<sup>63</sup> А.Навоий. Асарлар, 1-том, 222-бет.  
<sup>64</sup> Арабча қол ва ағзах сўзлардан олинган бўлиб, «қолмоқнинг сўзи», «олмоқ таъни»  
<sup>65</sup> А.Навоий. Асарлар, 13-том, 25-бет. Кейинги мисоллар ҳам шун асардан олинган.



## Notiqlikning asosiy ilmiy qoidalari

**Mantiq** – logika - yunoncha «logos» so'zidan olingan bo'lib, nutq, fikr, uy demakdir. Mantiq – fikrlash qonunlari, shakllari va usullarini o'rgatuvchi fandır<sup>67</sup>.

Mantiq fanini bilmasdan turib, nutqda to'g'ri fikrlilikka erishish qiyin. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan taqdiridagina, uning ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Mantiq fani har bir narsaga sinchkovlik bilan qarashga, har bir voqeaga to'g'ri baho bera bilishga, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil bera bilishga, fikrni isbotlay bilishga o'rgatadi. Aniqlik, izchillik va dalillilik – to'g'ri fikr yuritishning zaruriy xususiyatlaridir.

To'g'ri fikr yuritishning rasmiy mantiq va dialektik mantiq kabi belgilari mavjud. Rasmiy mantiq ilmi o'rganadigan asosiy tafakkur qonunlari narsalarning oddiy xossalarini aks ettiradi, lekin tafakkur qonunlarining hammasini to'la-to'kis ifodalab berolmaydi. Tabiat, jamiyat va tafakkurning harakati va taraqqiyotining bundan chuqurroq va bundan murakkabroq qonunlari bor, u ham bo'lsa dialektika qonunlaridir. Dialektika va unga amal qiluvchi dialektik mantiq – ijtimoiy voqelikni chuqur analiz qilish, uning tub mohiyati va tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgandir.

Rasmiy mantiq tafakkurning to'rt qonunini – e'tirof qonuni, qarama-qarshilik qonuni, uchinchisi inkor etish qonuni va etarli asos qonunini o'rganadi. Bu qonunlar mantiqiy tafakkurning asosiy qonunlari hisoblanadi va uning tub xususiyatlarini, ya'ni fikrlarimizning izchil va asosli bo'lishini ifodalaydi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir-biriga izchil sur'atda bog'langan bo'lishi lozim, fikr yurgizilayotgan mavzudan chetga chiqmaslik zarur, mazmunida mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, dudmal gaplar bo'lmasligi kerak. Hukmlar va xulosalar asosli bo'lmog'i lozim, yo'qsa, ular ishonarli bo'lmay qoladi.

Rasmiy mantiq qonunlari to'g'ri tafakkurning majburiy shartidir. Rasmiy mantiq qonunlarini mukammal bilmasdan, dialektik fikrlash usullarini egallash ham mumkin emas. Rasmiy mantiqning qonunlari fikrlashda mantiqiy qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslikda muhim ahamiyatga ega. Masalan, ayni bir paytda biri kishi haqida: «Bu

<sup>67</sup> Виноградов С.Н., Кузьмин А.Ф. Логика (мантика). Урта мактаблар учун дарслик. –Т., 1949, 56-бет.

kishi past bo'yli» deyish bilan birga, bu kishi «o'rta bo'yli» yoki aynan bir kishi haqida, bir vaqtning o'zida «bu kishi sahiy» deyish bilan birga, «bu kishi xasis», deyish mumkin emas. Muhokama yuritishdagi mantiqiy qarama-qarshilik o'sha muhokamaning asossizligidan dalolat beradi.

Yetarli asos qonuniga ko'ra, har qanday chin fikr asosli bo'lmog'i zarur.

Moddiy dunyodagi har qanday hodisaning sababi, o'z real asosi bor. Biror hodisa, voqea haqidagi hukmlarning asossizligi tafakkurning mantiqsizligini ko'rsatadi. To'g'ri tuzilgani yozma ma'ruzalar, nutq, maqola, yozma ish va shu kabilarda aytilgan fikrlarning isboti uchun hamisha amalda sinalgan va to'g'ri deb tan olingan qonun-qoidalardan faktlar, dalillar keltiriladi va shular bilan asoslab beriladi. Nutqning e'tirofli, qarama-qarshiliksiz, izchil va asosli bo'lmog'i uchun yuqoridagi qonunlar o'zlarida zaruriy talablarni ifoda etgan bo'lib, har bir voqelikka aniq sharoitlarda yondashgan holda xulosalar chiqarishga da'vat etadi. Rasmiy mantiq qonunlariga rioya qilmasdan, chinakam bilimga erishish mumkin emas, shu singari nutqning haqqoniyligini ta'min etishda mantiq qonunlari zaruriydir.

Mantiqiy fikrlash usullari – solishtirish, tahlil, analiz, sintez, abstraktlash va umumlashtirishning nutq faoliyatidagi ro'li muhimdir.

Solishtirish shunday bir mantiqiy usuldiki, bu usul vositasi bilan ob'yektiv olamdagi predmetlar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlab olinadi. Taqqoslashda uning natijalarini to'g'riligini belgilaydigan shunday zaruriy shartlar bo'ladi:

1) bir-biri bilan haqiqatda biron tarzda real bog'lanishi bo'lgan buyumlarni taqqoslash kerak. Masalan, «ot» bilan «poeziya»ni, «aql» bilan «olma»ni taqqoslab bo'lmaydi;

2) ikki yoki bir necha buyumni bir belgi asosida olib, ayni bir nisbatda taqqoslash kerak. Masalan, *Odamlar bo'g'ning paydo bo'lishida suvning isishi sababligini bir necha hodisani ayni bir nisbatda taqqoslash asosida bilganlar.*

*Analiz* shunday bir mantiqiy usuldiki, uning yordami bilan biz buyumlarni, hodisalarni fikran qismlarga bo'lib, uning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz.

*Sintez* shunday bir mantiqiy usuldiki, predmet va hodisaning analiz bilan bo'lingan ayrim qismlarini shu usul yordami bilan fikran birlashtirib, bir butun holga keltirish mumkin.

Ha bir predmet avval qismlarga bo'lingan holda o'rganiladi va



so'ngra sistemaga solinadi. Analiz va sintez bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. Lekin buyumni tarkibiy qismlarga bo'lib, so'ngra ularni fikran bir butun qilib birlashtirish kifoya qilmaydi. Nutq qaratilgan predmet yoki hodisaning biror tomoni muhim, boshqa tomoni muhim emasligini ham farq qilish lozim bo'ladi. Bunda abstraksiyalash va umumlashtirish usuli qo'l keladi.

Abstraksiyalash – shunday bir mantiqiy usuldirki, bu usul yordami bilan predmet va voqealarning muhim xususiyatlari fikran ajratiladi va ularni predmetlar, voqealarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlaridan chetlashtiriladi.

Umumlashtirish – shunday bir mantiqiy usuldirki, bu usul yordami bilan biz jinsdosh predmetlarning umumiy xususiyatlarini fikran biralshtiramiz. Hayvon, inson, sut emizuvchi kabi tushunchalar umumiylik asosiy vujudga kelgan. Umumlashtirish predmetlarning o'zida bo'lgan umumiy narsani bilishga asoslangan taqdiridagina to'g'ri bo'ladi.

Fikrlashning asosiy shakllari – tushuncha, muhokama va aqliy xulosadan iboratdir.

Tushunchada predmetlarning umumiy va asosiy belgilari aks ettiriladi. Tushuncha so'z bilan ifodalanadi. So'z tushunchaning tashqi formasidir. Tushunchaning mazmuni – bu predmetdagi asosiy belgilarning umumlashmasi haqidagi bilimdir. Agar tushunchaning mazmuni voqelikni to'g'ri aks ettirsa, voqelikka muvofiq kelsa bunday tushuncha to'g'ri tushuncha bo'ladi.

Tushunchani ta'riflash – uning mazmunini ochib berish bo'lsa-da, ta'rifda muhim belgilarning hammasi deyarli hech qachon to'liq ko'rsatilmaydi, chunki bu, ko'pincha, mumkin bo'lmaydi. Tushuncha ta'rifdan ko'ra mazmundorroqdir. Ta'rif tushunchani toraytiradi.

Demak, notiqqa biror buyum haqida tushuncha hosil qilmoq uchun mazkur tushuncha ta'rifini bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Har bir ta'rifga ijodiy yondashish lozim bo'ladi. Tushunchaning ta'riflash qoidalarini bilishi notiqni har bir voqea va narsaning ta'rifini chuqur va to'g'ri bilishga o'rgatadi. Ta'rifning asosiy vazifasi tekshirish natijalarini yakunlash, olingan bilimlarning, nutq qaratilgan predmet yoki hodisaning qisqa ifodasini berib, mustahkamlashdir. Ta'rifda tushunchaning eng asosiy belgilari mustahkamlanadi.

Voqelikdagi predmet va hodisalar haqida bilim chuqurlasha borgan sari, tushunchalarning ham ta'rifi o'zgara boradi, ular yanada

to'laroq bo'la boshlaydi va predmetlar mohiyatini yana aniqroq aks ettiradi. Shu tufayli har bir notiq bilimni qanchalik mustahkam egallagan bo'lsa, nutqi qaratilgan narsa yoki hodisani har tomonlama va chuqur o'rganib chiqsa, uning shu predmet va hodisa haqidagi tushunchalar ta'rifi voqelik va predmetni shunchalik har tomonlama qamrab olgan bo'ladi, asosga yaqinlashadi.

Notiqlikda ma'ruzalar o'qish vaqtida yoki og'zaki nutqda foydalaniladigan ta'riflarning o'rnini bosadigan ko'rsatish, tasvirlash, tavsiflash kabi usullar mavjud. Masalan, tasvirlashda notiq hikoya qilayotgan u yoki bu predmetning belgilarini bir-bir sanab ko'rsatadi. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Ravshan» dostonida Chambil bel bilan Shirvon yo'li tasviri, Zulxumor, Oqqiz kabi obrazlar qiyofalari tasviri ularning o'ziga xos belgilarini birma-bir sanab ko'rsatishdan hamda tasvirlashdan iborat bo'ladi. Tavsiflashda notiq predmet yoki voqealarning ba'zi alohida xarakterli belgilarini ko'rsatib o'tadi. Masalan, qahramonlarning yoki voqealarning tavsifi. Tavsiflashdan maqsad – predmetning ba'zi xususiyatlari borligi yoki yo'qligini ta'kidlab ko'rsatishdir.

Solishtirish ham ta'rifning o'rnini bosa oladigan usullardan hisoblanadi. Agar bir predmet to'g'risidagi fikr boshqa bir predmet to'g'risidagi fikr yordamida tushuntirilsa va ularning farqi aniqlansa, bu mohiyat e'tiboriga ko'ra solishtirish hisoblanadi.

Hodsalar yoki buyumlarning va ularning belgilari haqida biron narsani tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr muhokama deb ataladi.

Har bir muhokamada uchta bo'lak: ega, kesim va bog'lovchi bo'ladi. Masalan, *Ilm va mehnatda ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotgan o'zbek xalqining eng yaxshi o'g'il va qizlaridir* gapida:

- 1) «*Ilm va mehnatda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlar*» muhokamaning mantiqiy egasi – sub'ektidir;
- 2) «*O'zbek xalqining eng yaxshi o'g'il va qizlari*» – muhokamaning mantiqiy kesimi yoki predikatidir;
- 3) «*dir*» – mantiqiy bog'lovchi.

Muhokamaning so'z bilan ifoda qilinga sirtqi shakli grammatik gapdir. Muhokama – gapning mazmuni bo'lib, gap muhokamaning ifodalanish shaklidir. Har bir muhokama biror grammatik gap shaklida ifodalanadi. Ammo grammatik gaplarning hammasi ham mazmunan muhokama bo'lib kelmaydi. Shunday gaplar ham borki, ularda tasdiqlash ham, inkor qilish ham bo'lmaydi (masalan, so'roq gaplar), binobarin, ular



muhokamani ifodalamaydi.

Har bir muhokamada ega, kesim va bog'lovchi bo'ladi, lekin muhokama bo'laklari bilan gap bo'laklari orasida to'la moslik bo'lmaydi. Ba'zan gap bir so'zdan iborat bo'ladi, shuningdek, ko'pincha, gapda ikkinchi darajali bo'laklar bo'ladi. Lekin muhokamada ikkinchi darajali bo'lak bo'lmaydi.

Ayni bir vaqtda ham umumiy, ham tasdiqlab aytiluvchi muhokama umumiy tasdiq muhokama deb ataladi.

Ayni bir vaqtda ham umumiy, ham inkor qilib aytiluvchi muhokama umumiy inkor muhokama deb ataladi. Masalan, «Hech bir hodisa sababsiz paydo bo'lmaydi».

Ayni bir vaqtda ham juz'iy, ham tasdiqlab aytiluvchi muhokama juz'iy tasdiq muhokama deb ataladi. Masalan, «Ba'zi o'qituvchilar xalq ta'limining a'lochilaridir». Ayni bir vaqtda ham juz'iy, ham inkor qilib aytiluvchi muhokama umumiy inkor muhokama deb ataladi. Masalan, «Ba'zi paxtachilik brigadalari shudgorlashni hali boshlagan emas».

Notiqlik pedagogika va psixologiyaning asosiy qonunlarini bilishni va ularni notiqlikda, nutqda to'g'ri tatbiq eta bilishni talab etadi. Har bir ma'ruzachi yoki notiq albatta pedagogika qonuniyatlari va talablariga ham javob bera olishi kerak.

Notiqning vazifasi tinglovchilar ongiga tayyor bilimlarni «qo'yib qo'yishdan» iborat bo'lmay, balki ularni ma'ruzada tilga olingan masalalar ustida mulohaza yuritishga majbur qilishdan iboratdir. Agar ma'ruza muammoli tuzilsa, bu ma'ruza tinglovchilar uchun fikrlash maktabi bo'lib qoladi.

Ta'lim jarayoni ikki yoqlama jarayondir. Chunki unda ikki shaxs – ma'ruzachi bilan tinglovchi ishtirok etadi. Ta'lim jarayonida notiq bilan tinglovchi faqat mazkur jarayonga xos bo'lgan muayyan munosabatga kirishadi.

Nutq - bu notiqning tinglovchilarga bilim, ko'nikma va malaka berishi, ularda yangi haqiqatlarni ocha bilishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyasidir.

Nutqni tinglash – tinglovchilarning notiq tomonidan berilgan bilimlarni, ko'nikmani o'zlashtirish, qabul qilish jarayoni, o'zlarida bilish qobiliyatini, fikrlash operatsiyalarini va harakatlarini tarkib toptirish jarayonidir. Bu passiv mushohada emas, balki notiq tomonidan tinglovchilarga berilgan bilim va malakalarni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir.

### Notiqlikda til va uslub masalasi

O'z nutqini to'g'ri tashkil eta bilish notiqlik san'atini egallashning muhim shartlaridan biridir. Yaxshi notiqning nutqi hamisha mazmunli, tushunarli, ifodali va ta'sirchan bo'ladi. Nutqni to'g'ri tashkil eta bilish mumtoz notiqlar va ma'ruzachilarning tajribasini o'rganishdan tashqari nutq madaniyatini, nutqiy savodxonlik va muomala madaniyatini o'qib olishni talab etadi. Nutq madaniyati quyidagi ko'rinishlarga ega:

- 1) nutqning til madaniyati;
- 2) nutqning psixologik madaniyati;
- 3) nutqning aloqa madaniyati;
- 4) tinglash madaniyati.

Nutq tarixiy taraqqiyot jarayonida, ong bilan birga, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog'lash, bir-birlariga biror narsa aytish ehtiyoji tug'ilishi natijasida paydo bo'lgan. Mehnat faoliyatida kelib chiqqan nutq – tilning taraqqiyoti, tafakkur taraqqiyosi bilan birga rivojlanadi.

Har bir kishining yoshiga, bilimiga, umuman, madaniy saviyasiga qarab, uning nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Har bir kishi bir yoki bir necha tildan foydalanib, o'zicha gapiradi. Har bir kishining o'z nutqi bor.

Har bir avlodning o'zidan oldin o'tgan avlodlar foydalangan muomaladagi tilga duch keladi va uni egallab oladi, ya'ni o'zining nutq orqali qiladigan muomalasida shu tildan foydalanadi. Har bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuviga bog'liq. Agar odamlar biror tilda gaplashmay qo'ysalar bu til yo'q bo'lib ketadi. Masalan, qadimgi yunon, lotin tillari mana shunday «o'lik» tillardir.

Nutqda fikrlar bilan birgalikda his-tuyg'ular ham ifodalanadi. Nutqda berilgan har bir so'zdan notiqning mehri, g'azabi, qo'rquvi, muhabbati, hurmati, nafrati ongli ravishda yoki beixtiyor namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, notiqning nutq ohangida uning holati – xorg'inligi, umumiy hayajoni, o'ziga bo'lgan ishonchi yoki ishonchsizligi kabilar ifodalanadi.

**Ohang** – muomala munosabatining muhim vositasidir. U nutq ta'sirini kuchaytirishi, so'zlar va iboralarning mazmunini aniqlashi yoki buzib ko'rsatishi mumkin. Ohang kishilarning muomala – munosabat jarayonida emotsional – iroda munosabatlarini aks ettiradi. Biz ohang yordami bilan sodda gap, so'roq gap, undov gaplar tuzamiz. Intonatsiya



tutadigan Prezidentlik saylovi va bu saylov bo'yicha davlatimiz gomusida, gonnularida belgilab qo'yilgan talablar haqida so'z yuritiladi.

Nutq jarayonida intonatsiya stilistik ahamiyatga ham egadir. Intonatsiya *odatdagi va noqlik intonatsiyasiga* bo'linadi. Odatdagi intonatsiya umumiy xarakterga ega bo'lib, kishilarning bir-birlari bilan nutqiy aloqalarda, bir-birlarini anglab etishlarida qo'llanilsa, noqlik intonatsiyasi notiq nutqning tinglovchilar ongiga ta'sir etishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutqning til madaniyati notiqning lug'at boyligiga ega bo'lishini, lug'at madaniyatini egallashini talab etadi. Bunda notqning o'z lug'ati tarkibi faol ravishda kengayib borshi, notqda so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nolari ahamiyatining ortib borshi ko'zga tutiladi. Nutqda uni ta'sirchan, rang-barang va jozibador qilish uchun sinonimlar, omonimlar va antonimlardan to'g'ri foydalanish, atamalar va ularni to'g'ri tatbiq etish, muvakkab so'zlarni bilish hamda ularni o'z o'rnida ishlatish, notqda tasvitiy vositalardan o'rni foydalana olish lug'at madaniyatini egallashning muhim shartidir.

Har bir notiq foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan lug'at tarkibi ganchalik boy va tarqiqiy qilgan bo'lsa, uning individual lug'ati va notqi ham shunchalik boy va tarqiqiy qilgan bo'ladi.

Har bir so'zning o'z ma'nosi bor, ya'ni har bir so'z muayyan bir narsaga yoki narsalar turkumiga, shuningdek, narsalarning muayyan bir belgilariga – ularning xususiyatlariga, bog'lanishlariga, munosabatlarga va boshqa shu kabi belgilarga taalluqlidir. So'zning ma'nosi kishilarning nutq amaliyotlarida bir-biri bilan bo'layotgan o'zaro aloqasida ma'lum bo'ladi va kishilarning bir-birlarini tushunishlarini ham ta'minlaydi. Chunki gaplashayotgan kishilarning har biri muayyan bir narsa to'g'risida muhokama yuritadi va har bir so'zni muayyan bir ma'noda ishlatadi.

Har bir notiq nutqning lug'at tarkibi tilning grammatik tuzilishidan ajralgan holda mavjud bo'lishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, har bir notiq o'z tilining lug'at tarkibini shu tilning grammatik gonn-goidalari, gap tuzilishining umumiy gonn-goidalari asosida egallaydi. Nutqning grammatik shakli va sintaktik qurilishi, avvalo, adabiy me'yor grammatika qoidalari ro'ya qilishda, grammatik shakllarni to'g'ri qo'llay bilishda o'z ifodasini topadi. Har bir so'zning o'z ma'nosi bor, lekin har bir so'z o'z shaklini o'zgartirib, grammatika qoidalari asosida tuzilgan biror gap tarkibiga kirgandagina muayyan bir

nutqni bo'lak-bo'laklarga, jumalarga va mazmunan kichik-kichik bo'lakchalarga bo'ladi. Intonatsiya nutqning sintagmaga to'g'ri bo'linishida va mantiqiy wrg'uning qo'yilishida ifoda qilinadi. Notiq nutqning ta'sirchanligida intonatsiyaning ahamiyati katta. Notiq tinglovchilarda tabiat va turmushdagi biror hodisaga, narsaga qiziqish paydo qilish, notiq qaratilgan predmetning xususiyatlarini ularga to'laligicha etkaza bilish uchun notqda talaffuzga alohida e'tibor berishi lozim:

*«Assalomu aleykum, muhtarim vaqandoshlar!*

*Qadri do'stlar!*

Bugun mana shu go'zal Far'ona zamnida siz qadrdonlaringiz bilan ko'rishib turganimdan xursand ekanimni bildirib, barchagingizga, sizlar o'ngali butun Far'ona ahliga o'z farzandlik mehrimni, yuksak hurmat va ehtiromimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

*Aziz yurtdoshlar!*

Barchangiz yaxshi xabarvorsiz, shu kunlarda xalqimiz 23 dekabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentini sayloviga katta tayyorgarlik ko'rmogda.

Sizlar bilan bugungi uchrashuvimiz ham aynan ana shu muhim siyosiy voqea – saylov masalasiga bog'lanishdir.

Shu munosabat bilan, avvalo, mamlakatimizning saylov tizimi haqida iktig'iz to'xtalib o'tmoqchiman. Hammaimizga ma'lumki, har gunday saylov, birinchi galda Konstitutsiya va gonnularida belgilab berilgan tartibda o'tkaziladi» (M.Karimov O'zod va o'zod Batan pavnaki – 60sh makqadimimizdir. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining birinchi noma'ozid M.A.Karimovning Far'ona viloyati rahbarlarining yig'irilgan vakillari bilan uchrashuvining natijasi).

Yurtdoshimizning keltirilgan notqda birinchi galda muomala munosabatining muhim vositasi intonatsiya muhim o'rni turgan. Yurtdoshimizning o'z vaqandoshlari, far'ona'liklarga nisbatan mehrni, muhabbatni emotsionallik asosida sub'ektiv munosabatlarni aks ettiradigan ko'tarinki ohang yordamida tuzilgan jumalardan iborat bo'lib, unda sodda gaplarning undov gaplar, vokativ gaplar, qo'shma gaplar turi qo'llanilgan. Ko'tarinki ohang yordamida tuzilgan ushbu notq parchasida notiq nutqning o'ta ta'sirchanligi, yurtdoshlarimizga bo'lgan samimiy mehrni, hurmat va ehtiromi izhor etilgan. Shu bilan birga, ushbu notq parchasi o'ngali davlatimizning tartib sahitlarida muhim o'rni



ma'nolarga va vazifalarga ega bo'ladi.

Og'zaki nutqning uslubiy belgilari, stilistik me'yorlari tinglovchilarga ta'sir etishning muhim vositasidir. Odatdagi nutqlar ishchanlik, ilmiylik, notiqlik xarakterida bo'lib, uslublarning bir-biridan farqi borligini ko'rsatadi. Notiqlikning uslubiy belgilari, stilistik madaniyati tinglovchilarga ta'sir etishning ma'lum vositasidir, chunki so'zlovchi leksik va grammatik me'yorlardan to'g'ri foydalana olgan taqdirda o'z fikrini stilistik nuqtai nazardan to'g'ri ifodalasa, uslubiy jihatdan nutq to'g'ri shakllangan va tinglovchiga etarlicha ta'sir qila oladigan darajada bo'ladi. Stilistikada birinchi galda og'zaki nutq uchun fikrni ravshan va aniq bera olish uchun grammatika belgilab bergan umumiy qoidalaridan qaysi birini qanday holatda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. Gapda fikrni tushunarli ifodalash uchun faqat grammatika qoidalariga rioya qilishning o'zigina kifoya qilmaydi, nutqda gapni stilistik jihatdan to'g'ri foydalanmasa, nutq stilida Notiq stilistik qonuniyatlaridan to'g'ri foydalanmasa, nutq stilida g'alizlik, kamchilik seziladi. Shuning uchun sodda, ravon, aniq va tushunarli tilda va uslubda so'zlash kerak bo'ladi.

Sodda, tushunarli tilda gapirish uchun hamda nutqni ta'sirchan qilib ifodalash uchun maxsus stilistik vositalar: ellipsis, takror, ritorik so'roq, ritorik murojaat, xitob, gradatsiya, antiteza, sintaktik parallelizmlardan o'z o'rnida, to'g'ri foydalana bilish kerak.

*Hurmatli yurtdoshlar!*

*Aziz birodarlarim!*

*Farg'ona zamini azal-azaldan bu erni ulug'lab kelgan buyuk zotlar bilan faxrlanadi. Bugungi kunda o'zining fidoyi mehnati, ibratli faoliyati bilan butun yurtimizda obro'-e'tibor qozongan O'zbekiston Qahramonlari – mohir mehanik Botirjon Temirov, mirishkor fermerlar Komil Mamajonov, o'qituvchi Manzura Madaliyeva, usta-hunarmand Abdug'ani Abdullayev, tajribali yo'lsoz Ulug'bek Umarov, shuningdek, mohir muallima Mavludaxon Hojimatova, taniqli sport murabbiysi Stanislav Bo'tayev, iste'dodli san'atkor Muhammadsoli Yusupov kabi yurtdoshlarimizning nomlari barchaga ibrat bo'lib kelmoqda.*

*Fursatdan foydalanib, Farg'ona viloyati erishayotgan mana shunday ulkan yutuqlarga munosib hissa qo'shayotgan, uning shuhratini yanada yuksaltirayotgan barcha-barcha insonlarga yuksak hurmatim va mimadorchiligimni bildirishni o'z zimning burchim, deb bilaman.*

*Shuning uchun men Farg'ona zaminini, Farg'ona ahlini chin*

*qalbimdan sevaman, yaxshi ko'raman, bu yurtga, uning samimiy va oliyanob odamlariga o'zgacha bir mehrim, hurmat-ehtiromim borligini izhor etish, shu xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishni o'zim uchun yuksak sharaf, deb bilaman!* (И.Каримов Озод ва обод Ватан равнаки – бош мақсадимиздир. Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод И.А.Каримовнинг Фарғона вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқи. «Халқ сўзи», 2005 йил декабрь сони)

Keltirilgan nutqda bildirilgan har bir fikr, yuqorida notiqlik mahoratining asosiy ilmiy qoidalarida ko'rsatilganidek, mantiqan asoslangan, shu bilan birga uning ta'sirchanligi kuchli. O'z fikrini mantiqan asoslash uchun fikrlar aniqligiga, izchilligiga erishgan, bo'lib o'tgan voqealarga to'g'ri baho bergani holda, viloyatda erishilayotgan yutuqlarni sanab o'tgani holda, dong taratgan mashhur odamlari haqidagi fikrlari bilan yuqoridagi fikrlarini dalillab ko'rsatgan.

Albatta, ko'rsatib o'tganimizdek, notiqlikning stilistik madaniyati so'zlovchining leksik, grammatik me'yorlardan to'g'ri foydalana olgan holda o'z fikrini tinglovchiga ta'sir qila oladigan darajada uslubiy jihatdan to'g'ri tuza bilgan. Shuningdek, nutq sodda, tushunarli tilda bayon etilgan. Matnda uning grammatik me'yorlarini ifodalovchi sintaktik qurilmalardan tashqari, matnning ta'sirchanligini ifodalovchi ritorik murojaat, ritorik xitob, epitetlar, okkozionalizmlar, o'xshatishlardan ham unumli foydalanilgan va bu vositalar nutqning o'ta ta'sirchanligini va hayotiyiligini ifodalashga xizmat qilgan.

Nutqning til madaniyati mimika va qo'l harakatlari madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Notiq nutqining ta'sirchanligini oshirishda noverbal vositalar sifatida nutqda foydalanilishi mumkin bo'lgan mimika va qo'l harakatlari ham muhim ro'l o'ynaydi. Mimika va imo-ishoralari nutqning emotsional (hissiyot) tomonlarini ifodalab beradigan ixtiyorsiz harakatlardan yoki gapiruvchi odam o'z nutqining ayrim joylarini uqtirmoq, bo'rttirib ko'rsatmoq uchun atayin ravishda qiladigan harakatlardan iborat bo'ladi. Notiqning o'z nutqiga qanchalik berilganligi, uni kishilarga etkaza bilish ifodali harakatlarida namoyon bo'ladi. Notiq ifodali harakatlar yordamida nutq qaratilgan predmet yoki voqelik haqidagi o'z tasavvurini, kechinmalarinigina tinglovchilarga etkazib qolmasdan, balki shu bilan birga, tinglovchilarda ham shu predmet yoki voqelik haqida tasavvur tug'dira bilishi, yangi kechinmalar paydo qilishi mumkin bo'ladi. Notiq – ma'ruzachining ifodali harakatlari tejalgan, tabiiy va shu bilan bir qatorda ma'ruzaning tabiatiga monand



bo'lishi kerak. Qo'l yurak amri bilan harakat qildirilishi lozim. Bunda albatta, notiq – ma'ruzachining o'z kasbiga, **nutq** qaratilgan ixtisoslikka bo'lgan mehri muhim ro'l o'ynaydi. Ortiqcha va sun'iy harakat tinglovchilarning asabiga tegadi va ularni **charchatadi**. Aksincha, bir me'yordagi harakatlar, mimikalar va yurish-turishlar ham tinglovchilarga yomon ta'sir etadi.

Til, nutq va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langanidir. Odam nutq va til vositalari bo'lmasa, fikr qil olmaydi. Nutq fikrlash qurolidir. Fikrning realligi til yordamida ifoda qilinadi.

Fikrni ifoda qilish uchun xizmat qiladigan artikulyatsiya, tovush tarkibi va intonatsiya, leksika, grammatik qo'llar, sintaktik qurilmalar – til vositalari, uning uslubiy xususiyatlari – stilistik vositalaridir.

Demak, notiqlikning uslubiy belgilari, uning leksik-grammatik xususiyatlari haqida yuqoridagi keltirilgan fikrlardan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, notiqlik uslubini yuzaga keltirishda, albatta, lingvistik vositalar birlamchi omillar sifatida qatnashadigan bo'lsa, bu uslubni yuzaga kelishida noverbal vositalar, fonatsion vositalar singari ekstrolingvistik vositalar ham muhim o'rin tutadi. Uning ekstrolingvistik belgilari sifatida nutqning ba'zi bir psixologik xususiyatlariga ham to'xtalib o'tmoq joiz.

Nutqning psixologik madaniyati til vositalari yordamida talaffuz qilish jarayonida og'zaki va yozma nutqni tushunarli, ifodali va ta'sirchan qiladi.

Nutqning mazmundorligi, avvalo, ma'lum qilinayotgan faktlarning ijtimoiy, ilmiy va badiiy qimmatiga, muallifning umumlashtirish qobiliyatiga bog'liqdir. Nutqning mazmundorligi, shuningdek, bayon qilinayotgan ma'lumotning dolzarbligi va hayotiyligi bilan ham belgilanadi.

Nutq mazmuni notiqning so'zlar va gaplardan foydalana bilishiga ham bog'liqdir. Nutqning tushunarli bo'lishi, bir tomondan, til xususiyatlarining mazmuniga va nutq o'rtasidagi munosabatlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqdir. Ifodali nutqning fonetik vositalari juda xilmaxil. Tubdan farq qiluvchi diksiyalar, to'g'ri adabiy talaffuz qilish, so'zlarning intonatsiyasi shular jumlasidandir.

Ifodali nutqning leksik vositalari ham turlicha. So'zlarni to'g'ri tanlash, ularning ma'nolarini e'tiborga olish, so'zlar va ko'chma ma'nodagi iboralardan hamda obrazli ifodalardan foydalana bilish ana

shunday leksik vositalar hisoblanadi. Nutqning obrazlilikini ta'minlovchi vositalar sifatida emotsional-ekspressiv vositalar: ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlar, mubolag'a, o'xshatish, kichraytirish, kinoya; uslubiy-sintaktik vositalar: takror, ellipsis, gradatsiya, antiteza, sintaktik parallelizm va boshqalar qatnashadi.

Nutqning ta'sir qiluvchi tomoni, avvalo, uning mazmuni, shuningdek, nutqning tushunarli va ifodali bayon etilishiga bog'liqdir. Notiq nutq yordamida tinglovchilarda ongli harakatga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bunga, avvalo, turli shakldagi iltimoslar, buyruq, talab, taqiqlash, man qilish, ruxsat bermaslik, do'q urish, ta'na qilish orqali erishiladi. Notiq takliflar, noto'g'ri harakatlarning oldini olish yoki ogohlantirish, maslahat yoki tavsiya qilish, yo'llanma berish kabi usul va vositalardan ham foydalanadi. Notiq ma'ruzaning ta'sirchanligini, hayotiyligini, badiiy qimmatini oshirish maqsadida o'z ma'ruzalarini badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar, tarixiy, harbiy arboblarning bo'yruqlaridan, mutafakkir donishmandlarning fikrlaridan olingan sitatalar asosida boytishi lozim. Lekin shuni ham unutmazlik kerakka, badiiy adabiyotlardan olingan parchalarni tinglovchilarga yetkazishda shu parchaga xos mazmun va ohangni saqlab qolish muhim ro'l o'ynaydi.

Nutqning aloqa madaniyati – bu til vositasi yordamida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish madaniyatidir. Informatsiya va aloqa nazariyasi turli sharoitlardagi muomala-munosabatlarning yordami natijasida olinadigan informatsiyalarning umumiy qonunlarini ifoda qiladi. Notiqlik – ma'ruza informatsiyaning chinakkam manbai, uning nutqi esa ma'lumotlarning maxsus ravishda tashkil qilingan sistemasidir.



## BADIIY NUTQ STILI

Funksional stillar sistemasida alohida uslub sifatida o'rganilgan badiiy nutq uslubi ham, boshqa uslublarda bo'lgani kabi, o'ziga xos uslubiy xususiyatlar va lisoniy belgilarga ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning hamda boshqa vazifaviy uslub unsurlarining ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga — estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi. Chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangandir.

Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan birga umumxalq tili boylıklarini ham qamrab oladi. Ya'ni, asarning janr va mavzu talabi bilan, yozuvchining individual uslubiga bog'liq holda badiiy nutqda umumxalq tilidagi barcha lug'aviy qatlamlar ishtirok etaveradi. Xuddi shu ma'noda, boshqacha aytganda, til materialini qamrab olish imkoniyatiga ko'ra badiiy adabiyot tili adabiy til doirasidan chiqib ketadi va umumxalq tili boyligining deyarli barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlardan, varvarizmlardan, dag'al so'zlardan, eskirgan so'lardan, oddiy so'zlashuv tili elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy nutqda o'rni bilan qo'llash mumkin. Masalan, eskirgan so'zlar: *Haqorat, g'azab, alam bilan aytilgan uzuq-yuluq gaplardan bu g'alayonning asli sababini o'qib ola bildi; podshoh va bir ko'p vazirlar Hirotni tark etishi bilan, zakot ishlarini idora qiluvchi Xo'ja Abdullo, Xo'ja Qutbiddin, Nizomiddin Baxtiyor va hokazo ma'murlar o'z bilganlaricha xalqqa yana soliq soldilar.* (Oybek.)

Badiiy adabiyot tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, so'z san'atkori faqatgina umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'z va iboralardagina foydalanib qolmasdan, ularni qayta ishlab, yangi-yangi ma'nolarda qo'llaydilar, ma'nolarini kengaytiradilar, boyitadilar. Tilimizning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi so'z va iboralar yaratadilar<sup>68</sup>. Misol: *Sezaman o'qigan va uqqan onimda, Nur yo'lday dilparast she'rlardan shoirning ko'zini.* (Zulfiya.)

Demak, badiiy nutq uslubi qonuniyatlari tilimizning taraqqiyot

<sup>68</sup> Кучкортоев И. Бадий нутк стилстикаси. —Т.: ТошДУ, 1975, 62—75-бетлар.

qonunlari bilan hamohangdir.

Adabiy tilning nutqiy imkoniyatlari to'raligicha badiiy nutq uslubida namoyon bo'ladi deyish mumkin. Vazifaviy uslublarning hech birida, badiiy nutq uslubidagichalik, til o'zining tuzilish jihatlari, lug'at tarkibi, ya'ni so'zning ma'no boyligi va rang-barangligini, to'g'ri va ko'chma ma'nolarini namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi, ya'ni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok etolmaydi. Til vositalarining chegaralanmagan holda qo'llanishi bilan birga badiiy nutq uslubi doirasida ularni qo'llashning ma'lum qoida-qonunlari ham amal qilinadiki, ana shu qoida-qonunlar uni boshqa uslublardan chegaralashga, farqlashga, imkon beradi. Bu, eng avvalo, badiiy nutq uslubining fonetik lug'aviy va grammatik xususiyatlarida ko'zga tashlanadi.

Badiiy nutq uslubining lug'aviy o'ziga xosligi uni ilmiy uslub bilan taqqoslab o'rganganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ilmiy uslubda lug'aviy birliklarning qo'llanishi birmuncha chegaralangan bo'lib, so'zlar asosan bir ma'noda ishlatiladi, matnda tez-tez takrorlanadi. Matndagi asosiy so'zlarni fanga oid terminlar va turg'un birikmalar tashkil qiladi. Badiiy nutq uslubida esa umumiste'molda bo'lgan barcha lug'aviy birliklar erkin ishlatilaveradi va ularni o'z va ko'chma ma'nolarda bimalol qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, *non, suv, o't, er, osmon, quyosh, oy, yulduz, o'rmon, dala, ishlamoq, yurmoq, turmoq, o'tirmoq* kabi «no'l» bo'yoqqa ega bo'lgan neytral leksikaning ilmiy uslubda qo'llanilishi birmuncha tor doirada bo'lsa, badiiy nutq uslubida o'zining lug'aviy ma'nosini anglatganidan tashqari o'rni bilan ham badiiy-estetik funksiyani bajaradi, ham ko'chma ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan: *Yulduzlarga kecha-kunduzlar*, (Raketalar uchdi basma-bas). *Ey odamlar yuksak yulduzlar*, Sizga uchib yetsam, menga bas. (R. Gamzatov.) Umuman, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyatidir. Badiiy matnda, so'z ma'nosining o'zgarishi, kengayishi, ko'p ko'rinishli bo'lishi va hatto lug'atlarda qayd etilmagan ma'nolar kasb etishi mazkur nutq uslubi uchun qonuniyat sanaiadi.

Badiiy nutq uslubi leksikasidagi o'ziga xosliklar sinonim so'zlarga bo'lgan munosabatda yanada ochiq ko'zga tashlanadi. Ilmiy uslubda sinonimik qatordagi so'zlarning nisbatan neytral bo'yoqqa va aniq bir ma'noga ega bo'lgan varianti ishlatiladi. Badiiy nutq uslubida esa o'rni bilan ularning hammasi, asosan hissiy ekspressiv bo'yog'i bo'lgan shakli ko'p ishlatiladi. Demak, bu uslubda sinonimlarni tanlab



ham, uning bir ko'rinishi sifatida, uning me'yoriylikdan ma'lum maqsadlarga ko'ra cheklanishi bilan jiddiy farq qiladi.

O'zbek tilidagi har bir nutq uslubidagi grammatik belgilarga ega bo'lib, bu eng avvalo, grammatik shakllar, so'z turkumlarini qo'llashda, gap qurilishining o'ziga xosligida ko'rinadi. Badiiy nutq uslubida grammatik shakllarning keng planida qo'llanilish, masalan, otlarning ko'plik shakli -lar badiiy nutq uslubida ko'plik ma'nosini anglatirishdan tashqari, unga bog'liq ravishda yana bir nechta ma'nolarni ifodalashi ko'p kuzatilgan. Bu kabi xususiyatlar ilmiy va rasmiy uslublariga xos emasdir.

Badiiy nutq uslubida ma'lum grammatik shaklning barcha ko'rinishlari — sheva va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanaveradi. Ya'ni badiiy nutq uslubida grammatik sinonimlardan ham tanlab olib ishlatish imkoniyati mavjud. Masalan, qarag'och kelishigining adabiy shakli -ning bilan parallel holda badiiy nutqda -in va -im shakllari ham ishlatilaveradi. *Dunyo bo'ldi chamamam manam, O'zbekiston Vatanim manam* (A. Oripov).

Bundan tashqari o'zbek tilidagi bir qator artikllar faqatgina badiiy nutq uslubidagina mavjud. Masalan: -ajak (*borajak*), -gusi, -gusi (*bo'lgusi*), -gati (*tergati*), -gay (*yurgay, kurgay*), -kin (*bornikin*), -mish (*gohmish*), -n (*gano'kin yuvmoq*), -na (*ustina*), -on (*qo'yibon*), -qali (*laqqali*), -g'ili (*qo'yg'ili*), -g'ili (*boqg'ili*) va hokazo.

Badiiy nutq uslubida barcha so'z turkumlarining ishtirok etishi bu uslub uchun xarakterli xususiyatdir. Ammo ularning badiiy nutqda qaysi biri faol yoki nofaol ekanligini aniqlash maxsus statistik kuzatishni taqozo qiladi<sup>70</sup>. Shuning uchun so'z turkumlarini qo'llashda ko'rinib turadigan ayrim xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

Badiiy nutq uslubida otlarni qo'llashdagi o'ziga xoslik eng avvalo ularning -cha, -chak, -ching, -kay, -gina, -qima, -log, -jon, -xon, -oy, -beka, -poshsha, -dibi, -bonn, -niso, -gul kabi sub'ektiv baho shakllarini olishida ko'rinadi. Otlarni qo'llashdagi yana bir xususiyat egalik kategoriyasida ko'zga tashlanadi. Badiiy nutq uslubida egalikning aniq bo'lishi

<sup>69</sup> Лунонов А., Тихонов А., Куныров Р. Узбек грамматик морфем лугати. — Т.: Уртин, 1977, 399-447-бетлар.  
<sup>70</sup> Голонин В. А. Язык и статистика. — М., «Прогресс», 1971, с. 03—91.  
<sup>71</sup> Куныров Р. Узбек тилида субъектив бaho формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. — Т.: Фан, 1980, 64-145-бетлар.

ishlatish imkoniyati barmuncha keng bo'ladi. Bu fikrning qanchalik to'g'riligini aniqlash uchun bir qancha nusxalarga murojaat qilamiz.

Zulfiya ijodidagi bir nechta sinonimik qatorlarni quyos qilganda ularning qo'llanish darajasi quyidagicha bo'ladi: a) nur-186, *shu'la-24, ziyol, yolg'du-3*; b) *qaymog-19, jo'shqin-14, qizg'in-8*; v) *fagat-57, tamho-25, yolg'iz-22, xalos-6*; g) *ko'krak-22, ko'ks-62, bag'r-43, xiyma-5, to'sh-2, o'mrov-1*; d) *kulg'i-22, tabassum-24*. Misollardagi birinchi so'zlar uslubiy jihatdan neytral so'zlar bo'lib, ikkinchilari hissiyot ekpressiv ma'noga ega, g'olganlarda ham u yoki bu darajada uslubiy bo'yog' sezilib turadi.

Sinonim so'zlarning bunday uslubiy xususiyatlaridan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi: badiiy nutq uslubida neytral leksikaning ishlatilishi faoldir. Bu narsa ularning, qaysi o'rinda bo'lmasin, eng avvalo, xabar berishlik xarakterda ekanligini tasdiqlaydi. Hissiy ekpressiv bo'yog'li ko'proq bo'lgan so'zlar — kitobiy leksikaning mahsulot ishlatilishi esa badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyatidir. Lug'aviy birliklardan tashqari frazeologik birliklarning faol va keng ravishda ishlatilishi ham badiiy nutq uslubining asosiy belgilaridan sanaladi. Ilmiy uslub va rasmiy hujjatlar uslubidagina uslubiy frazeologik birliklarning ishlatilishi xos emas.

So'zlashuv uslubida ko'pincha tilidagi tayyor birliklardan foydalanisa, badiiy ijodda shoir va yozuvchilar ularidan foydalanibgina g'olmasdan, ijodiy o'zlashtiradilar, o'rni bilan yangilarni yaratadilar. Masalan, *Zulfiya ig'na bilan quduq qazmoq* iborasi zamirida *xotira quduqni qazmoq* frazeologizmni yaratadi: *Sen o'zing jim yagma, bu keng dunyoda. Hali ko'ror shodlik, qillar ishing ko'p. Qil'adan-qil'aga kezding pyoda. Xotirang quduq in — qazish kerak xo'p*.

Badiiy uslubda yuqoridagi lug'aviy vositalar bilan bir qatorda badiiy tasvir vositalari ham ishlatiladi. Bu holda publitistik uslubda ham kuzatiladi. Publitistik uslub qanchalik keng qamrovli bo'lmasin, unda ularning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish nisbatan cheklangan bo'ladi. Asosan, matbuot sahifalarida e'lon qilingan badiiy asarlarda, she'riy partalarda bunday vositalardan foydalananganlik kuzatiladi. Bundan tashqari badiiy uslubning jar xususiyatlarini bilan bog'liq ravishda tarixiy so'zlar, arxazmlar va ayrim ijodkorlarga xos bo'lgan so'z g'olashlar kuzatiladi. Shunga ko'ra badiiy til tushunchasi adabiy til tushunchasidan kengroq bo'lib, undan chega chiqish xususiyatiga ega. Badiiy nutq ham adabiy nutqning tarkibiy qisminiga kirtsa

<sup>69</sup> Лунонов А., Тихонов А., Куныров Р. Узбек грамматик морфем лугати. — Т.: Уртин, 1977, 399-447-бетлар.  
<sup>70</sup> Голонин В. А. Язык и статистика. — М., «Прогресс», 1971, с. 03—91.  
<sup>71</sup> Куныров Р. Узбек тилида субъектив бaho формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. — Т.: Фан, 1980, 64-145-бетлар.



grammatik jihatdan to'g'ri, ammo mazmunan tegishli bo'lishi mumkin. Masalan: Harorat ne o'zi? (Harorat, harorat.) *Bir jahon og'ushida sezasan o'zingni.* (Zulfiya.) Ma'lum grammatik kategoriya doirasida bir grammatik shaklning ikkinchi bir grammatik shakl ma'nosini anglatishi fe'l so'z turkumida ham bor. Masalan, aniqlik mayli shakli shart ma'nosini yoki, aksincha, shart mayli shakli aniqlik mayli ma'nosini anglatishi mumkin:

*Hijroning qalbimda, sozing qo'limda, Hayomi kaylayman chekinar alam. Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda, men hayot ekanman hayotsan sen ham.* (Zulfiya.)

Badiiy nutq uslubida fe'ning barcha nisbatlari ishtirok etsa ham, aniq nisbatda qo'llangan fe'llar soni ko'pdir. Ilmiy nutqda esa, aksincha, fe'llar asosan majhul nisbatda qo'llaniladi.

Badiiy nutq uslubida bir nisbat shaklida bo'lgan fe'l ba'zan boshqa bir nisbat ma'nosini beradi. Bunday qo'llanishda muallif aniq bir uslubiy maqsadni ko'zda tutadi. Masalan, A. Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida amin Qobil boboga qarab shunday deydi:— *O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekanda! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!* Bunday murojaat qilishning sababi shuki, Qobil boboni senlay desa u amindan katta, shu darajadagi amalda bo'la turib, bir kambag'alni sizlagisi kelmaydi.

Fe'ning majhul nisbat shaklida berilishi yaxshi uslubiy vosita vazifasini o'tagan.

Badiiy nutq uslubida boshqa so'z turkumlarining ishlatilishida ham o'ziga xosliklar mavjud. Masalan, sifatlarning ishlatilishi badiiy nutqda ot va olmosh kabi faoldir. Chunki sifatlarning matnda ko'pincha epitet vazifasini bajaradi. Olmoshlardan kishilik va ko'rsatish olmoshlarining qo'llanishi uning boshqa turlariga nisbatan mahsuldor. Sonlar badiiy nutq uslubida odatda aniq ma'nolarni anglatish bilan birga ma'nosi kengaygan holda ham qo'llanadi.

Undov va taqlidiy so'zlarning vazifaviy uslublarda uchrashi ham xarakterli. Bunday so'zlar ilmiy va rasmiy uslublar uchun xos emas, publitsistik uslubda kam ishlatiladi. So'zlashuv va badiiy nutq uslublarida esa ularning qo'llanishi mahsuldor. Aytaylik, mumkinki, badiiy nutq uslubining «o'z» undovlari bor: *oh, eh, fu, ifu, dod, be-e, e-voh, voy-bo'y, voy-dod, hah, eh attang, hayhot* kabi so'zlar ko'proq badiiy nutq uchun xos. Xuddi shu holat modal so'zlarda ham kuzatiladi. Masalan, *shaksiz, darhaqiqat, darvoqe, shubhasiz, tabiiy, zotan, zora,*

*zero, darkor, koshki, holbuki, vaholanki, beshak, g'olibo, shoyad* kabi so'zlar badiiy nutq uslubida ko'proq ishlatiladi.

Vazifaviy uslublar faqatgina leksik va morfologik jihatdangina emas, sintaktik jihatdan ham bir-birlaridan farq qiladi. Ammo badiiy nutq uslubining sintaktik xususiyatlari haqida bu uslubda yozilgan asarlarning janr bo'linishlarini e'tiborga olmasdan turib gapirish qiyin. Chunki, bir janrning sintaktik tuzilishi o'ziga xosdir.

Adabiyot nazariyasiga oid asarlarda<sup>72</sup> adabiy tur va janrlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Lekin bu nazariy adabiyotlardagi tur va janrlar tasnifi ularning lisoniy tahlili uchun qulay emas. Masalan, dostonlar epik tur doirasida qaraladi va ham prozaik, ham she'riy yo'l bilan yoziladi. Bu holat uni lingvistik jihatdan tekshirish imkoniyatini qiyinlashtiradi. «Adabiyot nazariyasi» asarining mualliflari badiiy asar tilini tuzilishiga ko'ra farqlaydilar va uni ikkiga — prozaik va she'riy asarlar tiliga bo'lalilar<sup>73</sup>.

Ba'zi qo'llanmalarda badiiy nutqning uchta alohida ko'rinishlari mavjudligi tasdiqlanadi: nasriy nutq, poetik nutq va dramatik nutq<sup>74</sup>.

Nasriy asarlarda qo'llaniladigan sintaktik birliklar hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yorlarini o'zida aks ettiradi. O'zbek tili grammatikasida so'z tartibi erkin bo'lishi, shu bilan birga, ayrim bo'laklarning muayyan o'rinlarda kelishi qayd qilinadi. Masalan, ega o'ziga oid so'zlar bilan gapning boshida, kesim o'ziga oid bo'laklar bilan gapning oxirida keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar ba'zan egadan oldin, ba'zi hollarda kesimdan oldin keladi. Nasriy asarlarning sintaktik qurilishi ham shu tartibga bo'ysunadi, ammo ba'zi hollarda mazmun va emotsionallik talabi bilan prozaik nutqda ham inverciyaga yo'l qo'yiladi. Masalan, *Buning hammasiga chidab, sig'indi bo'lib yurishga bardoshi yetmasligini endi ochiq sezgan Bobur: - Yo'q, - dedi. - Hammasidan kechdim! Janob Qosimbek, men endi shoh emasman! Kerak emas menga xon qabuli! Bas! Uloqtiring hammasini.* (P. Qodirov «Yulduzli tunlar»).

Gaplarning turli ko'rinishlari barcha uslublarda umumiy tarzda ishlatiladi. Ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq va buyruq gaplar u yoki bu uslubda ko'p yoki oz miqdorda qo'llanilishiga ko'ra farq qiladi.

<sup>72</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. —Т.: Ўқитувчи, 1980, 392-бет; Адабиёт назарияси. II том, —Т.: Фан, 1977, 184-304-бетлар; Шукуров Н. ва бошқалар. Адабиётшунослика китоби. —Т.: Ўқитувчи, 1984, 194-240-бетлар.

<sup>73</sup> Адабиёт назарияси, I том, —Т.: Фан, 1977, 357-бет.

<sup>74</sup> Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. —Т.: ТошДУ нашриети, 1994, 78-бет.



Darak gaplar barcha uslublarda faol qo'llanadi. So'roq va buyruq gaplar esa chegaralangan holda ishlatiladi. Masalan, ilmiy nutqda bunday gaplarga faqat kitobxonning diqqatini tortish kerak bo'lgan holatlardagina murojaat qilinadi. Badiiy nutqda bunday gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Badiiy nutqda undov gaplar kuchli his-hayajonni ifodalash uchun qo'llanadi. Ular kitobxonga estetik ta'sir o'tkazishda yozuvchi qo'lida kuchli qurol hisoblanadi. Masalan, *Mirzo Ulug'bekning ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. Xudoga shukurlar bo'lg'aykim oqibatli farzand ato qilmasa-da, senday o'g'il ato qildi. Ilayim boshing toshdan bo'lg'ay. Movarounnahr baxtiga, ilm-ma'rifat va ahli-irfon baxtiga umring boqiy bo'lg'ay, o'g'lim!* – *Mirzo Ulug'bek ko'z yoshlarini artib, qo'chog'ini ochdi. Ustod bilan shogird go'yo abadul-abad diydor ko'risha olmasliklarini sezganday, unsiz yig'lab uzoq vidolashishdi.* (O.Yoqubov «Qo'lina dunyo»)

Badiiy nutqda qo'shma gaplarning har uchala turidan foydalanish mumkin. Rasmiy va ilmiy uslublarda qo'shma gaplarning bog'langan va bog'lovchisiz bog'langan turlari, so'zlashuv uslubida sodda gaplar, ayniqsa, ularning to'liqsiz shakli ishlatilishi xos bo'lsa, publitsistik va badiiy nutq uslubida gapning har ikki turi ham aralash holda kelaveradi. Ammo badiiy matnning sintaktik tuzilishi haqida gapirganda muallifning ijodiy manerasiga ham ahamiyat berish kerak.

Chunki har bir yozuvchining tasvirlayotgan voqeani tushunishi, tilga munosabati, tasvirlash usuli bo'ladi. Ana shu narsa ularning tildan foydalanish uslubini belgilaydi.

Badiiy nutq uslubining yana bir o'ziga xos xususiyati uni ilmiy nutq bilan qiyoslaganda ko'rinadi. Ilmiy nutqda faqatgina muallif ishtirok etadi. Badiiy nutqning shakllanishida esa muallif bilan birga personajlar ham qatnashaveradi. Demak, ilmiy nutqda faqat monologik nutq hukmron bo'lsa, badiiy nutq uchun ham monologik, ham dialogik nutq xosdir.

Prozaik asarlar tilda muallif va personaj nutqining mavjud bo'lishi, ular orqali yana boshqalar nutqining berilishi badiiy nutq uslubida gaplarning turli xil qurilmalarda ishlatilishini taqozo qiladi<sup>75</sup>. Shuning uchun ham badiiy nutqda muallif gapidan tashqari ko'chirma

<sup>75</sup> Исроилов О. «Хозирги замон ўзбек адабий тилида ўзга гап». – Самарканд, ном. дисс. авт. 1981.

gap, o'zlashtirma gap va o'ziniki bo'lmagan gaplarning ko'plab namunalarini uchratish mumkin.

Poetik nutq nasriy va dramatik nutq ko'rinishlariga qaraganda tilning badiiy tasvir vositalaridan foydalanishning eng yuksak namunasi hisoblanadi. Bu o'rinda poetik nutqni shakllantiruvchi uslubiy-sintaktik vositalar poetik nutqni ta'sirchanligini oshirib, o'quvchida hissiy munosabatlarni uyg'otadi.

Deyman: sahar shafaqdan,  
Uchqunmu, lolasanmu,  
Shodlik mayiga to'lgan,  
Gulgun piyolasanmu?  
Deydi: qiziq savoling,  
Qayda ajab, xayoling,  
Yellar ko'rib bu holing  
Kulmoqda: bolasanmu?

(Erkin Vohidov)

She'riy parchadagi *shafaq, may, gulgun, qayda* so'zlari to'la ma'noda poetik nutq uchun xoslangandir. Bulardan tashqari *lolasanmu piyolasanmu, bolasanmu* so'zlaridagi *-mu* so'roq yuklamasi ham hozirgi adabiy til me'yoridagi *-mi* o'rnida qo'llangan va she'rning badiiylikni, ohangdorligini ochish uchun xizmat qilgan.

Badiiy nutqda har bir so'z odatda fikrni ta'sirchan, obrazli qilib ifodalashga xizmat qilishi shart. Shuning uchun ham metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, o'xshatish, epitet, ironiya, kichraytirish, jonlantirish; antiteza, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik va ko'p bog'lovchilik, ellipsis, takror kabi tilning tasviriy vositalaridan unumli foydalaniladi.

Ulug' yozuvchi Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida tasviriy vositalardan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Asarning tili juda shirador, yoqimli, nozik, ma'lum darajada madaniyatga ega bo'lgan kishilar xatti-harakatlarini ifodalaydi.

Otabek bilan Kumushning orasidagi munosabatlar, turli kechinmalar va kayfiyatlarni ko'proq tasvir orqali ifodalashga harakat qiladi. Bunda har bir so'z, har bir ibora, har bir qo'shimcha va gaplar o'ziga xos tarzda vazifa bajaradi. Lisoniy vositalar o'z vazifalarida u yoki bu tushunchani, u yoki bu harakatni yoki beelgini ifodalabgina qolmasdan ular orqali o'sha holatga, tushuncha va harakatga



yozuvchining munosabatini ifodalaydi: *Mehmonxonadan chiqib keluvchi farishtaga ko'zi tushdi*. Bu o'rinda *mehmonxonona* so'zi o'rinda *uydan, ichkari hovlidan* so'zlarini ishlatish mumkin edi. Lekin yozuvchi Marg'ilonda, umuman, Farg'ona vodiysida tashqari hovlining bir tomonida mehmonxonona bo'lishini ta'kidlagan, shunga ko'ra *mehmonxonona* so'zini o'zini qo'llagan. Yozuvchi *go'zal bir qiz* iborasini ishlatganda ham Kumush haqidagi tushuncha ifodalangan edi. Biroq shunday qo'llaganda Kumush boshqa *go'zal qizlarga o'xshab* qolar, shulardan bittasi hayotda uchraydigani bo'lib chiqar edi. Yozuvchi tomonidan tasvirlanayotgan qiz esa u *go'zal qizlarga teng* emas, ulardan sal yuqori darajada ham emas. U *go'zalgina* emas, balki Olloh alohida yaratgan, Olloh diydoridan bahramand bo'lgan, unga yetishgan, faqat ungagina xizmat qilishi mumkin bo'lgan osmon uchun mo'ljallangan va bu dunyo uchun xos bo'lmagan alohida qizdir. Albatta, bu ta'riflar va tasvirlashlar uchun so'zlar, gaplar o'zlik qilyapti. Biroq o'zbek tilida ana shu chala ta'riflarni ham to'ldirib ifodalaydigan so'z bor. Bu *farishta* so'zidir. A.Qodiriy ana shu *farishta* so'zini qo'llash bilan bu mohi paykarning butun xususiyatini to'la ta'riflab beradi. Demak, yozuvchi tomonidan berilgan tasvir va so'z orqali Kumush bu *go'zal olamning eng go'zal qizlaridan* ham ancha yuqori darajadadir. U – abadiy dunyo *go'zali*, Olloh muruvvatiga loyiq bo'lgan *go'zaldir*.

So'zni bu darajada tanlab qo'llash, unga jiddiy vazifa yuklash har qanday yozuvchini ham qo'lidan kelavermaydi. Ayrim yozuvchilarda farishtaga o'xshatish uchraydi: *farishta misol, farishtadek* kabilar. Biroq bulardagi ta'rif yetarli emasligi bilinadi, bunda o'xshaydi-yu, o'zi emasda. *Chiqib kelguvchi farishtaga ko'zi tushdi* jumlasida esa o'xshatish shu darajada qiyomiga etganki, narsa o'xshatilayotgan narsaga teng, uning o'zidir. Demak, bunda faqat o'xshovchi ifodalangan xolos: o'xshovchi o'xshatilishni ham o'z ichiga olgandir.

*Ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va bu qarashda unga yengilgina tabassum hadya qildi...* Bu jumlada juda katta mazmun o'z ifodasini topgan: avvalo, Kumush qiziqsinib qoldi, ko'nglini uzolmadi, yigit ham bir qarashda unga yoqqan, u ham Kumushning yuragiga g'ulg'ula solib bo'lgan. Noilojlikdan uyga kirib ketmoqchi. Biroq baribir, qalb amri bunga yo'l qo'ymadi. Ana shu yoshdagi qizlarga xos «yurakdan urdirish»ni oxiriga yetkazmoqchi, bu mehmonga biror sovg'a hadya etmoqchi, nogahon xayoliga kelgan o'ydan kelib chiqib tabassum hadya

qildi va yigitni noumid chiqarib yubormadi. Shuning uchun, keyinroqda *ipsiz bog'lab* iborasi qo'llangan va bu ibora o'z ma'nosidan uzoqlashgan holda ijobiy ma'noda qo'llangan edi.

Asar matnida *xayol yashiringan yo'lak, xayollandi, kuch bilan oyoq ustida, asirini tomosha qilar edi, yashiringan go'zal, muhabbat mojarosi, shunga binoan bo'lib, bil'aks kutib olinishi, natijalandi* so'z va so'z birikmalariga ham ana shunday yaxshigina vazifalar yuklatilganki, buni o'quvchilar yaxshilab tahlil qilishlari mumkin.

Mana shu holatlar badiiy nutqning kuchi, qudrati sanaladi. Shu holda uning ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yozuvchi bularning hammasiga o'zbek tilining badiiy tasvir vositalaridan, har bir so'z, uning ma'nolari, tovushlari, har bir qo'shimchalariga xos bo'lgan xususiyatlari, gaplar va iboralarning tasviriylikni ifodalashdagi o'rini, imkoniyatlarini bilgan holda ulardan foydalangan taqdirdagina erishadi. Til birliklari imkoniyatlariga befarq qaragan adib ijodkor bo'lolmaydi, san'at asari darajasida asar yarata olmaydi.

Badiiy nutqda yozuvchining badiiy tasvir vositalaridan imkoni boricha foydalanishi uning inson ma'naviy hayotiga ta'sir etishni maqsad qilib qo'yganligidir. Bu narsa poetik nutqqa ham, nasriv va drammatik nutqlarga ham tegishli bo'lib, tasviriy vositalardan foydalanishda har bir badiiy nutq ko'rinishi o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Masalan, o'xshatish, sifatlash, ko'chim turlari poetik nutqda ham nasriy nutq va drammatik nutqda qo'llanadi va o'z vazifasini bajaradi. Poetik nutqda uslubiy sintaktik vositalar ham ishlatiladi, o'xshatishning turli shakllari, *misli, go'yo, yang'liq* vositalari bilan ifodalanganlari ko'proq qo'llansa, nasriy va drammatik nutqda –*dek, -day, o'xshab, kabi, xuddi, hamisoli* kabi vositalar orqali ifodalaniishi ko'p kuzatiladi. Takrorning so'z, so'z birikmasi, tovushlar takrori kabi ko'rinishlari poetik nutqda keng qo'llansa, gap takrori, kesim takrori kabi ko'rinishlari nasriy va drammatik nutq uchun xarakterlidir. Masalan, *Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin* (G'.G'ulom, «Sen etim emasan»)

*Uyda, oilada, dalada, qirda,*

*Oppoq paxta bitgan serunum yerda.* (H.Olimjon)

- *O'sha asaining puliga anor ham berar edi.*

- *Berar edi! – dedi Turohjon zaharxanda qilib.*

- *Anor olmay, asal oldim!*

- *Albatta berar edi!*

- *Albatta anor olmay, asal olgansiz!* (A.Qahhor «Anor»).



Birinchi misolda takror ta'kidlash, kuchaytirish ma'nosini ifodalagan. Shu maqsadda shoir *tong yaqin* iborasini o'zgarishsiz ikki marta va yanada bo'rttirish uchun uning oldidan *oppoq* so'zini keltirish orqali yana takrorlaydi va maqsadiga erishadi.

Shu o'rinda badiiy takror va grammatik takror haqida shuni aytish mumkinki, badiiy takror – tasviriy vosita va u yuqorida aytganimizdek, ta'kid va kuchaytirish ma'nosini ifodalaydi. Asosiy ma'no esa o'zgartirilmaydi, asosan, voqea-hodisaga, fikrga inson munosabatini ifodalaydi. Grammatik takror esa, asosan, ko'plikni ifodalaydi: *mashina-mashina tarvuz tushurdik, gapirib-gapirib charchadi, yig'lab-yig'lab uxlab qoldi*. Bunday holatda ham inson munosabati ifodalangan bo'ladi.

Badiiy nutqda bir vaqtning o'zida bir necha san'atlardan, bir necha badiiy tasviriy vositalardan bir to'la foydalanish mumkin:

*Orazin yopg'och, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,*

*Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.* (A.Navoiy)

Ushbu misrada birinchi navbatda yuz quyoshga, ko'z yoshlari yulduzlarga, yuzning yopilishi quyosh botishiga, yulduzlarning, osmonning hamma joylarida paydo bo'lishi ko'z kosasining hamma joyida yosh ko'ringan holatga o'xshatilganini ko'ramiz. Qisqasi shoir o'xshatish san'atidan yaxshi foydalangan; ikkinchidan shoir qoplovchi inversiyadan va ichki inversiyadan o'rinli foydalangan: birinchi misrada ikkita sodda gap bo'lib, ular ergash gapli qo'shma gapni tashkil etgan. Birinchisi ergash gap (payt ergash gap), ikkinchisi bosh gapdir. (*Ko'zimdin sochilur har lahza yosh*); ikkinchi misrada ham ikkita sodda gap bo'lib, ular ham ergash gapli qo'shma gapni shakllantirgan: birinchisi bosh gap, ikkinchisi ergash gapdir.

Shoir birinchi qo'shma gapda oldin ergash gapni so'ngra bosh gapni keltirgan bo'lsa, ikkinchi qo'shma gapda avval bosh gapni, so'ngra ergash gapni keltirgan. Ergash gapli qo'shma gaplardagi sodda gaplarning o'rnini almashtirib qo'llagan va qoplovchi inversiyani vujudga keltirgan. Shu bilan birga birinchi misrada ergash gap tarkibidagi kesimni o'z o'rnida qoldirib, bosh gapdagi kesimni egadan oldin keltirgan. Keying misrada esa ham ergash gapdagi, ham bosh gapdagi ega-kesimlar o'rnini almashtirgan va ichki inversiyani yuzaga keltirgan.

Birinchi misradagi ergash gap va bosh gaplar joylashuvini ikkinchi misradagi bosh va ergash gap joylashuviga zid tarzda o'lgan va

bu bilan antiteza (tazod) san'atini yuzaga keltirgan.

Shoir mubolag'a va jonlantirish san'atlaridan ham o'rinli foydalangan. Bu misralarda boshqa badiiy tasvir vositalaridan ham foydalanilganligi ko'rinib turibdi. Biroq yuqorida ko'rsatilganlar yetakchi ahamiyat kasb etgan va badiiylikni ana shular ta'minlagandir.

Ilmiy va rasmiy hujjatlar nutqida bu vositalardan deyarli foydalanilmaydi; jonli so'zlashuv va matbuot nutqida ham ularni bemalol qo'llash mumkin. Badiiy nutqda esa bulardan foydalanmaslik hecham mumkin emas. Bu vositalarsiz badiiy nutqning o'zi yo'q narsadir.

Adabiyotshunos Izzat Sultonovning quyidagi fikri ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi. «Adabiyot asarining mazmuni, undagi g'oyaning oliyjanoblighi, tasvir etilgan odamlar va hodisalarning go'zalligi yoki hunukligi – hammasi o'quvchiga asarning tili orqali yetadi. Shu sababli til sohasidagi mahorat yozuvchi qobiliyatining eng yorqin alomatidir» («Adabiyot nazariyasi», 197-bet).

Xulosa qilganimizda, til vositalarining vazifaviy chegaralanishi ularni nutq jarayonida ham farqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, nutqda — yozish va so'zlash jarayonida masalaga nutq mavzusi va xususiyati nuqtai nazaridan yondoshilib, nutq uslublarning amal qilish qonuniyatlari va talablarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.А.Каримов Озод ва обод Ваган равнаки – бош мақсадимиздир. Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод И.А.Каримовнинг Фарғона вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқи. «Халқ сўзи», 2005 йил 20 декабрь, 437-сон.
2. Адресва В.И. Делопроизводство. 3-е изд. –М., «Управление персоналом», 1996.
3. Аминов М., Мадвалиев А., Махкамов Н., Махмудов Н. Иш юритиш. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2000.
4. Абдурахмонов Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг услублари ҳақида.
5. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Академик Ғанижон Абдурахмонов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари. –Фарғона, 2005.
6. Ахмедов А. Нотиклик санъати. –Т.: Ўзбекистон, 1967.
7. Ақобиров С. Лугат - сўз хазинаси. –Т.: Фан, 1977.
8. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т., 1981 й.
9. Абдуллаева Л. Ўзбек бадиий адабиётининг лексик стилстикаси. –Т., 1979.
10. Адабиёт назарияси, 1 том, –Т.: Фан, 1977, 357-бет
11. Бегматов Э. Нотикнинг нодир бойлиги. –Т.: Ўзбекистон, 1980.
12. Будагов Р.А. Литературные языки и языковые стили. –М., 1967.
13. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика, –М., 1963.
14. Головач А.С. Оформление документов. 2-е изд. Киев. Высшая школа, 1983.
15. Головин Б. А. Язык и статистика.— М., «Просвещение, 1971, с. 03-91.
16. Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. –М., 1965.
17. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. –Т.: Фан, 1988.
18. Иш юритиш атамаларидаги русча-ўзбекча қисқача лугати. –Т.: Фан, 1994.
19. Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. –Т.: Фан 1972.

20. Иш юритиш. –Т.: Фан, 2000.
21. Иш қозғаларидан намуналар. –Т., 1990.
22. Исроилов О. «Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида ўзгаришлар». Самарқанд, ном.дисс.авт. 1981.
23. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. АКД. –Т., 1998.
24. Лихачёв М.Т. Организация делопроизводства в учреждениях. –М., Экономика, 1986.
25. Мамажонов А. Қўшма гап стилстикаси. –Т.: Фан, 1990.
26. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий тили. –Т.: Фан, 1984.
27. Махмудов Н., Мадвалиев А., Махкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. –Т., 1984.
28. Муҳиддинова Х., Абдуллаева Н. Расмий услубнинг дилчилик ёзишмалар тури. –Т., Республика таълим маркази. 1997.
29. Пиотровский Р.Г. Очерки по стилистике французского языка. –М., 1960.
30. Розентал Д.Э. Практическая стилистика русского языка. –М., 1974.
31. Султон И. Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 1980, 1982-бет.
32. Тўйчибоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида синтактик сингулярлик. –Т.: Фан, 1988 й.
33. Тожиёв Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. «Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари» (Оммабоп қўлланма). –Т., ТошДУ нашриёти 1994 й.
34. Шуқуров Н. ва бошқалар. Адабиётшуносликка киритилган ўқитувчи, 1984, 194-240-бетлар.
35. Шомақсудов А., Расулов И., Қунғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилстикаси. –Т.: Ўқитувчи. 1983.
36. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Фан, 1980.
37. Шомақсудов А., Расулов И., Рустамов Х. Ўзбек тили стилстикаси. –Т.: Ўқитувчи. 1983.
38. Ўзбекистонда нотариат. Амалий қўлланма. –Т.: Адолат, 1996.
39. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. –Т.: Адолат, 1996.
40. Ўзбекистон Республикаси вилоятлари, шаҳарлар ва туманликлари ҳокимликлари аппаратларида иш юритиш тартиби. –Т.: Адолат, 1996.



- бўйича йўриқнома тўғрисида. Ўзб.Р. Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 18 августдаги 424-сон қарорига илова.
42. Ўзбек нутқи маданиятининг долзарб масалалари. Тўплам. –Т., 1990 й.
43. Ўринбоев Б., Солиев Б. Нотиклик маҳорати. –Т.: Ўқитувчи, 1984.
44. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Фан, 1976.
45. Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.
46. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Т.: ТошДУ нашриёти, 1994, 78-бет.
47. Қиличев Э. «Бадий тасвирнинг лексик воситалари». –Т.: Фан, 1982.
48. Кўчкортюев И. Бадий нутқ стилистикаси. –Т.: ТошДУ нашриёти, 1975.
49. Кўнгулов Р. ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Фан, 1983.
50. Қисқача русча-ўзбекча-инглизча иш юритиш лугати. –Т.: Ўзбекистон, 1995.
51. Кўнгулов Р. Ўзбек тилида субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. –Т.: Фан, 1980, 64-145-бетлар.
52. Фуломов А., Тихонов А., Кўнгулов Р. Ўзбек тилининг морфем лугати. –Т.: Ўқитувчи, 1977, 399-447-бетлар.
53. Фуломов А. Ф. Адабий тил нормалари. «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплам, –Т.: Фан, 1973.
54. Ҳақимов М., Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. НДА, –Т., 1999.

## MUNDARIJA:

SO'ZBOSHI.....	3
STILISTIKA VA UNING PREDMETI, MAQSAD-VAZIFALARI. STIL HAQIDA TUSHUNCHA .....	5
NUTQ STILLARINING TASNIFI. OG'ZAKI (SO'ZLASHUV) NUTQ STILI.....	19
OG'ZAKI (SO'ZLASHUV) NUTQ STILI .....	30
RASMIY NUTQ STILI .....	33
Rasmiy ish qog'ozlarining til xususiyatlari.....	37
ILMIY NUTQ STILI .....	47
Ilmiy uslubdagi obrazlilik.....	49
Ilmiy-ommabop stil turi.....	50
Ilmiy stilning til xususiyatlari .....	52
PUBLITSISTIK NUTQ STILI.....	55
Publitsistik nutqni yuzaga keltiruvchi lingvistik omillar.....	57
NOTIQLIK STILI .....	64
Qadimgi sharqda notqlik san'ati .....	70
Notqlikning asosiy ilmiy qoidalari .....	76
Notqlikda til va uslub masalasi .....	81
BADIIY NUTQ STILI .....	88
ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	100



*O'quv-uslubiy nashr*

M. XALILOVA

**O'ZBEK TILI  
STILISTIKASI ASOSLARI**

*O'quv qo'llanma*

Muharrir: Umidjon Jabborov  
Texnik muharrir: Saidjon Jo'rayev  
Dizayner: Ilhom Qahhorov  
Musahhih: Tavakkalxon Akbarova

Bosishga ruxsat etildi: 24.04.2009-yil. Bichimi: 84x108<sub>1/16</sub>. Nashriyot bosma tabog'i: 6,5. Shartli bosma tabog'i: 6,75. Adadi 300 nusxa.  
Buyurtma raqami – 31.

«FARFONA» nashriyoti.  
150114, Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur ko'chasi, 28.

«JAHONNASHRIYOT» XKda chop etildi.  
150114, Farg'ona shahri, Gertsen ko'chasi, 2.  
Lits. № 22-1568. 2007-yil 27-iyul.



